

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti
“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası

Onaxon Jabborova

**BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASINING YANGI NAZARIY
MASALALARI**
(Monografiya)

Chirchiq – 2022

Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy masalalari. Monografiya. – Chirchiq.: "Ishonchli hamkor". 2022.

Mazkur monografiya "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" Namunaviy dasturi mavzulari va mazmuniga binoan yozilgan bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim metodikasining eng dolzarb nazariy masalalari tahlil etilgan. Monografiyada qo'yilgan masalalar O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va o'qitishning kredit-modulli tizimi talablari asosida nazariy, metodik va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Monografiya boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalari, magistrantlari, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ilmiy xodimlar va muammoga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Matchonov Sapa, pedagogika fanlari doktori, professor

Djumayev Mamanazar Irgashevich, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Monografiya Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Bayonnoma №....

Mundarija

Kirish

1-modul: Boshlang'ich ta'lim metodikasining dolzarb nazariy masalalari

1.1. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi masalalari

1.2. Boshlang'ich ta'lim metodikasida innovatsiya va integratsiya omili

2-modul: Boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy tajribalari

2.1. Oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida chet tillarini o'qitishning innovatsion yondashuvlari

2.2. Boshlang'ich ta'lim metodikasining xorijiy tajribalari: Komenskiy, Ushinskiy va Montessori metodologiyasi

3-modul: Boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasi amaliyoti

3.1. "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanining asoslari

3.2. Boshlang'ich ta'lim amaliyotida "Yoshlar strategiyasi" dasturining ahamiyati

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

Kirish

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida hozirgi zamon milliy boshlang'ich ta'lim tizimining yangi vazifalari belgilangan. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim jarayonining amaliy samaradorligini kuchaytirish va bunda o'ziga xos yondashuvlarga tayanish muhim vazifalar hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limga oid qo'yilayotgan yangi talablarning ijrosini ta'minlashda boshlang'ich ta'lim metodikasi muhim o'rin tutadi va mazkur metodikaning asoslariga doir yangicha yondashuvlar tizimini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi.

Mazkur qo'yilayotgan muammo bo'yicha, eng avvalo, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nazariy bilim, amaliy ko'nikma va maqbul metodikalarni egallashi taqozo etiladi. Chunki boshlang'ich ta'lim metodikasini yangilab borish va yangilanish asoslari bilan talabalarni qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda eng maqbul metodikalarni takomillashtirish masalasi ham davr talabiga mos ravishda hal etib borilishi amaliy ahamiyatga ega.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy masalalariga yangicha yondashish zaruriyatini qo'yadi. Ushbu monografiya ana shu masalalarning nazariy va metodik yechimlarini topish maqsadida tayyorlandi. Monografiyani tayyorlashda imkon qadar Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'quv dasturlari mazmuni va mavzusidan kelib chiqildi. Shuningdek, unda muallifning individual yondashuvlari o'z ifodasini topgan.

Monografiyada yoritilgan vazifalar yakunlangan, deb hisoblamaymiz. Aksincha, ular qo'yilayotgan muammolar uchun debochadir.

Monografiyaga doir fikr-mulohazalaringiz va tavsiyalaringsizni kutib qolamiz.

1-modul: Boshlang'ich ta'lim metodikasining dolzarb nazariy masalalari

1.1. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi masalalari

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida sifatli ta'lim va uning samaradorligi muhim o'rin tutadi. Bunda, ayniqsa, boshlang'ich ta'limning mamlakatimizda tutgan o'rni va ahamiyati ortib bormoqda¹. Boshlang'ich ta'lim tizimi umumiy o'rta ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning yangi vazifalari quyidagilardan iborat:

- aniq, gumanitar va tabiiy fanlarning dastlabki bosqichi bilan o'quvchilarni tanishtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, savodxonlik va tarbiyalanganlik ko'nikmalarini shakllantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning umumiy o'rta, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim bosqichlariga tayyorlash;

- boshlang'ich ta'limga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish.

E'tibor berilsa, O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim o'ziga xos tizim va vazifalarga ega. Bunda, ayniqsa, o'quvchilarni keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlash muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilariga zamonaviy ta'limning yangi talabi ortib bormoqda.

O'zbekistonning 2022-2026- yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da mamlakatda "ilm va innovatsiyalarga asoslangan yangi iqtisodiyotni barpo etish" vazifasi qo'yilgan². Bu vazifalar ijrosi doirasida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va unda ta'lim sifatiga erishish masalalari ham muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish va uning vositasida boshlang'ich ta'limni sifat jihatidan rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi³.

Bugungi kundagi mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim metodikasida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- 1) o'quv fanlarini an'anaviy dars metodikasi asosida o'qitishga ustuvor ahamiyat berish;

- 2) darsning an'anaviy tushuntirish, topshiriq berish va baholash tizimiga amal qilish;

- 3) o'qituvchilarning ko'p hollarda darsliklar bilan cheklanib qolishi;

¹ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // www.ziyounet.uz

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. – Toshkent, 2021-yil

³ Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021

4) faol o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalari ommalashmaganligi va h.k.

Bunday turg'un boshlang'ich ta'lim metodikasi ko'p hollarda ta'limning sifat darajasiga ta'sir etayotganligi sir emas. Shu sababli kuzatishlar va o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim metodikasini yangilash va rivojlantirish ehtiyoji mavjud. Bunday ehtiyojning asosiy sabablarini quyidagilar tashkil etadi:

a) boshlang'ich ta'lim bitiruvchilari ta'limning umumiy o'rta, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan bosqichlariga tayyorlanmoqda;

b) boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarning eng zamonaviy shakllarini joriy etish ehtiyoji;

v) boshlang'ich ta'lim bitiruvchilari orasidan iqtidorli o'quvchilarni tanlab olish va ta'limning keyingi maxsus bosqichiga yo'naltirish;

g) boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini aniq, gumanitar va tabiiy fanlar turkumlariga bo'lib o'qitish.

Bularning barchasi hozirgi boshlang'ich ta'lim metodikasini tubdan o'zgartirish, yangilash va takomillashtirishni taqozo etadi⁴.

Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha to'plangan tajribalardan ham voz kechib bo'lmaydi. Misol uchun, bu borada quyidagi tajribalarning mavjudligini alohida ta'kidlab o'tish joiz:

- mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'ziga xos individual metodik tajribalar majmui mavjud;

- an'anaviy dars vositasida mavzularni chuqur tushuntirish tajribasini ham ta'kidlab o'tish joiz;

- ko'pgina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining novatorlikka intilish harakatlari ham mavjud.

Bunday tajribalar boshlang'ich ta'lim metodikasini yangilashda poydevor vazifasini o'tashi kerak.

Boshlang'ich ta'lim metodikasining hozirgi holatida ilmiy-tadqiqotlar yo'nalishi ham muhim o'rin tutadi. Mamlakatimiz pedagog olimlari bu masalada quyidagi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotganligini ta'kidlab o'tish joiz:

- boshlang'ich ta'lim metodikasini axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan texnologiyalar bilan kuchaytirish;

- boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy va metodologik masalalarini tahlil etish;

- boshlang'ich ta'lim metodikasi manbalarini o'rganish;

⁴ Mardonov Sh.Q., Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'limda asosiy tushunchalar. XXI asr ta'lim tizimida innovatsion va integratsion yondashuvlar, Jizzax, 2021, B. 312-314.

- boshlang'ich ta'lim metodikasiga doir xorijiy tajribalarni tadqiq etish.

Bularning barchasi hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada bizningcha, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) axborot-kommunikatsion texnologiyalarning kompyuterli, onlayn va masofaviy shakllarini boshlang'ich ta'limga joriy etish muammolari;
- 2) boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsiyalash muammolari;
- 3) boshlang'ich ta'lim didaktik jarayonini texnologiyalashtirish va o'qitishda sifat samaradorligiga erishish muammolari;
- 4) boshlang'ich ta'lim metodikasini yangilashning ilmiy, nazariy va metodologik omillari;
- 5) boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishga doir xalqaro ta'lim dasturlari tajribalari.

Mazkur yo'nalishlarda ilmiy, nazariy va metodologik tadqiqotlar olib borish boshlang'ich ta'lim metodikasining hozirgi holatini rivojlantirish imkonini beradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim barcha keyingi ta'lim bosqichlarining negizi hisoblanadi. Chunki mamlakatimizda maktabgacha ta'lim bosqichi tashkil etilgach, boshlang'ich ta'lim mazmuni o'zgardi. Bu o'zgarish boshlang'ich ta'lim mazmunini chuqurlashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi bir necha turlariga tayyorlash, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini ishlab chiqilayotgan Milliy o'quv dasturi asosida turkumlashtirib o'qitish, boshlang'ich ta'limga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish va professional boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash tashkil etadi. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim metodikasini tubdan o'zgartirish zaruriyati mavjud. Biz bu borada axborot-kommunikatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki pandemiya kabi murakkab sharoitlarda o'qitishning noan'anaviy shakllariga asoslanish taqozo etilmoqda. Shu sababli bundan keyin boshlang'ich ta'lim metodikasida har qanday murakkab sharoitda boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda qo'l keladigan o'qitish texnologiyalariga ega bo'lishimiz kerak. Bunda, ayniqsa, kompyuter texnik vositasiga asoslangan axborot-kommunikatsion texnologiyali o'qitish jarayonining yo'lga qo'yilishi muhim o'rin tutadi.

E'tibor berilsa, bugungi jarayon va ilmga asoslangan innovatsion iqtisodiyot sharoiti boshlang'ich ta'lim metodikasi muammolarini izchil o'rganib borishni taqozo etadi. Bu borada Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida "Kelajak o'qituvchisi" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilganligi va uning vositasida Toshkent viloyatining boshlang'ich ta'lim muammolari o'rganilib

borilayotganligini eslatib o'tish joiz. Bunday tajribalar mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim metodikasini zamon talablari asosida yangilash va rivojlantirish uchun o'ziga xos tajriba maydoni bo'lishini idrok etish kerak. Chunki bugungi talablarga javob beradigan boshlang'ich ta'lim metodikasiga ega bo'lish bilan ta'limning bu bosqichini rivojlantirish mumkin. Bu vazifalarning ijrosi jarayonida boshlang'ich ta'limdan manfaatdor barcha shaxslar ishtirok etishi va ularni to'liq idrok qilib olishi kerak.

Prezidentimizning 2020-yildagi Murojaatnomasida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha belgilangan yangi yo'nalishlar quyidagilardan iborat: *“Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o'quv yilidan boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga, ilg'or xorijiy tajriba asosida bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan “Milliy o'quv dasturi” joriy etiladi”*. Demak, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari sifatida quyidagilar idrok etiladi:

1. *Bolalarni tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.* Mazkur birinchi yo'nalishga ko'ra, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning talablaridan biri o'quvchilarni tahliliy va kreativ fikrlashga o'rgatishdir. Unga ko'ra, 7-11 yoshli o'quvchilar mantiqli, aniq va tushunarli fikrlash ko'nikmasini egallashi hamda o'z qiziqishiga ko'ra biror ijodiy yo'nalishga yo'naltirilishi lozim. Bu vazifani amalga oshirish uchun boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ijtimoiy va aniq fanlarni integratsiyalash, ularda fikrlash va kreativ yondashish asoslarini belgilab qo'yish, mavzular materiallarini imkon qadar ijodiy foydalanishga moslashtirish taqozo etiladi. Bu vazifalar amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyat ko'rsatishi va bo'lajak o'qituvchilarning o'z ijodiy ko'nikmasini egallashi kerakligini ko'rsatadi. Shu sababli bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldida tahliliy fikrlash va kreativ faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini egallash, kelgusida ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish malakasi bilan qurollanish muhim bo'lib turibdi. Chunki, bunday ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarda tahliliy fikrlash va ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shu sababli hozirgi pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha aniq bilimlarni egallash asosiy vazifalardan biridir.

2. *Sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish.* Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning bu yangi yo'nalishiga ko'ra, darsliklar tahlillardan o'tkazilishi va ularning mazmuniga qo'shimcha materiallar kiritilishi taqozo etiladi. Bu o'rinda “Sermazmun” tushunchasi boshlang'ich sinf fanlari darsliklarining o'quv materiallariga boy bo'lishi, yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish imkoniyatiga egaligi va tajribali o'qituvchilarning yondashuvi aks etishini anglatadi; **“Tushunarli”** – bu

tushuncha darsliklarning mazmuni, ulardagi ma'lumotlar va materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiziqarli, ularni motivatsiyaga undaydigan va fikrlashga o'rgatadigan ma'noni anglatadi. Shu sababli bu o'rinda sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish yo'nalishini innovatsion usuldagi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish tushunilishi kerak. Misol uchun, bugungi kunda boshlang'ich sinf darsliklarining masofadan turib o'qitish imkonini beradigan elektron variantlarini yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki, ijtimoiy murakkablik davrida masofaviy ta'limning o'rni ahamiyatli ekanligi ma'lum bo'ldi, shu sababli, bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinf darsliklarining har birini masofadan turib o'qitish imkoniyatlariga moslashtirish kerak va ularning elektron variantlarini tajriba-sinov ishlaridan o'tkazish dolzarb vazifalardan bo'lib turibdi.

3. *Yangi asosdagi Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etish.* Bu yo'nalishga ko'ra, 2021-2022- o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'limda yaxlit va uzviy xarakteriga ega Milliy o'quv dasturi amaliyotga kiritiladi. Mazkur dasturning mohiyati shundan iboratki, unda fanlarning o'zaro bog'liqligi, mavzularning takrorlanmasligi, boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarining integratsiyalashgan turlarini joriy etish va, eng asosiysi, o'quvchilarni ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlarini o'qitish ko'zda tutilgan. Milliy dasturning yana bir xarakterli xususiyatlaridan biri – unda boshlang'ich sinflarda xorijiy tajribalarni keng tatbiq etish nazarda tutilgan. Ayni paytda, o'qitishning milliy xarakteri, mentaliteti va xususiyatlari o'quv fanlarida saqlanib qoladi. Asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv fikrlash, kreativ-ijodiy intilish hamda faollik va intilivchanligini shakllantirishga qaratiladi. Shu sababli amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur o'quv dasturi bo'yicha atroflicha tushuncha va ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amalga kiritilayotgan Milliy o'quv dasturi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirilishi asosiy vazifalar sifatida belgilanmoqda. Bizning yondashuvimizga ko'ra, kelgusi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'lim o'quv yo'nalishini yanada takomillashtirish hamda zamon talablariga, xususan, Milliy o'quv dasturi talablariga moslashtirish taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, Prezidentimizning Murojaatnomasida ham boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning ana shu uch yo'nalishi muhim vazifa sifatida belgilanganligi ayon bo'ladi. Mazkur vazifalarning tabiiy ijrosi quyidagilardan iborat:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur uch yo'nalishdagi yangi yo'nalishlarni to'liq o'zlashtirishi kerak;

- oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar mazkur vazifalarni ilmiy, amaliy va metodik jihatdan ijro etish ishlanmalarini yaratishi zarur;
- amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur yo'nalishlarni o'zlashtirishi va yangi o'quv yilidan kiritiladigan Milliy o'quv dasturi bo'yicha aniq tushunchaga ega bo'lishi muhimdir.

Mazkur yangi yo'nalishlarning ijrosini sifatli ta'minlash "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar tarkibiga kiradi. Shu jihatdan mazkur yo'nalishlarni to'liq va aniq idrok etilishi, ularning ijrosi uchun har birimiz faol ishtirok etishimiz zarurdir.

O'zbekistonda yangi barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limni sifatli rivojlantirish va uning samaradorligiga erishish uchun ta'kidlab o'tilgan yangi yo'nalishlar muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli bunda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni va ularning yechimlarida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlariga oid takliflar bilan boyitish;
- oliy ta'lim jarayonida o'qitilayotgan fanlarni mazkur yo'nalishlar bilan to'ldirish;
- matbuotda e'lon qilinayotgan ilmiy ishlanmalarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha metodik tavsiyalar berish;
- amlaiy faoliyatda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini targ'ibot qilib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limdan manfaatdor har bir shaxs uchun muhimdir. Shu sababli Prezidentimiz Murojaatnomasini qayta-qayta o'qish, unda ta'limga oid qo'yilgan barcha vazifalarni o'zlashtirish va uning ijrosida ishtirok etish muhimdir. Bunda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish vazifalarini uzluksiz umumiy ta'lim vazifalarining ijrosi bilan bog'liq holda olib borish taqozo etiladi. E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini amalga oshirishda ilmiy, ijtimoiy va metodik faollikka amal qilish dolzarb bo'lib turibdi. Ushu jihatlarni alohida e'tiborda tutgan holda har bir professor-o'qituvchi mazkur yo'nalishlar bo'yicha o'z yo'nalishi, tushunchasi va faoliyat ko'lamiga ega bo'lishi kerak.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari mazmun, uslub va samara jihatidan sifatli natijalarga erishish uchun mo'ljallangan. Bunda har bir yo'nalishning natijasi yil yakunida ko'rib chiqilishi belgilab qo'yilganligini eslatib o'tish joiz.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha yangicha nazariy bilim va kasbiy ko'nikma berish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlarining asoslari bilan tanishtiradi⁵. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim metodikasi asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang'ich ta'lim metodologiyasi;
- boshlang'ich ta'lim didaktikasi;
- boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi.

Boshlang'ich ta'lim metodologiyasini pedagogika tarixidagi boshlang'ich ta'lim bosqichi, manbalari va tizimi, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va pedagogik ilmiy-tadqiqotlar tashkil etadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur metodologik asoslarni chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasi o'qitishning metodlari, shakllari va texnologiyalaridan iborat. Bugungi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'limida o'qitishning ana'anaviy dars shakli, masofaviy va elektron-modulli texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslarini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishi lozim. Bu ish pedagogik turkumdagi majburiy va tanlov fanlari vositasida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi 7-11 yoshli o'quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirish, axloqini tarkib toptirish va ularni ijtimoiylashtirishni nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarni dastlabki bosqichda aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga qaratiladi. Shu sababli, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Tarbiya", "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" kabi mutaxassislik fanlarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim metodikasi boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiyaning negizini tashkil etadi. Shunga ko'ra, mazkur yo'nalish bo'yicha yangi ilmiy ishlanmalar yaratish zaruriyat bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich ta'lim tarixining asosiy bosqichlari;
- O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tarixi;
- boshlang'ich ta'limga doir xalqaro ta'lim dasturlari;
- boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaning nazariy masalalari;
- boshlang'ich ta'limda joriy etiladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar;
- boshlang'ich ta'limda klaster muammolari;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik samaradorligi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www.ziynet.uz

Mazkur yoʻnalishlarda pedagogik ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq boʻladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz boshlangʻich taʼlim tizimiga TIMSS, PIRLS va STEAM xalqaro dasturlari hamda standartlari joriy etilmoqda. Shu sababli oliy pedagogik taʼlim jarayonida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun biz tomonimizdan “Boshlangʻich taʼlimning xalqaro dasturlari” oʻquv dasturi ishlab chiqildi. Mazkur oʻquv dastur asosida talabalarning xalqaro taʼlim dasturlari asoslari, talablari va standartlari boʻyicha nazariy bilim hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati mavjud. Bu dastur kelgusida boshlangʻich taʼlim metodikasining asoslaridan birini tashkil etishi kutilmoqda.

Boshlangʻich taʼlim metodikasiga doir amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni va ularda ishlab chiqilgan metodikani taʼlim va tarbiya jarayoniga joriy etib borish dolzarb ekanligini taʼkidlash lozim⁶. Bu borada oliy pedagogik taʼlim jarayonida mutaxassislik fanlarini oʻqitish imkoniyatlaridan chuqur foydalanish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, oliy pedagogik taʼlim jarayonida boshlangʻich taʼlim metodikasi asoslarini chuqur oʻrganish, oʻrgatish va uning nazariy masalalari boʻyicha tadqiqotlar olib borish dolzarb boʻlib turibdi. Bu borada boshlangʻich taʼlim ishlarni amaliyotga yoʻnaltirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, iqtidorli talabalarni boshlangʻich taʼlim metodikasi muammolari boʻyicha izlanishlarga jalb qilish samarali hisoblanadi.

Oʻzbekiston “Boshlangʻich taʼlim pedagogikasi”da nazariy va metodik jihatdan shakllanish jarayoni kechmoqda. Bunda boshlangʻich taʼlimni “Milliy oʻquv dasturi” asosida sifat va samaradorligini yanada oshirish birlamchi vazifa hisoblanadi⁷. Bu oʻrinda boshlangʻich taʼlimning asosiy tushunchalari tahliliga eʼtiboringizni tortamiz.

Bilim. Taʼlimga oid meʼyoriy-huquqiy hujjatlarga koʻra, bilim – “oʻrganilgan maʼlumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish”dir. Shu jihatdan bilim olishda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining xotira va nutqi muhim oʻrin tutadi.

Boshlangʻich taʼlimda bilim aniq, tabiiy va gumanitar fanlar vositasida beriladi. Mazkur fanlar vositasida beriladigan bilim oʻquvchilarning aqliy rivojlanishini taʼminlaydi.

⁶ Jabborova O.M. Boshlangʻich taʼlimda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlari. Pedagogik taʼlim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, TVChDPI 2021, B. 63-67

⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyoti davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni. // www.ziyounet.uz

Ko'nikma. Bu tushuncha “o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish”ni ifodalaydi. Mazkur o'rinda “tanish vaziyatlar” deganda olamni idrok etish, voqeilik va hodisalarni baholash, ongli munosabat tutiladi.

Boshlang'ich ta'limda ko'nikma o'quv fanlarini o'qitish jarayonida hosil qilinadi. Ko'nikma shakllanmasa, o'rganilgan bilimdan foydalanish samarasiz bo'ladi. Shu jihatdan ko'nikma o'quvchilarning ruhiy yetukligini tarkib toptiradi.


Malaka. Mazkur tushunchaning ma'nosi “o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilishdan iborat⁸. Bunda, “notanish vaziyat” deganda borliqning, voqeaning va hodisalarning mohiyatini tushunish nazarda tutiladi.

Malaka bilim va ko'nikmaning hosilasi bo'lib, u o'quv fanlarini o'qitish va yo'naltirish vositasida shakllantiriladi. Malaka o'quvchilarning sotsial yetukligini ta'minlaydi.

Kompetensiya. Bu tushuncha “mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati”ni ifodalaydi. Bunda qobiliyat tushunchasiga e'tibor berish kerak va uni har bir o'quvchida tarkib toptirish imkoniyati mavjudligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetensiya o'quv fanlarini o'qitish va qo'shimcha bilimlar berish vositasida tarkib toptiriladi. Kompetensiya o'quvchilarning didaktik tayyorgarligini ta'minlaydi.

Zero, umumiy o'rta ta'limning davlat standartlarida ana shu asosiy tushunchalarga urg'u berilgan. E'tibor bering:



⁸ Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti 2017-yil 6-aprel. // www.ziynet.uz

Boshlang'ich ta'limda mazkur tushunchalar va ularni o'quvchilarda yetarli darajada tarkib toptirishga e'tibor berish lozim. Chunki boshlang'ich ta'lim davlat standartlarining bajarilishi o'quvchilarda ana shu tushunchalarning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limda pedagogikaning asosiy kategoriyalari ham muhim o'rin tutadi. Bunday kategorial tushunchalar quyidagilardan iborat:

Tarbiya bu – “insonning ma'naviy va tarixiy tajribalarini yosh avlodga yetkazish”dir⁹. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda o'qituvchi:

- o'quvchilarga insoniyat tajribasini uzatadi;
- madaniy-ma'naviy amalga olib kiradi;
- o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltiriladi;
- murakkab holatlardan chiqib ketishga yo'naltiradi.

Tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, jismoniy, aqliy va ruhiy imkoniyatlari hisobga olinib amalga oshiriladi.

O'qitish bu – “o'quvchining har tomonlama rivojlanishi uchun o'qituvchi va o'quvchining ta'limiy hamkorligi”dir. Shu sababli o'qituvchi:

- o'quvchilarga bilim majmuini beradi;
- bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtirish jarayonini boshqaradi;
- o'quvchilar shaxsining (xotirasi, diqqati, tafakkurining) rivojlanishi uchun sharoitlar yaratadi.

Boshlang'ich ta'limda o'qitish bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaning shakllantirish asosi hisoblanadi.

Ta'lim bu – “o'quvchilarni savodxon qilish jarayonidir”. Shu jihatdan ta'lim deganda quyidagilar tushuniladi:

- inson va jamiyatni rivojlantiruvchi qadriyat;
- insonni o'qitish va tarbiyalash jarayoni;
- o'qitish va tarbiyalash natijasi;
- uzviy va uzluksiz tizim.

Ta'lim boshlang'ich ta'limda eng maqbul, qulay va oson metodlar, vositalar hamda texnologiyalarga asosan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida o'ziga xos asosiy tushunchalar qo'llaniladi. Amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu tushunchalarni idrok etishlari, faoliyatni ular asosida olib borishlari taqozo etiladi.

O'zbekiston yangi taraqqiyoti davrida ilm-fan va ta'limni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish vazifalari qo'yilgan. Shu ma'noda

⁹ Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchilar R.Jurayev va boshq. –T.: “Fan”. 2008

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi”ni yangicha idrok etish va uning mazmun-mohiyatini chuqur anglay bilish taqozo etilmoqda.

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” tushunchasi. O‘zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- boshlang‘ich ta‘limni ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish;
- boshlang‘ich ta‘lim samaradorligiga erishish.¹⁰

Mazkur vazifalar oliy pedagogik ta‘lim jarayonida o‘qitilayotgan “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” fanining mazmunini belgilaydi. Unga ko‘ra, mazkur fanning *mazmuni* boshlang‘ich ta‘lim, tarbiya va uni o‘qitish asoslari bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarga nazariy bilim, ko‘nikma hamda malaka berishdan iborat. Bunda quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

- *boshlang‘ich ta‘lim* tushunchasi quyidagilarni qamrab oladi:
 - 1) inson va jamiyat qadriyatlariga asosan 7-11 yoshli o‘quvchilarga bilim berish;
 - 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash jarayoni;
 - 3) boshlang‘ich ta‘limning samarasiga erishish;
 - 4) boshlang‘ich ta‘limni yaxlit tizim sifatida qabul qilish.
- *boshlang‘ich ta‘limda tarbiya* tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:
 - 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga insoniyatning tarbiyaga oid tajribasini uzatish;
 - 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini madaniyat va qadriyatlar olamiga olib kirish;
 - 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsini rivojlantirish;
 - 4) boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini hayotning murakkab vaziyatlari va holatlariga tayyorlash.
- *boshlang‘ich ta‘limda o‘qitish* tushunchasining mazmuni quyidagilardan iborat:
 - 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bilim, hayotiy tajriba, faoliyat ko‘nikmasi berish va ularning tafakkurini shakllantirish;
 - 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malaka hislarini shakllantirish;
 - 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xotira, diqqat va fikr yuritish ko‘nikmasini shakllantirish;
 - 4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish.

¹⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnonasi. //”Xalq so‘zi” gazetasi. 2020-yil 30-dekabr soni.

Ushbu uch muhim kategorial tushuncha “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani mazmunini tashkil qiladi. Bu fan vositasida O‘qituvchi 7-11 yoshli shaxslarga dastlabki ta‘lim va tarbiyani beradi, ularni o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ayni paytda mazkur fanning mazmuniga ko‘ra, boshlang‘ich sinf *o‘quvchilari* quyidagilarga amal qilishi shart:

- 1) o‘qishi, ya‘ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aniq ma‘lumotlarni va topshiriqlarni O‘qituvchi yordamida sinfdoshlari bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda o‘zlashtirishi;
- 2) kuzatish, qiyoslash va fikrlash ko‘nikmalarini egallashi;
- 3) o‘z fikri va qarashlarini ifodalay olishi kerak.

Bularning barchasi boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi mazmunini tashkil qiladi.

Boshlang‘ich ta‘lim metodologiyasi. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” fani o‘ziga xos metodologik asoslarga tayanadi. Mazkur metodologiyaning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang‘ich ta‘limga oid normativ-huquqiy hujjatlar;
- boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va amaliyoti;
- boshlang‘ich ta‘limga oid Sharq va G‘arb pedagogik tajribalari;
- boshlang‘ich ta‘limga oid ilmiy tadqiqotlar.

Ushbu metodologik asoslarini bo‘lajak o‘qituvchilar aniq o‘zlashtirishi lozim.

- *boshlang‘ich ta‘limga oid normativ-huquqiy hujjatlar.* O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich ta‘limga oid normativ-huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat:

- a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bilim olish va kasb-hunar egallashga oid belgilab qo‘yilgan huquqlar;
- b) O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi yangi Qonuni (2020-yil 23-sentabr);
- v) yagona “Milliy o‘quv dasturi”;
- g) boshlang‘ich ta‘lim davlat standartlari va davlat talablari;
- d) boshlang‘ich ta‘limga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari hamda Farmoyishlari.

- *boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va amaliyoti;* O‘zbekistonda boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va amaliyoti quyidagilarga asoslanadi:

- a) boshlang‘ich ta‘limda bilim berish, tarbiyalash va o‘qitish asoslari;
- b) boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha milliy tajriba;
- v) boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha ilg‘or mamlakatlarning an‘analari;
- g) boshlang‘ich ta‘lim metodlari, vositalari va texnologiyalari.

Bo‘lajak o‘qituvchilar boshlang‘ich ta‘limning mazkur nazariyasi va amaliyoti asoslarini o‘zlashtirishlari taqozo etiladi.

-boshlang'ich ta'limga oid Sharq va G'arb pedagogik tajribalari mazkur masala bo'yicha Sharq va G'arb pedagogik tajribalari o'ziga xos tarzda mavjud. Unga ko'ra, Sharq va G'arb pedagogikasi tajribalari quyidagi uyg'unlikka ega:

- a) 6-7 yoshli o'quvchilarga bepul boshlang'ich ta'lim berish;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olamiga olib kirish;
- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarini davr va jamiyat talablari asosida tarbiyalash;
- g) boshlang'ich sinf o'quvchilarini keyingi ta'lim olishga tayyorlash.

Ayni paytda, Sharq boshlang'ich ta'lim tajribasida quyidagi o'ziga xosliklar majud:

- Ustoz-shogird an'anasiga tayanish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoaviy (o'qituvchilar, murabbiylar, psixologlar, maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida) tarbiyalash;
- boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini O'zbekiston sharoitida Prezident va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qish uchun tayyorlash;
- boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini oila va milliy qadriyatlar asosida voyaga etkazish.

G'arb boshlang'ich ta'lim tajribasida quyidagi o'ziga xosliklar mavjud:

- bolaga individual yondashish;
- bolaning ijodiy layoqatlarini shakllantirish;
- bolani mustaqil fikrlash va faoliyatga o'rgatish;
- bolaning kasb-hunar negizlari bilan dastlabki bosqichda tanishtirish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar boshlang'ich ta'limga oid Sharq va G'arb tajribalarini uyg'un o'zlashtirish kerak.

- boshlang'ich ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limga oid ilmiy-tadqiqotlar XX asrdan boshlab amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniyning ilmiy ishlanmalari, shuningdek, yuzlab o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari mavjud. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda izchil ravishda quyidagi muammolar o'rganilib kelinmoqda:

- a) boshlang'ich ta'limning asoslari, funksional vazifalari, metodlari va texnologiyalari;
- b) boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar va ularning individual metodlari, texnologiyalarini ommalashtirish;
- v) boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish;
- g) boshlang'ich ta'lim samaradorligini monitoring qilib borish asoslari.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar boshlang'ich ta'limga oid ilmiy tadqiqotlarning ana shu yo'nalishlarini o'zlashtirishi tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari. "Tendensiya" tushunchasi lotincha bo'lib, an'ana, takomil va namuna ma'nolarini anglatadi. Shu jihatdan hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining o'ziga xos va muhim tendensiyalari quyidagilardan iborat:


- 1) boshlang'ich ta'limga yangi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- 2) boshlang'ich ta'limning madaniy kontekstini kuchaytirish;
- 3) boshlang'ich ta'limga oid xalqlarning ilg'or tajribalarini tatbiq etish.

Boshlang'ich ta'limga yangi va zamonaviy *texnologiyalarni* joriy etishda kompyuter, internet tarmog'i imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalasiga asosiy e'tibor berilmoqda. Bunda texnologik ta'lim asoslari kuchayib bormoqda va ayni paytda, texnologik ta'lim rivojlanish hamda shakllanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining insoniy, jismoniy hamda estetik tuyg'ularini texnokratik tarzda shakllantirmasligi kerak.

Boshlang'ich ta'limning *madaniy kontekstini* kuchaytirish jarayonida 7-11 yoshli o'quvchilarga xalqning milliy va oilaviy qadriyatlari asosida bilim berish, ularning axloqiy va faoliyat ko'nikmasini umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Misol uchun, O'zbekistonda xalq an'analari, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik kabilar milliy qadriyatlar, bag'rikenglik, demokratlik, birodarlik singarilar umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich ta'limning madaniy kontekstini kuchaytirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslanish taqozo etiladi.

Butun dunyoda boshlang'ich ta'limga xalqlarning *ilg'or tajribalarini* tatbiq etish tendensiyasi davom etmoqda. Unga ko'ra, muayyan xalqlarning boshlang'ich ta'limda erishgan yutuqlari o'zga xalqlar tomonidan qabul qilinmoqda. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasining boshlang'ich ta'limdagi xalqparvarlik konteksti, Finlandiya qirolligining boshlang'ich ta'limidagi xususiy ta'lim konteksti va O'zbekiston boshlang'ich ta'limidagi dunyoviylik konteksti xalqaro tajribalar sifatida e'tirof etiladi.

Zero, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi mazmuni quyidagicha idrok etiladi:



Rasm: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi mazmuni

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim pedagogikasining mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak.

O'zbekistonning yangi taraqqiyotini barpo etish jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning vositasida o'quvchilarni har tomonlama barkamol voyaga yetkazish vazifalari dolzarb bo'lib turibdi. Bunda asosiy vazifa boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Shu sababli keyingi vaqtlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining *malaka talablari* va ularni shakllantirishning metodik asoslari to'g'risida yangicha vazifalar qo'yilmoqda¹¹.

¹¹ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning asosiy poydevoridi. –T., 2021.

Bugungi kunga qadar amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 25-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari"da boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka talablari belgilangan. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, avvalo, oliy ma'lumotli bo'lishi kerak. Bu o'rinda "oliy ma'lumotli bo'lish" tushunchasini boshlang'ich ta'lim asoslari va boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha kasbiy-nazariy bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyaga ega bo'lishlikni tushunish lozim.

Mazkur Davlat talablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun malaka talablari quyidagicha belgilangan:

- 1) o'qitish (dars berish) mahorati;
- 2) tarbiyalash mahorati;
- 3) o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlar;
- 4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

Bu o'rinda ***o'qitish (dars berish) mahorati*** bo'yicha quyidagi talablar belgilanganligini eslatib o'tish joiz:

- kasbiy layoqat va eruditsiya (his-tuyg'uga) ega bo'lish;
- psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga va yangi ilmlar olishga o'rgatish mahoratiga ega bo'lish;
- o'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash, internet global tarmog'i bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- malaka oshirish shakllarini bilish;
- ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;
- pedagogik fanlarning asosiy yo'nalishlarini bilish;
- predmetlararo aloqalardan foydalanish mahoratiga ega bo'lish;
- notiqlik san'ati asoslarini bilish;
- bola huquqlari va ta'limga oid xujjatlarni bilish.

Mazkur talablar boshlang'ich sinf o'qituvchisining amaliy faoliyati davomida shakllanib boradi va ular davomli malaka oshirish vositasida takomillashtiriladi.

Davlat talablarida ***tarbiyalash mahorati*** bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun quyidagi malaka talablari qo'yilgan:

- tarbiyalashning metodikasini bilish;
- tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini bilish;
- tarbiyalash jarayonida etika va estetika qoidalariga amal qilish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining har birini teng va huquqiy asosda tabiiylash.

Bu talablar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtiriladi va amaliy faoliyat jarayonida tajriba sifatida rivojlantirib boriladi.

Mazkur Davlat talablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun quyidagi *shaxsiy sifat*larga ega bo'lish belgilangan:

- talabchan bo'lish;
- haqqoniy bo'lish;
- halollikka amal qilish;
- mehribon bo'lish;
- xushmuomala bo'lish.

E'tibor berilsa, bu talablar har bir insonning shaxsida mavjud va boshlang'ich sinf o'qituvchisi amaliy faoliyati davomida ularga birlamchi tarzda amal qilishi taqozo etiladi.

Davlat talablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarning bilimlarini *xolisona nazorat qilish va baholash* bo'yicha quyidagi malaka talablari qo'yilgan:

- dars berishda psixologik-pedagogik qoidalarga qat'iy amal qilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyalanish jarayonini kuzatib borish;
- o'quvchilarning bilimlari va ko'nikmalarini xolisona baholash;
- baholashda tavsiya etiladigan metodlar va mexanizmlarga amal qilish;
- mustaqil ravishda standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bilimi va tarbiyaviy rivojlanishini muntazam nazorat qilib borish.

Bu talablar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy faoliyatidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli ularga amal qilishda pedagogik jamoa bilan hamkorlik qilish tavsiya etiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim malaka talablari belgilangan. Mazkur talablar amaliy faoliyat davomida shakllantirib boriladi va qayta tayyorlash, malaka oshirish hamda muddatli o'qishlar davomida ular rivojlantiriladi.

Maktab pedagogik jamoasi boshlang'ich sinf o'qituvchisining malaka talablariga javob berishi va amal qilishi to'g'risida xulosa berish huquqiga ega. Shu jihatdan mazkur talablarning ahamiyati muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qo'yilayotgan malaka talablari ularning amaliy faoliyatida sifat va samaradorlikka erishish uchun asosiy ta'limiy hujjat hisoblanadi. Shu sababli har bir boshlang'ich sinf

o'qituvchisining mazkur talablarga javob berishi va ularga rioya qilishi maktab pedagogik jamoasining vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish yangi taraqqiyotning bosh maqsadi sifatida belgilandi¹². Bu yangi milliy g'oyaning mazmuniga ko'ra, rivojlanish asosini ta'lim tashkil etishi kerak. Shu sababli O'zbekiston uzluksiz ta'limining uzviy qismi bo'lgan boshlang'ich ta'limning funksiyasi ham yangilanadi. Bu yangilanish boshlang'ich ta'lim vazifalarini kengaytirish hisobiga bo'lishini ta'kidlab o'tish joiz. Savol tug'iladi: Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limning asosiy funksiyasi nimadan iborat bo'ladi? Bu savolga yaxlit javobni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan topish mumkin va bu o'rinda ana shu masala tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Boshlang'ich ta'limning maqsadi. Boshlang'ich ta'limning savodxonlik, bilim va malaka berish vazifasiga Murojaatnomada qo'shimcha ravishda "Tashabbuskor yoshlarni voyaga etkazish"¹³ maqsadi qo'yilgan. Bu maqsadga ko'ra, 7-11 yoshli o'quvchilar bilim olish, ijtimoiy faollik va layoqatining rivojlanishi bo'yicha harakatchanlik ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Tashabbus o'quvchi tomonidan bo'lishiga ular ko'niktirilishi lozim. Shu sababli boshlang'ich ta'limning maqsadi ichki tashabbuskor o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilmoqda.

Boshlang'ich ta'limning vazifalari. Bu masala maqsaddan kelib chiqadi va Murojaatnomada boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga urg'u berilgan:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini "jismoniy va ma'naviy sog'lom hamda vatanparvar insonlar qilib ulg'aytirish". Demak, asosiy e'tibor jismoniy, ma'naviy va insonparvarlik g'oyalariga qaratilishi kerak, buning uchun 7-11 yoshli o'quvchilar barcha ta'lim ishtirokchilari e'tiborida bo'lishi shart;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini "mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan insonlar sifatida voyaga etkazish". Bunda 7-11 yoshli o'quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun amaldagi o'quv fanlarini integratsiyalash taqozo etiladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlari g'oyaviy birlik hamda bir-birini to'ldirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim;

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yil 1-oktabr soni.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2020-yil 30-dekabr soni.

- boshlang'ich ta'lim "Yaxlit va uzluksiz tizimga ega bo'lishi kerak". Bu vazifaga ko'ra, murakkab sharoitlarda va texnologik imkoniyatlar mavjud bo'lgan paytda 7-11 yoshli o'quvchilarni elektron ta'lim vositasida o'qitish tajribasi shakllantirilishi lozim. Unda vaqt, makon va sharoit uyg'unligiga ega bo'lish taqozo etiladi;

- boshlang'ich ta'limning "o'quv dasturlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish". Mazkur vazifaga binoan o'quv dasturlari va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan metodik qo'llanmalarda ijodiy fikrlash, maqsad muvaffaqiyatga erishish hamda texnologik imkoniyatlardan oqilona foydalanish asoslari o'z ifodasini topishi lozim.

E'tibor berilsa, Murojaatnomada Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limning aniq va manzilli vazifalari qo'yilgan.

Boshlang'ich ta'lim vazifalarining ijrosi. Uchinchi Renessansni barpo etish davrida boshlang'ich ta'lim vazifalari ijrosini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilar asosiy ijrochilik sifatida idrok etiladi:

- boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, professor-o'qituvchilar va ilmiy izlanuvchilar;

- amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari;

- O'zPFITI va malaka oshirish markazlari;

- maktab jamoasi.

- bu ijrosilik tarkibida ota-onalar va jamoatchilikni vakillari yordamchi ishtirokchilar sifatida qabul qilinadi.

Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'lim funksiyasi zamon va davr talablari asosida qo'yilmoqda. Bu masala har bir boshlang'ich ta'limdan manfaatdor shaxs tomonidan idrok etilishi taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limning nazariy asoslari bo'yicha bir qator me'yoriy-huquqiy xujjatlar va ilmiy tadqiqotlar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

pedagogik manbalar;

pedagogik ilmiy-tadqiqotlar;

ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

Boshlang'ich ta'limga oid *pedagogik manbalar* mamlakatimizda juda ko'p asrlar davomida yaratib kelingan. Misol uchun, Avesto kitobida boshlang'ich ta'lim 15 yoshga qadar davom etishi belgilangan¹⁴. Unda 15 yoshga qadar bo'lgan bolalar ongida ezgulikni shakllantirish va ularning qalbidan yovuzlik tuyg'ularini yo'qotish ta'limi tavsif etilgan.

O'rta asrlarda yaratilgan pedagogik manbalarda boshlang'ich ta'limning milliy asoslari yoritib berilgan. Misol uchun, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" asarida boshlang'ich ta'lim 12 yoshgacha davom etishi va unda o'z

¹⁴ Avesto. M.Is'hoqov tarjimai. –T.: "Fan". 2000.

zamoniga zarur bo'lgan bilimlar berilishi tahlil etilgan. Bunda Alisher Navoiy to'rtinchi xalifa hazrati Alining "Bolalaringizga kelajak ilmini bering" hikmatidan foydalanib, boshlang'ich ta'limda eng zaruriy bilimlarni berishni asoslab bergan.

Shuningdek, jadid ma'rifatparvar pedagoglari Pedagogikamiz tarixida ilk bor boshlang'ich ta'limning zaruriyatini asoslab berishgan. Misol uchun, bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan o'qitishning alifbe tizimi jadid ma'rifatparvar pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, Mahmudxo'ja Behbudiy o'z asarlarida boshlang'ich ta'limda bir necha tillarni o'rgatish metodikasini tahlil qilib bergan. Shu sababli bugungi boshlang'ich ta'lim tizimimizda bir necha tillar o'qitilishi amaliyotga joriy etilgan.

Boshlang'ich ta'limga oid *ilmiy tadqiqotlar* XX asrda yaratila boshlagan. Bunda boshlang'ich ta'lim asoslari, metodologiyasi, nazariyasi va metodlari, ularni amaliyotga joriy etish omillari tadqiq etilgan. Misol uchun, O.Adizov boshlang'ich ta'limni tashkil etish va uning metodologik asoslarini shakllantirish muammolari bo'yicha yaratgan tadqiqotida ikki asrlik o'zbek boshlang'ich ta'lim tajribasini tahlil qilgan. Uning ta'kidlashicha, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida shakllangan metodika dunyo mamlakatlari tajribasiga mosdir¹⁵.

Boshlang'ich ta'limning nazariy asoslari bo'yicha jahon pedagoglari tomonidan ham muhim asarlar yaratilgan. Misol uchun, rossiyalik pedagog olim Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824-1871) boshlang'ich ta'limning metodikasi bo'yicha maxsus tadqiqot yaratgan.¹⁶ Pedagog olimning yondashuviga ko'ra, boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy asoslarini bolalarni necha yoshdan boshlang'ich ta'limga jalb etish, boshlang'ich ta'limda Ona tili, Hisob (arifmetika), Rasm va Husnixat o'quv fanlarini o'qitish zaruriyati asoslab berilgan. Pedagogning qarashiga ko'ra, boshlang'ich ta'limda Ona tili o'quv fani ustuvor darajada o'qitilishi kerak va bu bilan o'quvchilarning milliy ruhda o'sishi ta'minlanadi. Shu sababli olimning mazkur yondashuvi butun dunyo mamlakatlari boshlang'ich ta'limida qabul qilingan.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limning ta'kidlangan nazariy masalalari mazkur ta'lim bosqichini yuksak darajada amalga oshirish imkonini beradi. SHu jihatdan boshlang'ich ta'limning eng muhim nazariy omillari quyidagilardan iborat:¹⁷

1. *O'quvchi shaxsining savodxonligini oshirish*. Buning uchun O'zbekiston sharoitida maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlang'ich sinfga kelgan ta'lim oluvchilar *o'quvchi* deb atalishini eslatib o'tish joiz. Shu sababli o'quvchi shaxsi

¹⁵ Adizov O. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011.

¹⁶ Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. –Toshkent, 1959

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi.

boshlang'ich sinflardan boshlab savodxonlikning talaba darajasidagi qoidalari asosida tarbiyalanadi. Bunda savodxonlik deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- o'quvchining o'qish, yozish, hisob va chizishni chuqur bilishi, bu borada mustaqil ko'nikmani egallashi;

- o'quvchining gumanitar fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lishi;

- o'quvchining dastlabki bosqichda tabiiy-ilmiy tafakkurga ega bo'lishi;

- o'quvchining o'quv fanlari bo'yicha talab darajasidagi tasavvurga ega bo'lishi.

Savodxonlik tushunchasining boshlang'ich ta'limdagi bunday mazmuni xalqaro ta'loim dasturlariga mos tushadi. Misol uchun, PIRLS xalqaro ta'lim dasturidan o'quvchilarning matematik savodxonligi yoshi va ta'lim bosqichiga mos bo'lishi belgilangan. Shu sababli mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida Matematik turkumdagi fanlar aniq fanlarning negizini tashkil etadi. O'zbekiston boshlang'ich ta'limida savodxonlik darajasi bo'yicha 125 yillik tajribaga ega. Chunki bu jarayon o'tgan asrning 20-yillarida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan boshlab berilgan edi.

2. *O'quvchi shaxsini bilim olamiga olib kirish.* Boshlang'ich ta'limda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qitiladigan barcha fanlarning ilk tushunchalari o'qitiladi. Misol uchun, "Atrofimizdagi olam" o'quv fani keyinchalik o'qitiladigan Botanika, Zoologiya va Biologiya fanlarining boshlang'ich ta'limdagi negizi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda o'quvchi shaxsi bilim olamiga olib kiritilishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- o'quvchilarni aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha ta'lim bosqichiga hamda yoshiga mos tushunchalar bilan tanishtirish;

- o'quvchilarning muayyan fan bo'yicha iqtidorini dastlabki bosqichda rivojlantirish;

- muayyan o'quv fanlarini chuqurlashtirib o'qitish;

- fanlar to'garaklari vositasida o'quvchilarga qo'shimcha bilimlar berish.

E'tibor berilsa, bularga amal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olamiga olib kirishning eng muxim imkoniyatlariga ega bo'linadi. SHu sababli keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quv fanlarini integratsiyalash masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Bunda o'quv fanlari mavzular jihatidan takror bo'lmasligi, mavzularning materiallari sinflar kesimida bir-birini to'ldirishi va eng asosiy tushunchalarni berishi bilan o'zaro integratsiyaga erishilishi nazarda tutilmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olamiga olib kirishning eng muhim va samarali vositalaridan biri o'quv fanlarining integratsiyalashuvidir.

3. *O'quvchi shaxsida malakani tarkib toptirish.* Ushbu qonunimizning 3-moddasida malaka tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "malaka – shaxsning kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat,

mahorat va ko‘nikmalar darajasi”dir. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsida malakani tarkib toptirish asosi quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish;
- o‘quvchilarga eng zamonaviy ma’lumotlarni yoshi va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda kuchaytirilgan tarzda taqdim etib borish;
- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quvchilarni bilim olish mahoratini tarkib toptirish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsida malakani tarkib toptirish vazifasini bugungi kun talablarida amalga oshirish imkonini beradi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, o‘quvchi shaxsida malakani tarkib toptirish jarayonining amaliy natijalari har bir boshlang‘ich sinf yakunida namoyon bo‘ladi. Shu sababli har bir boshlang‘ich sinf yakunida o‘quvchilarda malakaning tarkib topganlik darajasini aniqlab borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. *O‘quvchi shaxsida ko‘nikma asoslarini shakllantirish.* Ko‘nikma bu – shaxsning muayyan faoliyat bo‘yicha layoqatga ega bo‘lishidir.¹⁸ Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi shaxsida ko‘nikma asoslarini shakllantirish deganda quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- o‘quvchilarda o‘quv- biluv tuyg‘usini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirish;
- o‘quvchilarda tarbiya asoslari bo‘yicha odatlantirishlarni tarkib toptirish;
- o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirish.

Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘nikma asoslarini shakllantirish omillari hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida, tarbiyaviy tadbirlarda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonlarida shakllantirilishini ta’kidlab o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’limning nazariy asoslarida ikki xususiyat muhim o‘rin tutadi: bular milliy pedagogik tajriba va xorijiy tajribalardan iborat.

Boshlang‘ich ta’limga oid *milliy pedagogik tajriba* mamlakatimizda uzoq asrlilik davrni tashkil etadi. Bu borada Avesto kitobidan tortib bugungi boshlang‘ich ta’lim darsliklarigacha bo‘lgan jarayon nazariy va amaliy asoslarni beradi. Shu jihatdan bu o‘rinda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- boshlang‘ich ta’limning eng qadimiy davrini idrok etish (qadimgi davrlardan VIII asrgacha);
- boshlang‘ich ta’limning o‘rta asrlardagi davrini o‘rganish va o‘zlashtirish (VIII – XIX asrlar);
- boshlang‘ich ta’limning yangi davrini tadqiq etish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini amaliyotga joriy etish (XX-XXI asrlar).

¹⁸ Qarang: O‘zbekiston pedagogikasi ensiklopediyasi. R.Safarova, O. Musurmonova va boshq. – Toshkent, 2018. II TOM.

Bu davrlarning barchasida boshlang'ich ta'lim nazariyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Misol uchun, eng qadimgi davrlardagi boshlang'ich ta'lim nazariyasida o'quvchilarni hayotiy faoliyatda zarur bo'ladigan tushunchalar va ko'nikmalar bilan qurollantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.¹⁹ Boshlang'ich ta'lim nazariyasining o'rta asrlardagi davrida o'quvchilarga chuqurlashtirilgan bilim berish, ularni ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash va hunarga yo'naltirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan.²⁰ Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim nazariyasining yangi davrida yosh avlodni boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish, ularni umumiy o'rta ta'lim bosqichiga tayyorlash va o'quv fanlarining kengayib borishiga diqqat qilingan.²¹ Ayni paytda, bugungi kundagi mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim nazariyasida mazkur ta'lim bosqichining mazmuni chuqurlashtirilib, endi boshlang'ich sinf bitiruvchilarini umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim, ijodiy maktablar va Prezident maktablariga tayyorlashni asosiy vazifa sifatida belgilanmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limning milliy tajribasi nazariyasining bugungi davrida o'ziga xos xususiyatlar tarkib topayotganligini alohida ta'kidlash lozim.²²

Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim milliy tajribamizning barcha davrlarida umumiy xususiyatlar mavjud bo'lgan. Bunday umumiy xususiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'g'il bolalar va qizlarga teng ta'lim berish;
- boshlang'ich ta'limda imkon qadar o'quvchilarni fanlarning eng asosiy tushunchalari va omillari bilan tanishtirish;
- iqtidorli o'quvchilar bilan alohida shug'ullanish va ularni yo'naltirish;
- o'quvchilarning jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik imkoniyatlariga mos o'quv materiallari, o'quv adabiyotlari va darsliklarini muntazam yaratib borish;
- boshlang'ich ta'lim bo'yicha kasbiy etuk o'qituvchi va pedagoglarning faoliyat ko'rsatib kelganligi.

Boshlang'ich ta'lim nazariyasining milliy tajribasiga xos bo'lgan bunday xususiyatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limning *xorijiy mamlakatlardagi* tajribasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu borada Yevropa, Amerika va Osiyo qit'alaridagi rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'lim tajribasini kuzatish quyidagi xususiyatlarning mavjudligini ko'rsatadi:²³

- boshlang'ich ta'limda xususiy maktablarning keng tashkil etilishi;

¹⁹ Qarang: Avesto. M.Is'hoqov tarjimai. – Toshkent, 2001.

²⁰ Qarang: O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent, 1996.

²¹ Qarang: Pedagogika nazariyasi va tarixi. B. Abdullayeva va boshqalar. – Toshkent, 2017

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillardagi ta'limga oid qarorlari va farmonlari.//www.ziyounet.uz.

²³ Qarang: Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001

- boshlang'ich ta'limda homiylik institutining uzoq vaqt amalda bo'lganligi;
- boshlang'ich ta'limga o'g'il bolalar va qizlarning teng qamrab olinganligi, ayni paytda, o'g'il bolalarni hayotga tayyorlashga hamda qizlar uchun oila madaniyatini chuqurroq o'rgatishga ustuvor darajada e'tibor berilganligi;
- boshlang'ich ta'limda ko'proq ayol o'qituvchilarning keng faoliyat ko'rsatganligi;
- boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarni oliyjanoblik ruhida tarbiyalashga ustuvor qaralganligi;
- boshlang'ich ta'lim darsliklarining har bir davrda yangilanib borilganligi;
- XVIII asrdan boshlab boshlang'ich ta'lim darsliklarida tasviriy san'at imkoniyatlaridan keng foydalanish boshlanganligi;
- boshlang'ich ta'lim uchun professional pedagoglarni tayyorlash yo'lga qo'yilganligi.

Boshlang'ich ta'lim nazariyasining xorijiy davlatlardagi bunday tajribalari asrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelgan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim nazariyasiga oid xorijiy davlatlarning tajribalarida quyidagilar idrok etiladi:

- eng qadimgi davrlar (I asrgacha);
- o'rta asrlar (I-XVI asrlar);
- yangi davr (XVII-XXI asrlar).

Xorijiy davlatlarning boshlang'ich ta'lim nazariyasining eng qadimgi davrida o'quvchilarni odamlar bilan munosabatga kirishish va tabiat bilan tanishtirish ko'nikmasini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilgan. Bu davlatlarning boshlang'ich ta'lim nazariyasining o'rta asrlar davridagi bosqichida asosiy xristianlik dini psixologiyasi va tarbiya asoslariga binoan o'quvchilarning ruhiy ko'nikmalarini va ularning qalbida ezgulik g'oyalarini shakllantirishga ustuvor darajada ahamiyat berilgan. Shuningdek, mazkur davlatlarning boshlang'ich ta'lim nazariyasining yangi davrida boshlang'ich ta'limning o'ziga xos metodikasi ishlab chiqilganligini ta'kidlash joiz. Bu metodikaga ko'ra, boshlang'ich ta'lim uchun eng asosiy fanlarning dastlabki bosqichlari tanlangan, boshlang'ich ta'limning o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan, o'qitishning dars tizimi yaratilgan va boshlang'ich ta'limning didaktikasi shakllantirilgan. Bu borada chex pedagog olimi Y.A. Komenskiy (1592-1670) va fransuz pedagog olimi M. Montessorining (1890-1952) mehnatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.²⁴ Ta'kidlash joizki, boshlang'ich ta'lim nazariyasiga oid xorijiy davlatlarning tajribalari bugungi kunda barcha davlatlarning boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasida qabul qilingan.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim nazariyasining milliy va xorijiy tajribalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur

²⁴ Qarang: Педагогическое наследие. Антология. –Москва 1889. Из истории зарубежное педагогики. Антология. –Москва, 1989.

xususiyatlar uyg'un o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshlang'ich ta'limga doir mamlakatimiz tajribasida o'quvchilarning axloqli bo'lish nazariyasiga alohida e'tibor berilgan bo'lsa, xorijiy tajribada esa o'quvchilarni hayotiy faoliyatga tayyorlash nazariyasi birlamchi tarzda qabul qilingan. Shu jihatdan bu tajribalarni uyg'un qabul qilish mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim nazariyasining bugungi kundagi holatini kuchaytirish imkonini beradi.

O'zbekistonning hozirgi yangi rivojlanish davrida boshlang'ich ta'lim nazariyasi oldida yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Shunday vazifalardan biri boshlang'ich ta'limni *texnologik* jihatdan rivojlantirishdir. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limga hozirgi zamon texnik vosilarining imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish va zamonaviy texnologiyalar asosida mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirib borish taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim nazariyasi oldida bugungi kunda quyidagilar bo'yicha aniq hulosalarni berish dolzarb bo'lib turibdi:

- 1) boshlang'ich ta'limni *texnologik* rivojlantirishning asoslari, metodologiyasi va tizimi ishlab chiqilishi;
- 2) boshlang'ich ta'limda *texnologik* vositalardan foydalanishning standartlari va mezonlari yaratilishi;
- 3) boshlang'ich ta'limda *texnologik* vositalardan foydalanishning samaradorligini aniqlash metodlari shakllantirilishi;
- 4) boshlang'ich ta'limda *texnologik* vositalardan foydalanishning o'quvchilar imkoniyatlariga ta'sir ko'lamini aniqlash mexanizmlarini shakllantirish;
- 5) boshlang'ich ta'lim uchun elektron darsliklar yaratishning standartlari, metodologiyasi, texnologiyasi va tizimlari ishlab chiqilishi;
- 6) boshlang'ich ta'limda elektron darsliklardan foydalanish tizimi vositasida mazkur ta'lim bosqichining rivojlanish asoslarini belgilash;
- 7) boshlang'ich ta'lim uchun joriy etiladigan zamonaviy texnologiyalarga qo'yiladigan nazariy, metodik va estetik talablarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;
- 8) boshlang'ich ta'limda *texnologik* vositalar asosida kutilgan darajada ta'lim va tarbiya berish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasini muntazam va maqsadli oshirib borish asoslarini ishlab chiqish.

Bularning barchasi bugungi mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim nazariyasining oldida turgan muhim vazifalardir. Chunki yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limni texnologiyalar asosida rivojlantirib borish "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da alohida yo'nalish sifatida belgilangan. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim nazariyasining mazkur yangi

vazifalari bo'yicha ilmiy ishlanmalar yaratish va ularning natijalarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga taqdim etib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limning nazariy asoslarini to'liq va kutilgan darajada idrok etish, mazkur nazariya oldida turgan muammolar bo'yicha tushunchalarga ega bo'lish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich ta'lim nazariyasining yangi yo'nalishlariga yo'naltirish boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning eng muhim asoslaridir. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim nazariyasining muammolarini hal etib borish hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini rivojlantirish uchun muhim asoslarni beradi. Chunki bugungi kunda boshlang'ich ta'lim metodikasining asoslari ham yangilanib borayotganligi ma'lum.

E'tibor berilsa, O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning nazariy asoslari me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik tajriba va pedagogik ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan. Shu sababli boshlang'ich ta'limning nazariy asoslari muhim imkoniyatlarga ega. Bu o'rinda eslatib o'tish joizki, davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning amaliy asoslari hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limning yangi nazariy asoslarini innovatsion yondashuvlar asosida tadqiq qilib borish taqozo etiladi. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich ta'limning nazariy asoslarini takomillashtirish masalasiga qaratilishi kerak.

Oliy pedagogik ta'lim jarayoni milliy va xalqaro ta'lim darajalari asosida yangi tizimda rivojlanib bormoqda²⁵. Bunda boshlang'ich ta'limni ijtimoiy, pedagogik, metodologik va texnologik jihatlardan rivojlantirish asoslari mavjud. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim va tarbiya berish tizimlarini yangicha asoslarda rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-sonli "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi va samarali tizimlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish vazifalari qo'yilgan²⁶. Mazkur Qaror tahlili shuni ko'rsatadi, oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning quyidagi yangi tizimlarini shakllantirish mumkin:

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // www.ziynet.uz.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // www.ziynet.uz.

1. *Boshlang'ich ta'lim mazmuni va sifatini oshirish.* Oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim mazmunini va sifatini oshirishning quyidagi yangi tizimlarini joriy etish kutilgan samarani beradi:

- boshlang'ich ta'lim mazmuniga raqobatbardoshlik tizimini yuzaga keltirish, bunda boshlang'ich ta'limning maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim bosqichlaridan sifatli rivojlanish maqsadlarini belgilab olish kerak bo'ladi;

- boshlang'ich ta'lim yo'nalishida yuqori bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, unda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning elektron-modulli laboratoriya, masofaviy ta'lim va kompyuterli texnologiyalari kabi tizimlarga asoslanish kutilgan samarani beradi;

- Boshlang'ich ta'limga pedagogik ta'limning innovatsion klasterlarini joriy qilish, bunda "Maktab-laboratoriya", "Ta'lim+amaliyot" laboratoriyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. *Boshlang'ich ta'limning tarbiya va o'qitish metodikalari samaradorligini oshirish.* Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz:

- tarbiya mazmuniga O'zbekistonning yangi milliy g'oyasi-insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlikni singdirish;

- boshlang'ich ta'limning o'qitish metodikalarida ilg'or o'qituvchilarning tajribasini ommalashtirish va xalqaro darajada targ'ibot qilish;

- o'qitishning elektron-modulli metodikalariga tayanish;

- boshlang'ich ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalarni biluvchi va xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan malakali o'qituvchilarni jalb qilish.

3. *Boshlang'ich ta'limga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish.* Bunda quyidagilarga ahamiyat berish kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz:

- boshlang'ich ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishiga ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quv rejalarni va fan dasturlarini tatbiq etish;

- boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistratutsra mutaxassisligini joriy etish, unda o'qish uchun faollik, irodalik, yetakchilik va mustaqil fikrlash sifatlariga ega bakalavr bitiruvchilarini jalb etish;

- boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavr va magistratura mutaxassislarini milliy pedagogik tajriba va xalqaro ta'lim an'analarni uyg'unlashtirishgan holda o'qitish.

4. *Boshlang'ich ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish.* Raqamli texnologiyalar bu axborot-kommunikatsion jihozlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga asoslanadi. Shu sababli bunda quyidagilarga e'tibor maqsadga muvofiq bo'ladi:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarining elektron nusxalarini yaratish;

- o'quv materiallarini tayyorlashda davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda ixchamlik, yangilik va tushunarlik tamoyillariga tayanish;

- boshlang'ich ta'limning o'quv va ilmiy laboratoriyalarini tarkib toptirish.

5. Boshlang'ich ta'limda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Bunda quyidagilarga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS PIRLS) va STEAM standartlaridan foydalanish;

- boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish hamda baholashning shakllarini yangilab borish;

- boshlang'ich ta'limda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarining talabalari amaliyotini yangicha asoslarda tashkil etish.

E'tibor berilsa, oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limning yangicha tizimlari aniq va maqsadli belgilangan. Shu sababli mazkur tizimlarni chuqur o'zlashtirish va idrok etish taqozo etiladi.

Ta'kidlangan qarorda o'quvchilarni pedagogik kasbga yo'naltirish vazifasi ham alohida qo'yilgan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish mazkur vazifa ijrosini kuchaytiradi:

- 3-4 sinf o'quvchilari uchun maxsus "O'qish va matematik savodxonlik bo'yicha sinflar" tashkil etish;

- umumta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida darslarni imkon doirasida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosida tashkil qilish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonini klaster asosida rivojlantirib borish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish va kelgusida boshlang'ich ta'limni istiqbolli rivojlantirish maqsadida bundan keyin boshlang'ich sinf o'qituvchilariga oliy ta'limni bitirish jarayonida asosiy va qo'shimcha mutaxassislik berish tizimi joriy etilmoqda. Buning ma'nosi shuki, kelgusi yaqin 3-4 yilda boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'lim bo'yicha asosiy mutaxassislik asoslarini egallash bilan birga, boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan muayyan o'quv fani bo'yicha ham qo'shimcha mutaxassislik kompetensiyasiga ega bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi tizimi idrok etilmoqda. Ushbu tizim oliy pedagogik ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi idrok etiladi. Buning uchun belgilangan ta'limga oid yangi vazifalar bilan tanishish va biz tahlil etgan qarorda belgilangan vazifalarni o'zlashtirishga e'tibor maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida boshlang'ich ta'limning vazifalari tubdan o'zgarmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida alohida vazifalar qo'yildi va u bevosita yangi uchinchi

Uygʻonish davri konsepsiyasi bilan bogʻliq²⁷. Bu konsepsiyaga koʻra, birinchi Uygʻonish davri IX-XII asrlarda kechgan, ikkinchi Uygʻonish davri XIV-XV asrlarda yuzaga kelgan edi va hozirgi eʼlon qilingan uchinchi uygʻonish davri XX asrning birinchi choragida boshlangan, lekin u maʼrifatparvar pedagoglarning qatagʻon qilinishi munosabati bilan toʻxtab qolgan edi. Shu sababli Prezidentimiz tomonidan mazkur Uygʻonish davrini barpo etish gʻoyasi ilgari surildi.

Har bir Uygʻonish davrining asosiy tayanchi taʼlim hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda boshlangʻich taʼlimning vazifalarini qayta belgilab olish zarurat boʻlmoqda. Shu sababli 2020-yil 23-sentabr kuni tasdiqlangan yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunning 9-moddasida boshlangʻich taʼlim umumiy oʻrta taʼlimning negizi sifatida belgilandi. Buning maʼnosi quyidagilardan iborat:

- oʻquvchilarni tayanch oʻrta taʼlimga tayyorlash;
- oʻquvchilarga umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻladigan bilim asoslarini berish;
- oʻquvchilarning bilim olish malaka va koʻnikmalarini shakllantirish.

Mazkur vazifalar butunlay yangi boʻlib, unga koʻra, boshlangʻich taʼlim Davlat standartlari va davlat talablari takomillashtiriladi. Shuningdek, boshlangʻich taʼlimning kelgusi oʻquv yilidan boshlab oʻquv dasturlari va rejalari yangilanadi. Bunday yangilanishda aniq va zaruriy fanlar boʻyicha dastlabki bosqichda bilim berish, oʻquvchilarning bilim olish koʻnikmasi va malakasini shakllantirishga asosiy eʼtibor qaratiladi. Savodxonlikning dastlabki bosqichi maktabgacha taʼlimda amalga oshirilganligi hisobga olinib, boshlangʻich taʼlimda savodxonlikning bilish, fikrlash va dunyoqarash koʻnikmalariga asosiy eʼtibor qaratiladi. Bolaning yoshi, ruhiyati, jismoiy imkoniyati va faoliyat asoslariga mos ravishda fikrlash koʻnikmasi, bilim olish malakasi hamda oʻzining iqtidorini namoyon etish koʻnikmasini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻqituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soʻzlagan nutqida quyidagi muhim vazifa ham qoʻyildi: “Boshlangʻich sinflardan boshlab farzandlarimizning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, kelgusida ularni ixtisoslashgan sinflarda oʻqitishni davom ettirish tizimini joriy etish lozim”. Bu vazifaning maʼnosi quyidagilardan iborat:

- boshlangʻich sinf oʻquvchilarining qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash;
- mazkur aniqlash asosida ularni ixtisoslashgan sinflarda oʻqitishga tayyorlash.

²⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻqituvchi va murabbiylar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi. //Xalq soʻzi// gazetasi. 2020-yil 1-oktabr soni.

Bu jarayon juda murakkab bo‘lib, uni amalga oshirish faqat bilim berish asoslariga tayanishi kerak. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisining iqtidori har qanday talabga javob beradi va u qanday yo‘naltirilsa shunday rivojlanishda davom etadi. Shu sababli biz mazkur vazifani amalga oshirishning asoslarini quyidagilarda ko‘ramiz:

- bolaga bilim berish;
- bolani ijodiy yo‘naltirish;
- bolani ijodkorlikka ko‘niktirish.

Bizningcha, mazkur uch asosga tayanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqish va layoqatlarini aniqlash imkonini beradi. Unga ko‘ra, bilim asoslari bilan qurollantirish bolaning qiziqish va layoqatini to‘g‘ri aniqlash va belgilashga olib keladi. Shu sababli 3-4 sinflarda bolalarning qiziqish va layoqatlari ustuvor darajada namoyon bo‘lishini unutmaslik lozim.

Mazkur vazifalar uchinchi Uyg‘onish davrini barpo etishning tamallaridan biri bo‘lib, unda boshlang‘ich ta‘lim quyidagi asosiy o‘rinni tutadi:

- maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘limni bog‘lash;
- tayanch o‘rta ta‘lim uchun bilim asoslarini berish;
- bolani axloqiy shakllantirish.

Ushbu vazifalarning barchasi boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilaridan har kuni o‘z faoliyatini takomillashtirib borishni taqozo etadi. Shu ma’noda, bundan keyin boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining tajribalarini keng ommalashtirish, ularning mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, eng zamonaviy texnologik imkoniyatlar yaratib berish vazifalari belgilanmoqda. Hozirgi kunda boshlang‘ich ta‘limning funksional mohiyatini idrok qilib olishga zarurat bor. Shu sababli bizningcha “Uchinchi Uyg‘onish davrida boshlang‘ich ta‘lim vazifalari” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu anjumanda boshlang‘ich ta‘lim funksiyalarini aniqlashtirish, boshlang‘ich ta‘lim o‘quv dasturlarini yangilash, fanlarni takomillashtirish va yangi avlod darsliklarini yaratish muammolarini muhokama qilish bizningcha, muhim ahamiyatga ega.

Har bir uyg‘onish davrining boshlang‘ich ta‘limga qo‘yiladigan o‘ziga xos talablari mavjud bo‘ladi. Misol uchun, birinchi Uyg‘onish davrida boshlang‘ich ta‘limda asosiy e’tibor aniq fanlar bo‘yicha tushuncha va bilim berishga qaratilgan, ikkinchi Uyg‘onish davrida aniq fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha to‘liq bilim berish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shu sababli anashu ikki uyhonish davrida aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, san’at keng rivojlangan edi. Hozirgi barpo etilishi mo‘ljallanayotgan uchinchi Uyg‘onish davrida boshlang‘ich ta‘limga bizningcha quyidagi ijtimoiy talablarni qo‘yish maqsadga muvofiqdir:

- aniq, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar asoslari bo‘yicha teng bilim berish;

- bolani tafakkurini shakllantirish;
- bolani ijodkorlikka yo'naltirish;
- bolaning texnologik qobiliyatini o'stirish.

Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bugungi kunda bilim, mustaqil fikr, ijodkorlik va texnologiyalardan oqilona foydalanish ko'nikmasi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim vazifalarini bilim, ijod va texnologiya uchligi asosida tashkil etish kutilgan samarani berishi mumkin. Chunki bugungi davr talablari ana shu uch omilni zarurat sifatida qabul qilmoqda. Haqiqatan ham, bilmsiz ijod, ijodsiz texnologik kashfiyotni amalga oshirib bo'lmaydi. E'tibor berilsa, bunda bolaning ongi, dunyoqarashi va olamga munosabatini shakllantirish masalasi ustuvor omil sifatida ko'zga tashlanadi.

Mazkur jarayonda birinchi va ikkinchi Uyg'onish davrlarining tajribalaridan oqilona foydalanish kerak bo'ladi. Misol uchun, ana shu Uyg'onish davrlarida Ustoz va shogird an'analari mavjud bo'lib, unga ko'ra, iqtidorli o'quvchilarga Ustozlar tomonidan individual ta'lim va tarbiya berilganligi ma'lum. Shu sababli Prezidentimiz mazkur nutqida Ustoz va shogird institutini qayta tiklash vazifasini qo'ydi. Bu vazifaga ko'ra boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir bola bilan individual tarzda ishlashi va bunda maktab jamoasining yordamidan foydalanishi kerak. Bunday vazifani amalga oshirgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari bundan keyin moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishi belgilab qo'yilmoqda.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limni uchinchi Uyg'onish davri jarayoniga tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limda sifat samaradorligiga erishish va bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga tayanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni yanada rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasi (imiji) muhim o'rin tutadi.

Xorijlik pedagog olimi N.V.Kuzmina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasini quyidagi yondashuv asosida shakllantirishni tavsiya etadi:

- 1) kasbiy bilimga ega bo'lish;
- 2) loyihachi bo'lish;
- 3) konstruktiv bo'lish;
- 4) maslahatchi bo'lish;
- 5) tashkilotchi bo'lish.²⁸

Mazkur komponentlarning ma'nosi quyidagicha: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-nazariy bilimni egallashi, mustaqil fikrga ega bo'lishi va mudom o'zi ustida ishlab borishi kerak; uning loyihachiligi har bir darsni o'ziga

²⁸ Бордовская Р., Реан А. Педагогика. Учебник для ВУЗов. – СПб.: “Питер” 2001. С. 142-143.

xos tarzda o'tkazishi bilan belgilanadi; konstruktivligi o'quvchilar bilan til topisha olishi va bolaparvarligi bilan namoyon bo'ladi; maslahatchiligi ta'lim oluvchilar va ularning manfaatdor shaxslari bilan kirishimlidir; tashkilotchiligi esa chngi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llay olishi bilan belgilanadi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasida quyidagilar bo'rtib turishi kerak:

- bolaparvarlik;
- o'z kasbini sevishi;
- pedagogik faol bo'lish;
- o'zi ustida doimiy ishlashi.

Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarjda qabul qilingan quyidagi konseptual yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

- a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish;
- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik ko'nikma bilan qurollantirish;
- v) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy texnologik imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish;
- g) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish.

Ushbu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kutilgan samarani berishi shubhasizdir. Ayni paytda, har bir o'qituvchi faoliyati davomida o'zining kasbiy qiyofasini takomillashtirib borishini unutib bo'lmaydi.

Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo'lishi kerak. SHu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyofasida pedagogtk, psixologik va estetik malakalik bo'rtib turishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik vazifani qo'ya olishi, o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;
- imkon qadar har bir o'quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo'lishi shart;
- o'quv materiallari bilan ishlash ko'nikmasini egallash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlash. O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;
- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;
- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;
- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish;
- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish;
- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli Farmonida berilgan mazkur topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik olimlarning fikricha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak:

- 1) o'quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish;
- 2) o'quvchilarni bilim va tarbiya olishga qiziqтира olishi;
- 3) o'quvchilar shaxsida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf eta olishi;

4) muntazam ravishda o'quvchilarni kuzatib borishi.²⁹

Mazkur yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Tajribali pedagog olimlardan A.K.Markovo yondashuviga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati to'rt yo'nalishdan iborat:

- 1) kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash;
- 2) kasbiy pedagogik malakani egallash;
- 3) kasbiy psixologik ko'nikmalarni egallash;
- 4) shaxsiy fazilatlar egasi bo'lish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, ushbu tavsiyalar nazariy va amaliy jihatdan asoslarga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy, psixologik va estetik jihatdan tayyorlashga e'tibol berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modellashtirish masalasiga ahamiyat berish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayoni o'ziga xos model ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. Chungi modellashtirish to'rt jihatga ega bo'ladi:

- model bu o'quv materiallarini tizimli taqdim etish;
- model muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etib borish;
- model ta'lim oluvchini hamisha ob'ekt sifatida bilish;
- model yangi ma'lumotlarni o'z vaqtida o'quv jarayoniga kiritib borish.

Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash ishlarini modellashtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini faoliyatga yo'naltirish. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr) 5-bobida o'qituvchilarning huquqiy maqomi belgilangan. Mazkur huquqiy maqomga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatga quyidagi asoslarga binoan yo'naltirilishi kerak:

- chuqur kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;
- ta'lim oluvchilar huquqlariga rioya qilish;
- kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish;
- o'quv dasturlarini tuzishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqishni bilish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini erkin tanlash;
- innovatsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
- sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish;
- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

²⁹ Qarang. Гессен С.И. Основы педагогики. –М.,1995

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu huquqlar asosida faoliyatga yo'naltirilishi kerak.

Ayni paytda, mazkur Qonunda o'qituvchilarning quyidagi majburiyatlari ham belgilab qo'yilgan:

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- voyaga etmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning otasini bilan birgalikda olib borishi;
- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi;
- tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi.


Mazkur majburiyatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatga quyidagi mexanizmlar asosida yo'naltirilishi kerak:

- a) mutaxassslik fanlarini o'qitish jarayonida;
- b) maxsus kurslar vositasida;
- v) mustaqil ta'lim vositasida;
- g) ustoz-shogird an'anasi vositasida.

Bu mexanizmlarga amal qilish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish jarayonini aniq tashkil etish imkonini beradi. Misol uchun, mustaqil ta'lim vositasini olaylik. Pandemiya kabi murakkab sharoitlar shuni ko'rsatdiki, oliy pedagogik ta'lim jarayoni hamisha va har qanday vaziyatda mustaqil ta'limga tayyor turishi kerak.

Zero boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. E'tibor bering:



Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi masalalarini idrok etish, ularning ko'lamini belgilash va mavjud muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy-nazariy va metodologik yangi tadqiqotlar yaratish taqozo etiladi. Bu bilan boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy masalalarini o'rganib borish tarkib topadi.

1.2. Boshlang'ich ta'lim metodikasida innovatsiya va integratsiya omili

O'zbekiston Respublikasining yangi rivojlanish davrida maktabgacha ta'limning vazifalari butunlay o'zgardi. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi sifatida o'quvchi shaxsini tayanch umumiy o'rta ta'lim bosqichiga olib kirish va umumiy o'rta ta'limning fanlari bo'yicha dastlabki bilimlarini berishdan iborat. Bu vazifa maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta tayanch ta'limning orasidagi bo'g'in bo'lib, unda o'quvchi maktabgacha ta'lim kursini yakunlaydi va navbatdagi umumiy o'rta tayanch ta'limning asoslari bilan tanishishga o'tadi. Shu sababli 2020-2021- o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'limning vazifalari optimallashtirilib, unda o'quvchi shaxsida bilim olishning tayanch asoslarini shakllantirish va uni tarbiyaviy yo'naltirishni amalga oshirish belgilanmoqda. Ushbu vazifa yangi bosqichdagi boshlang'ich ta'limning mazmunini belgilab, mazkur sohada faoliyat yurituvchi o'qituvchilar va murabbiylarning tushunchalarini yangilashni, ularni yangi shart-sharoitga moslashtirishni hamda malakaviy tayyorgarligini kuchaytirishni taqozo etadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limning oila, maktab va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligi masalasining umummetodologik mexanizmlariga e'tiboringizni tortamiz.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning *oila* instituti bilan hamkorligi quyidagi asoslarga tayanadi:

- o'quvchini boshlang'ich ta'lim olishi uchun jismoniy va ruhiy tayyorlash;
- o'quvchiga boshlang'ich ta'limni o'zlashtirishi uchun texnik va makoniy shart-sharoitlarni yaratib berish;
- o'quvchining o'zlashtirishida ota-onalar va oila vakillarining faolligini oshirish;
- ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limning qonuniyatlarini ustuvor darajada amalga oshirish.

Ushbu vazifalar yangicha nuqtai nazardan qo'yilayotganligi bilan ahamiyatga ega. Uning mazmuni shundaki, maktab boshlang'ich ta'limni to'liq amalga oshiradi va bunda oila shart-sharoit yaratib berish ishlarida ishtirok etadi, xolos. Oila vakillarining boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda hamkorligi umumsharoit va umummetodik yordam berish bilan cheklanadi. Bir so'z bilan aytganda, ota-onaning yoki oilaning vakili nuqtai nazari boshlang'ich ta'lim qonuniyatlari hamda talablariga mos kelishi shart. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va murabbiylari oila vakillari bilan umumpedagogik nuqtai nazardan hamkorlik qiladi.

Hozirgi boshlang'ich ta'limning *maktab* jamoasi bilan hamkorligi masalasi ham yangilanmoqda. Bu yangilanish o'qitish va nazorat vazifalarini amalga

o'shishda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limni berishda maktab jamoasi bilan hamkorlik quyidagilarga asoslanadi:

- boshlang'ich ta'limni berishning umumiy va individual texnologiyalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish;
- o'quvchi shaxsini individual rivojlantirishning yo'llarini izlab topish;
- o'quvchi shaxsining boshlang'ich ta'lim asoslarini o'zlashtirib borish jarayonini muntazam nazorat qilib borish;
- eng ilg'or boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va murabbiylarini rahbatlantirish, ularning tajribalarini ommalashtirish.

Bu vazifalarni amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va murabbiylari bilan maktab jamoasi umummetodologik asoslarga ko'ra hamkorlik qiladi. Bunda maktab jamoasi avvalgi yillarda kuzatilganidek, boshlang'ich ta'lim mazmuni va sifatiga xususiy yondashuvlar asosida emas, balki davlat ta'lim standartlari nuqtai nazaridan talablar qo'yadi. Buning mazmuni shundan iboratki, boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy-huquqiy xujjatlarda qo'yilgan talablar boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va murabbiylari tomonidan amalga oshiriladi, maktab jamoasi esa uni ijtimoiy va metodik jihatdan nazorat qiladi. Ilgari maktab jamoasining pedagogik Kengashlari boshlang'ich ta'lim mazmuniga oid muayyan ko'rsatmalar berish huquqiga ega edi. Bu bilan Respublikaning umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limni o'zlashtirish ko'rsatkichlari turli darajada aks etadi. Bundan keyin boshlang'ich ta'limni o'zlashtirish ko'rsatkichlari tipiklashgan va yagonalashgan tartibda bo'ladi, chunki bunda barcha sa'yi-xarakatlar boshlang'ich ta'limga oid davlat ta'lim standartlarini bajarishga yo'naltiriladi. Maktab jamoasi (o'qituvchilar, murabbiylar, psixologlar, shifokorlar va rahbar xodimlar) boshlang'ich ta'limning sifati bo'yicha hamkorlik qilish bilan cheklanadi. E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va murabbiylari funksiyalari kengaymoqda.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'limning *oliy ta'lim muassasalari* bilan hamkorligi masalasida ham yangilanishlar kutilmoqda. Bunda hamkorlikning mutlaqo yangi shakllari ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi kerak. Jumladan, o'qitishning klaster usuli ana shunday yangi yondashuv sifatida e'tiborni tortmoqda. Mazkur usulga asosan boshlang'ich ta'lim va oliy ta'lim muassasalari hamkorligi quyidagilarga asosan tashkil etiladi:

- boshlang'ich ta'limni ilmiy va metodik materiallar bilan ta'minlash;
- boshlang'ich ta'limda oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorligi bilan birgalikda amalga oshirish;
- boshlang'ich ta'limga oid ilmiy, metodik va amaliy muammolarni tezkor ravishda hal etish, natijalarini amaliyotga tatbiq etish;

- boshlang'ich ta'limning sifati va samaradorligini metodik monitoring qilib borish.

Bu hamkorlikda boshlang'ich ta'lim ishtirokchilari oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari, shart-sharoitlari va tajribalaridan bevosita foydalanish asoslariga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarning xulosalari boshlang'ich ta'lim jarayonida tezkor va innovatsion usulda amaliyotga tatbiq etiladi, uning natijalari tahlil qilinadi va umumnazariy hamkorlik shakllari tarkib topdiriladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bevosita boshlang'ich ta'lim jarayonida ishtirok etishi ta'minlanadi. Bu bilan ularning nazariy ko'nikmalari amaliyot bilan bog'lanadi. Oliy pedagogik mutaxassislikka ega bo'lgan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va murabbiyi mehnat faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan tayyor pedagogik kadr sifatida boshlaydi.

Diqqat qilinsa, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida boshlang'ich ta'lim, oila, maktab va oliy ta'lim muassasasining hamkorligi masalasi bo'yicha yangicha yo'nalishlarni belgilash jarayoni kechmoqda. Buning uchun bir necha tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) boshlang'ich ta'lim ishtirokchilari oila, maktab va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishda faqat o'quvchi shaxsiga bilim berish tamoyiliga tayanish;

2) boshlang'ich ta'lim ishtirokchilari hamkorlikning klaster usuli, innovatsion shakllari, pedagogik amaliyotlari kabi butunlay yangicha formatlarini kashf qilishi, amalga oshirishi va uning natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqishi tamoyiliga tayanishi lozim;

3) boshlang'ich ta'lim ishtirokchilari hamkorlik har qanday shaklini va ularning natijalarini ta'limning sifat va samaradorligi tamoyiliga binoan baholab borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda oila, maktab va oliy ta'lim muassasasi hamkorligi masalasida yagona yoki tiklashgan modul yo'q. Bunday hamkorlik har bir mamlakat yoki hududda real sharoit, pedagogik tajribalar va amaliy talablar asosida shakllantiriladi. Shu ma'noda mazkur masalada joriy yilning yangi o'quv yilidan boshlab mutlaqo yangi yondashuvlar, intilishlar va harakatlarni amalga oshirish kutilmoqda.

Yangi davr O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limni jahon ta'lim standartlariga moslashtirish, uning sifat va samaradorligi masalasida yangi bosqichga erishish vazifalari qo'yilgan. Bunda boshlang'ich ta'lim- maktabgacha va umumiy o'rta tayanch ta'limning bog'lovchi bosqichi sifatida idrok etilmoqda. Uning murakkabligi shundaki, boshlang'ich ta'lim maktabgacha ta'limni mantiqan davom ettirishi va o'quvchi shaxsini umumiy o'rta tayanch ta'limga olib kirishi

kerak. Shu sababli boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda yangicha yondashuvlar, usullar va shakllarga ehtiyoj yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

Jahon mamlakatlarining boshlang'ich ta'limga oid tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat o'z mentaliteti va ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqib boshlang'ich ta'limni tashkil etgan. Bu borada tipik namunaviy modulni izlash samarali emas. Shu sababli O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish milliy shart-sharoitlar hamda jahon mamlakatlarining o'qitish samaradorligi bo'yicha tajribalariga uyg'unlashgan modeliga asoslanishi idrok etilmoqda. Bu masalada boshlang'ich ta'limning asosiy ishtirokchilaridan bo'lgan *ota-onalar* bilan hamkorlik masalasi ham muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda har bir ota-ona o'z farzandining bilimli, axloqli va tarbiyali shaxs bo'lib etishini istaydi. Shu jihatdan ularning boshlang'ich ta'limni tashkil etishga doir intilishlari ham faollashgan. Mazkur intilishning hozirgi xolati qoniqarli emas. Chunki har bir ota-ona o'z farzandini nisbatan bilimli va axloqli hisoblaydi. Bu tabiiy va ijobiy xodisa. Ayni paytda, o'quvchi shaxsiga nisbatan boshlang'ich ta'limda qo'yilayotgan talablar va mezonlar yangilanib bormoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari, murabbiylari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni faqat *umummetodik* qonuniyatlarga asosan yo'lga qo'yish ehtiyoji mavjud. Unga ko'ra, ota-onaning boshlang'ich ta'limdagi ishtiroki huquqiy asoslarda belgilab qo'yiladi. Biz mazkur masalada muayyan kuzatishlarni amalga oshirib, boshlang'ich ta'limda ota-onalarning ishtiroki quyidagi asoslarda bo'lishi kerak, degan fikrga keldik:

- boshlang'ich ta'limga doir davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishda tashkiliy yordam berish;
- o'quvchining bilimlarini o'zlashtirish va axloqiy ko'nikmalariga odatlantirishda shart yaratish;
- o'quvchining nazariy va tarbiyaviy rivojlanish jarayonida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va murabbiylariga yordam berish;
- imkoniyat doirasida o'quvchi shaxsini jismoniy rivojlantirib borish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda ota-onalarning ishtiroki tashkiliy jihatdan idrok etilmoqda. O'zgacha aytganda, ota-onalar bilim berish va axloqiy shakllantirish masalalarini o'qituvchi hamda murabbiylar bilan hamkorlik qilish huquqiga ega. Biroq, ushbu masalalar bo'yicha o'z qarashlari va nuqtai nazarlarini ustuvor qo'yishi mumkin emas.

Boshlang'ich ta'limda ota-onalarning ishtiroki masalasida o'qituvchi va murabbiyning nuqtai nazari hal qilish hukmiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi va murabbiy boshlang'ich ta'limga oid davlat ta'lim standartlarini asosiy ijrochisidir. Boshlang'ich ta'lim yakunida mazkur talablarning kutilgan darajada bajarilganligi

aynan boshlang'ich ta'lim o'qituvchi hamda murabbiyning faoliyati bilan baholanadi.

Bugungi kunda ota-onalarning boshlang'ich ta'limni tashkil etishdagi ishtiroki intellektual tashkiliy va ijtimoiy jihatdan talablarga javob beradi. Ayni paytda ularning bevosita boshlang'ich ta'lim jarayonidagi ishtiroki asoslari belgilanmaganligini eslatib o'tish joiz. Unga ko'ra, ota-onalar oilada o'quvchiga mashg'ulotlarni va uy vazifalarini bajarishda ko'maklashadi, biroq bu faoliyatda hamisha pedagogik talablariga rioya qilinmaydi. SHu sababli ota-onalarga farzandlarining bilim va axloqiy darajasi yuqori ko'rinadi. Mazkur masalani ijobiy hal etishning usullari va shakllari ishlab chiqilishi kerak. Misol uchun, ota-onalarning bevosita boshlang'ich ta'lim jarayonida ishtirok etishi masalasini olaylik. Bunda quyidagicha yo'l tutish mumkin:

- dars mashg'ulotlarida ota-onalarning ixtiyoriy ishtirok etishiga ruxsat berish;
- yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning tajribasini o'rganish maqsadida hamkorlik qilish;
- past darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ota-onalarini dars mashg'ulotlarida muntazam qatnashishlarini tashkil etish;
- yakunlovchi baholash mashg'ulotlarida ota-onalarning vakillari ishtirokini ta'minlashga erishish;
- har bir chorakda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini individual tarzda ota-onalar bilan muhokama qilib borish;
- boshlang'ich ta'limning ochiq tizimga o'tishini ta'minlash.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limning sifati va samaradorligini oshirishda ota-onalarning ishtirokini maqsadli tashkil qilish imkonini beradi. Bunda ota-onalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan intilishlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda ota-onalarning nisbatan ko'pchiligi farzandlarining ta'lim va tarbiya olishini asosiy vazifalardan biri sifatida qabul qiladi. Aynan mana shu omil boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil qilishda ota-onalarning imkoniyatlaridan keng foydalanishga asos bo'ladi. Buning uchun quyidagilarga tayanish kutilgan samarani beradi:

- har bir ota-onaning ta'lim jarayoniga ishtiroki imkoniyatlarini aniqlab olish;
- ota-onalarni boshlang'ich ta'lim jarayoni to'g'risida to'liq xabardor qilib borish;
- o'quvchilarni rag'batlantirish va ularni korreksiyalash ishlarini aynan ota-onalar bilan birgalikda amalga oshirish;
- ota-onalarning ta'limga oid tashabbuslari, fikrlari va munosabatlari asosida ta'lim va tarbiya berishning yangicha formatlarini ishlab chiqish.

Ota-onalarning boshlang'ich ta'limdagi ishtiroki tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan talablarga javob beradi. Mazkur ishtirokning metodologik,

pedagogik va amaliy asoslari boshlang'ich ta'limning o'qituvchilari hamda murabbiylari tomonidan shakllantirishi kerak. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va murabbiylarining malaka oshirish kurslarida quyidagilar aks etishi kerak degan fikrdamiz:

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va murabbiylarini ota-onalar ishtiroki bo'yicha metodik uslublar bilan qurollantirish;

- boshlang'ich ta'limda ota-onalar ishtiroki bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalarini boshlang'ich ta'lim va murabbiylariga muntazam taqdim etib borish;

- boshlang'ich ta'lim jarayonida ota-onalar ishtiroki yo'riqnomasini shakllantirish va uni amakliyatga taqdim etish bo'yicha tavsiyalar berish;

- boshlang'ich ta'limda ota-onalar ishtirokining me'yorlari bilan chuqur tanishtirish.

- o Mamlakatimizning hozirgi ta'limi rivojlanish bosqichida ota-onalarning ishtiroki muhim faktorlardan biridir. Shu sababli mazkur faktorning ijobiy natija berishi aynan boshlang'ich ta'limni oqilona tashkil etish bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'qitishning kredit-modul tizimi joriy etilayotganligi munosabati bilan ta'limning barcha turlarida o'qitish masalasida o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitishning elektron-modulli usullarini yaratish va ular asosida yangi o'quv materiallari tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalada muayyan tajribalar bo'lsa-da, lekin masofaviy o'qitishning elektron-modulli usullari bo'yicha yaxlit metodologiya shakllantirilgan emas.

Avvalo boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitishning *mazmunini* belgilab olish taqozo etiladi. Chunki bunda kredit-modul tizimi vositasida o'qitishga o'tilar ekan, quyidagi muammolarning nazariy-metodik yechimlari topilishi kerak:

- masofaviy ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy, aqliy va ruhiy imkoniyatlariga mos tushadimi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari masofaviy ta'lim vositalaridan kutilgan darajada foydalana oladimi;

- masofaviy ta'limning qaysi usullari boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda qo'l keladi.

Bu muammolarning nazariy yechimini topish mumkin, lekin ularning metodologik asoslari bo'yicha ilmiy-amaliy ishlanmalar yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan mazkur muammolarning yechimi bo'yicha bizning yondashuvimiz quyidagicha:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy, aqliy va ruhiy imkoniyatlariga mos tushuvchi boshlang'ich ta'lim shakllarini ishlab chiqish lozim bo'ladi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari masofaviy ta'limning kompyuterli kabi vositalaridan foydalanish imkoniyatlariga ega;

- boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'limning kompyuterli vositasiga asoslangan texnologiya, animatsiya, multimediya, elektron-modulli didaktik ta'minot kabi usullaridan foydalanishning imkoniyatlari mavjud.

- Shu jihatdan bu o'rinda boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitishning elektron-modulli usuli imkoniyatlariga e'tiboringizni tortamiz.

- Elektron-modulli o'qitish-bu masofaviy ta'limning negizlaridan biri bo'lib, unda asosan kompyuterli texnologiyaga tayaniladi. Shu sababli mazkur usulda boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqtiruvchi animatsiya, turli tasvirlar va multimediyalardan oqilona foydalanishning imkoniyatlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari dastlabki o'quv davridayoq kompyuter vositasidan foydalanish ko'nikmasi bilan qurollantiriladi. Bu masala keyingi paytlarda maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlanayotganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitishning elektron-modulli usulida quyidagi o'quv va didaktik materiallar muxim o'rin tutadi:

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari darsliklarini elektron-modulli shaklda qaytadan tuzib chiqish va ularni masofaviy ta'lim talablariga moslashtirish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ishlar o'quv materiallarini ishlab chiqish va undan foydalanish metodologiyasini yaratish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining har bir mavzulari bo'yicha elektron-modulli o'quv-didaktik materiallari tayyorlash;

- amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini masofaviy ta'limning elektron-modulli usulidan foydalanishga tayyorlash.

Bularni amalga oshirish boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'limning elektron-modulli usulidan foydalanish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi va ayni paytda, o'qituvchi hamda o'quvchilarning faolligiga asos soladi.

Boshlang'ich ta'limning masofaviy o'qitish usulida ko'p xollarda o'qituvchi o'quv materiallarini tayyorlovchi va dars jarayonini yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. O'quvchilar esa bunda asosiy vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi, chunki masofaviy ta'limning elektron-modulli usulida o'quv materiallari quyidagi xususiyatlarga asosan tuziladi.:

- nazariy tushunchalar berishning juda qisqaligi (asosan ta'rif berish bilan cheklaniladi);

- o'quv materiallarida mustaqil topshiriqlarning turli variantlarda va ko'p hajmda berilishi;

- o'quv materiallarining yangilanib borishi va o'quvchilarni tezkor o'zlashtirishga da'vat qilinishi;

- o'quv materiallaridan foydalanishning muddatli ekanligi.

Elektron-modulli o'quv materiallariga xos bo'lgan bu xususiyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining mudom dars mashg'ulotlari bilan shug'ullanishini taqozo etadi. Aks holda, o'quvchi o'quv materiallarini o'zlashtirishda ortda qoladi. Shu sababli elektron-modulli o'quv materiallari bir necha variantlarda tuziladi, aynan mana shunga binoan o'quvchilar o'zlashtirish jihatidan turli guruhlariga bo'linib boradi. E'tibor berilsa, o'quvchilarning ta'lim olishi faollashadi va o'qituvchilarning nazorat vazifasi kuchayadi.

Yaqin kelajakda boshlang'ich ta'limda ham o'qitishning kredit-modul tizimiga o'tish kutilmoqda. Bu hol o'quvchilarning kredit ballarini to'plab borishni taqozo etadi. Shu sababli masofaviy ta'limning elektron-modulli usuli kreditlar to'plashga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bundan ma'lum bo'ladiki, quyidagi ishlarni amalga oshirish zaruriyat bo'lib turibdi:

- boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan gumanitar fanlarning o'quv materiallarini to'liq elektron-modulli shaklda tayyorlash;

- boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan tabiiy fanlarning o'quv materiallarini elektron-modulli shaklda tayyorlash jarayonida ularning turli variantlarda bo'lishiga erishish;

- boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan aniq fanlarning sodda va oddiy elektron-modulli shakllarini tayyorlash.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'limning elektron-modulli usulini joriy etishda o'quv fanlarini turkumlashtirishga tayanish lozimligini ko'rsatadi. Bunda boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan gumanitar fanlar yagona blok tarzida va umumiy xususiyatlarga ega elektron-modulli o'quv materiallariga ega bo'lishi kerak, shu jihatdan tabiiy va aniq fanlar ham yagona turkum asosida o'quv materiallariga ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'limning elektron-modulli usulidan foydalanishda o'quvchilarning o'zlashtirishini aniq baholash murakkabliklari mavjud. Bizningcha, pedagog olimlarimiz va amaliyotchi o'qituvchilar tez orada mazkur masala bo'yicha aniq echimga keladi.

Shuningdek, masofaviy ta'limning elektron-modulli usulidan foydalanishda o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini kuzatishda ham murakkablik mavjud. Misol uchun, qaysi o'quvchining ma'naviyati shakllanayotganligi va qaysi o'quvchining axloqida kamchiliklar yuzaga kelayotganligini aniq kuzatish qiyin. Shu sababli mazkur muammo ham yaqin kelajakda nazariy-metodik jihatdan hal etilishi kerak.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'limning elektron-modulli usuli chuqur bilim berish va o'qitishning qulayligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur moduldan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va savodxonlik darajasini chuqurlashtirishda qo'l keladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitishning elektron-modulli usuli tezkorligi, bilimlarni keng berish xususiyatiga egaligi, o'qituvchi va o'quvchilarning teng faolligiga asoslanishi bilan diqqatni tortadi. Bizni bu borada ko'proq o'quvchilarning ishlashi juda qiziqtiradi. Shu sababli mazkur usuldan foydalanishning nazariy, amaliy va metodik asoslarini ishlab chiqish dolzo'arb bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini kuchaytirish vazifasi qo'yilgan³⁰. Chunki, integratsiya boshlang'ich ta'lim jarayonini, o'qitish vositalarini va tarbiya asoslarini uyg'unlikda amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalari ilm-fan, ishlab chiqarish va amaliyot birligi ta'minlaydi. Shu sababli hozirgi zamon boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini hal qilish dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekiston boshlang'ich ta'limida integratsiyalash masalalarining asoslari quyidagilardan iborat:

- o'quv dasturlari va ularning mavzulari yagona Milliy o'quv dasturi asosida o'zaro bog'liqlikda ishlab chiqish;
 - o'quv darsliklarini nazariy va amaliy, ijtimoiy va kompetensiya jihatdan uyg'unlashtirilgan tarzda yaratish;
 - boshlang'ich ta'limda amalga oshirishda tegishli institutlar, laboratoriyalar va ilmiy markazlarning imkoniyatlarida foydalanish;
 - yagona Milliy o'quv dasturi asosida tizimli va reystrli bog'liqligini ishlab chiqish;
 - boshlang'ich ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
 - boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy, o'quv va metodik hamkorligini yo'lga qo'yish;
 - o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini milliy va xorijiy tajribalar asosida uyg'un baholab borish.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini uyg'un shakllantirish;
- boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yil 7-noyabr soni.

- boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarini Prezident va ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga hamkorlikda tayyorlash;
- boshlang'ich ta'lim o'quv mashg'ulotlarini turli shakllar asosida tashkil etish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini xolis baholashni amalga oshirishda hamkorlik qilish.

Bu xususiyatlar boshlang'ich ta'limning samaradorligini integratsion jarayonlar asosida amalga oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalari quyidagi shakllarga ega:

- sinflararo yagona tizimlik;
- maktabdagi sinflararo yagona butunlik va individuallik;
- hududlararo boshlang'ich ta'lim muassasalarining birlashuvi;
- Respublika miqyosida boshlang'ich ta'limning yagona hamkorligi.

Mazkur integratsion shakllar boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishga amaliy turtki beradi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida eng asosiy masalalardan biri bolalarni zamon talablari asosida tarbiyalashdir. Shu sababli yangi "Tarbiya" fani ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. Mazkur fan vositasida tarbiya masalasida quyidagi integratsion jarayonlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilar tarbiyasida oila, jamoatchilik va mutaxassislar guruhlarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;
- tarbiyaviy jarayonning yagona tizimini shakllantirish;
- tarbiyalanganlik darajasini baholashning uyg'unlashgan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida nazariy va amaliy hamkorlikning uyg'unlashuviga erishish.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalari maktab jamoasi bosqichida hal qilinishi kutilgan samarani beradi. Shu sababli amalga kiritilayotgan yagona Milliy o'quv dasturining asosiy mohiyati ta'lim va tarbiya jarayonini integratsiya, ya'ni o'zaro birlikda tashkil qilish asoslari tashkil qiladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish lozim bo'ladi³¹.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini hal etish uchun nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslanish kerak. Bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va ularning tajribalaridan foydalanish taqozo etiladi³².

³¹ Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. T., 2021.

³² Karimjonov A., Ochilov F.I. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya muammolari. T., 2021.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini hal qilishda ta'lim, o'qitish va tarbiya jarayonlarining birligi e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayna mana shu boshlang'ich ta'limda integratsion jarayonlarni kutilgan darajada amalga oshirish imkonini beradi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ana shunday o'qitishning innovatsion pedagogik usullaridan biri klasterdir. Mazkur usuldan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish dolzarb bo'lib turibdi.

O'qitishning innovatsion pedagogik klaster usuli o'zaro aloqadorlik, hamkorlik va teng manfaatdorlik mexanizmlariga asoslanadi. SHu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda klaster usulining quyidagi mexanizmlari idrok etiladi:

1. *Fanlararo bog'liqlik.* Mazkur yondashuvga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonida mutaxassislik va tanlov fanlari o'quv reja, mavzu, matn va maqsad-vazifalar jihatidan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik fanlarning tarkibiy qismlari ketma-ketlikda va o'zaro uzviylikda, g'oyaviy-nazariy jihatdan bog'liqlikda ishlab chiqilishi kerak. Yangi pedagogik fanlardan bo'lgan "Bolalar pedagogikasi" va "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" fanlarining o'quv rejalari hamda dasturlarini ishlab chiqishda ana shu nazariy-metodik aloqadorlik va bog'liqlikka asosiy e'tibor qaratildi. Buning natijasida mazkur yangi fanlarning o'quv rejalari va dasturlari innovatsion xarakterga ega bo'ldi. Kelgusi vazifa ushbu fanlarning o'quv materiallarini o'qitishning innovatsion klaster usuli talablariga mos ravishda ishlab chiqishdan iborat.

2. *Fanlarni o'qitishda hamkorlik.* Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan mutaxassislik va tanlov fanlarini o'qitishda institut professor-o'qituvchilaridan tashqari sohaning tajribali mutaxassislari va ilmiy-pedagog xodimlarni jalb qilgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish kutilgan samarani beradi. Buning uchun institut professor-o'qituvchilari o'quv materiallarini tayyorlovchi va o'quv jarayonini boshqaruvchi vazifasini bajaradi, taklif etilgan tajribali mutaxassislar maslahatchi vazifasini ado etadi va ilmiy-pedagog olimlar esa o'quv jarayonida o'zlarining yangi o'quv materiallari bilan ishtirok etadi. Bu bilan o'qitishning klaster usuli vositasida har bir fan yoki mavzuni turli yondashuvlar asosida o'qitish imkoniyatigi ega bo'linadi.

Bu yondashuvda institut professor-o'qituvchilari o'quv materiallarini tayyorlash jarayonida o'quv ishlarini jamoa bo'lib amalga oshirish tamoyiliga asoslanishi kerak.

3. *Talabalarning faolligi.* O'qitishning klaster usulida talabalarning faolligi muhim o'rin tutadi. Buning uchun o'quv materiallarini tayyorlashda 40 foizi nazariy bilim berish va qolgan 60 foizi mustaqil ta'lim hamda amaliy mashg'ulotlar materiallari sifatida tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun talabalarning mustaqil ta'lim hamda amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini bajarishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Talaba har bir topshiriqni bajarish uchun taqdim etilgan o'quv materiallari bilan ishlaydi va bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi hamda maslahatchi vazifasini bajaradi. E'tibor berilsa, bu mexanizm talabalarning ta'lim olishi jarayonini faollashtiradi va, aksincha, faol bo'lmagan talaba fanni yoki mavzuni o'zlashtira olmaydi. Shu jihatdan o'qitishning klaster usuli talabalarni faollashtirishi bilan e'tiborni tortadi.

4. *O'quv materiallarini innovatsion usulda tayyorlash.* Bunda o'quv materiallarini elektron-modulli shakllarda tayyorlash va unda masofaviy ta'limning xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun tayyorlanayotgan o'quv materiallarining nisbatan ko'p qismini amaliy mashg'ulotlar topshiriqlari tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda elektron-modulli o'quv materiallarini yangilab borish, boyitish va o'zgartirish imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitiladigan o'quv fanlarining barchasini elektron-modulli variantlariga ham ega bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor har bir o'quv yilida majburiy va tanlov fanlarining o'quv materiallarini takomillashtirib borish kutilgan samarani beradi.

E'tibor berilsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning klaster usuli o'ziga xos imkoniyatlarni beradi. Shu sababli bu usuldan foydalanish uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish taqozo etiladi:

- o'quv jarayonini manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil qilish;
- o'quv jarayoniga imkon qadar turli tashkilotlar va tajribali mutaxassislarni jalb qilish;
- o'quv materiallarini tayyorlashda amaliyot talablarini hisobga olish;
- talabalarni nazariy va amaliy jihatdan uyg'un tayyorlash;
- o'quv jarayoniga ilmiy va amaliy ishlanmalarni keng joriy etib borish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda klaster usulidan foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'qitishning klaster usuli asoslari va mexanizmlarini yaxshi bilish;
- o'quv jarayoniga klaster usulini turli shakllarda joriy etish;
- o'quv materiallarini tayyorlashda o'qitishning klaster usuli talablari va xususiyatlarini hisobga olish;

- o'qitishning klaster usuli natijalarini nazorat qilib borish. Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda tezkorlik, samaradorlik va istiqbolli asoslarga egalik imkoniyatlarini beradi. Ayni paytda, o'qitishning klaster usuli texnologik imkoniyatlarga tayanishi bilan natijador hisoblanadi va undan noan'anaviy mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalanish juda qo'l keladi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-biluv faolligining oshishi samarali hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning klaster usuli keng imkoniyatlarga egaligi va amaliy faoliyatga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli bu borada nazariy, metodik va texnologik ishlanmalar, tavsiyalar hamda mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichida o'qitishning turli usullaridan foydalanish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'limning negizi bo'lgan boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda sifat va samaradorlikka olib keluvchi usullardan foydalanish, bunday usullarning metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Chunki har bir usul zamonaviyligi, qulayligi va osonligi bilan ta'limni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Bu borada boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanish va uning mexanizmlarini ishlab chiqish taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limning o'qitishning klaster usulidan foydalanish ilmiy, innovatsion va metodik tajribalarning uyg'unligiga tayanadi. Bunda nazariya, amliyot va istiqbolli yo'nalishlar birgalikda o'qitishning sifat va samaradorligag ijobiy ta'sir etishi bilan ahamiyatga ega bo'ladi. Shu jihatdan bu o'rinda boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlariga e'tiboringizni tortamiz.

Birinchi mexanizm-o'quv darsliklarini yangi variantini tayyorlash. Bunda boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlari quyidagi bloklar bo'yicha elektron-modulli usulda tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- gumanitar fanlar;
- tabiiy fanlar;
- aniq fanlar.

Mazkur turkumlarda tayyorlanadigan yangi avlod darsliklari mavzu, matn va vositalar jihatidan turkumli-umumiy xususiyatga ega bo'ladi. Misol uchun, "O'qish va ona tili" o'quv fani bilan "Tarbiya" o'quv fanining materiallari bir-birini to'ldiruvchi va uzviy xususiyatga ega tarzda tuzilishi kerak. Shu tariqa har bir blokda fanlar darsliklari o'zaro uyg'unlik tamoyili asosida tuziladi.

Ikkinchi mexanizm – o'quv darsliklarini tayyorlash. Bunda quyidagi mexanizmlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- fanlar bo'yicha ilmiy mutaxassislar imkoniyatlaridan foydalanish;
- taniqli va tajribali pedagoglarning imkoniyatlaridan foydalanish;
- amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning imkoniyatlaridan foydalanish.

Mazkur mexanizm har bir ishtirokchining vazifasi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Ilmiy xodimlar vazifalari:

- darsliklarning mavzularini ilmiy asoslash va ular uchun ilmiy faktlarni taqdim etish;
- darsliklarning ilmiy apparati va abrobatsiyasini amalga oshirish;
- darsliklarning ilmiy metodologiyasini rivojlantirib borish.

Tajribali pedagoglarning vazifalari:

- darsliklarning metodologik asoslarini ishlab chiqish;
- darsliklarning matnini yozish va joylashtirish;
- darsliklarning metodik jihatlarini nazorat qilib borish.

Amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning vazifalari:

- darsliklarni tajriba-sinov ishlaridan o'tkazish;
- darsliklarning sifati bo'yicha xulosalarni berish;
- darsliklarni takomillashtirishga dori amaliy takliflarni berib borish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limning yangi avlod darsliklarini klaster usulida tayyorlashning o'ziga xos mexanizmi ko'pchilikning o'zaro hamkorligi va tajribasi asosida yaratiladi. Shu sababli bunday darsliklar nazariy, metodik va texnologik jihatdan mukammal bo'ladi.

Uchinchi mexanizm – boshlang'ich ta'limni rivojlantirish. Bunda quyidagi mexanizmlarga asoslanish kutilgan samarna beradi:

- ilmiy tashkilotlar bilan boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi ilmiy-metodologik asoslarini rivojlantirib borish;
- pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari bilan boshlang'ich ta'limning muammolarini o'rganib borish, ularning echimlari bo'yicha nazariy-metodik ishlanmalar yaratish va amaliyotga joriy etish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan boshlang'ich ta'limning yutuqlari va kamchiliklarini monitoring qilib borish hamda bu borada istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

Mazkur mexanizm vositasida boshlang'ich ta'limni muddatli, istiqbolli va bosqichli rivojlantirib borish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning muxim mexanizmlari mavjud bo'lib, bugungi kunda mazkur mexanizmlardan foydalanishning asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli bu borada, bizningcha, quyidagilarni yo'lga qo'yish kutilgan samarani beradi:

- boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar mavzularini belgilash va ular bo'yicha izlanishlarni yo'lga qo'yish;

- boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga talabalarni hamda amaliy faoliyatdagi oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilarini keng jalb etish;

- TVCHDPIning "Maktab-laboratoriya" klaster usulini ommalashtirish va undan amaliy faoliyatda keng foydalanish;

- boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishga doir ilmiy ishlanmalar, o'quv adabiyotlari va texnologik jarayonlarni monitoring qilib borish.

Bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Klaster usuli boshlang'ich ta'limning sifatini kuchaytirish, o'quv fanlari darsliklarini takomillashtirish va boshlang'ich ta'limning amaliy natijalariga erishishda hamk4orlik tamoyiliga tayanishi bilan muhim ahamiyatga ega. SHu sababli mazkur usuldan foydalanishning mexanizmlarini ishlab chiqishda biz ilmiy xodimlar, tajribali pedagoglar va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy, amaliy va metodik hamkorligini yo'lga qo'yish kutilgan samarani beradi deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlari bo'yicha amaliy tajribalar endi shakllanmoqda. Shu sababli bu borada ilmiy va amaliy pedagogik tajriba sinov ishlarini o'tkazib borishdan cho'chimaslik lozim. Bunda faqat professor-o'qituvchilar, talabalar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligi, hamkorligi hamda aloqadorligini kuchaytirish taqozo etiladi. Asosiy maqsad boshlang'ich ta'limni ilmiy, metodologik va texnologik jihatdan rivojlantirishda klaster usulidan foydalanishdir. Shu sababli ta'limni tashkil etuvchilar, ta'lim oluvchilar va ta'limni amalga oshiruvchilarning manfaatlari klaster usulida teng ta'minlanadi.

Boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlarini ishlab chiqishda ilmiy kuzatishlar, individual tajribalar va amaliy natijalarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotchilikni yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'limda bugungi kunda yangilanish va maqbullashtirish jarayoni kechmoqda. Bu borada asosiy vazifalardan biri "O'zaro bog'liq fanlarni birlashtirish bilan o'quv fanlarini optimallashtirish va boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarini ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash"dan iborat³³. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun boshlang'ich ta'limga yangicha yondashish taqozo

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni. // [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

etiladi. Ana shunday yondashuvlardan biri boshlang'ich ta'limning innovatsion pedagogik klasteridir.

Bu o'rinda avvalo tushunchalarni anglab olish lozim. Lotincha "Klaster" atamasi ilgari, "tarmoqlar metodi" sifatida tushunilib, undan "fanlarning bog'liqligi vositasida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish"da foydalanilar edi. 2018-yildan boshlab klaster Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ta'limning yangi texnologiyasi sifatida qabul qilindi³⁴. Bunda amerikalik olim Marten Porterning klasterini "ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlovchi mexanizmlar majmui" sifatida asoslagani omillardan biri bo'ldi³⁵. Ayni paytda, klaster innovatsion pedagogik texnologiyadir, ya'ni ta'limni o'zaro bog'liqlik va hamkorlikning yangicha tizimli asosida tashkil etish demakdir.

Binobarin, bu yondashuvlar hisobga olinib, "boshlang'ich ta'limning innovatsion pedagogik "klasteri" degan mazkur ta'lim turini rang-barang asosda tashkil qilish nazarda tutiladi. Shu jihatdan, boshlang'ich ta'limning pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) o'quv fanlari mavzulari, mazmuni va ma'lumotlarini maqbullashtirish, yangilash hamda ularni belgilashda o'quvchilarning aqliy, ruhiy va jismoniy rivojiga nechog'lik ta'sir ko'rsatishiga asoslanishi;

2) o'quv fanlarini majmuilashtirish, misol uchun, 2020-2021- o'quv yilidan boshlang'ich ta'limga "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" o'quv fanlari o'rniga kiritilgan yangi "Tarbiya" fani buning namunasidir, xuddi shuningdek, kelgusida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar majmui sifatida maqbullashtiriladi;

3) o'quv fanlarini institutlar, ilmiy markazlar va laboratoriyalarning etakchi mutaxassislari bilan hamkorlikda o'qitish;

4) boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga erishish;

5) boshlang'ich ta'limni rivojlantirish uchun davlat va nodavlat tashkilotlar bilan amalga hamkorlik qilish;

6) boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafaqat umumiy o'rta ta'lim, balki ixtisoslashgan maktablarda o'qishga yo'naltirish;

7) etuk kasbiy bilim va innovatsion ta'lim vositalari (texnologiyalari) bilan qurollangan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash.

Bularni idrok etish tushunib olish boshlang'ich ta'limning pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amaliyotda to'g'ri qo'llash imkonini beradi.

³⁴ Muhamedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri. – Chirchiq. 2020.

³⁵ Портер М. Конкрунция. –Киев. "Вильямс". 2001.

Boshlang'ich ta'limning pedagogik ta'lim innovatsion klasteri quyidagi samaralarni beradi:

- a) o'quv fanlari mavzulari optimallasadi;
- b) o'quv fanlarini o'zaro bog'liqlikda va takrorsiz mavzular asosida o'qitish tarkib topadi;
- v) o'quvchilarni o'zlashtirishi tezlashadi va vaqt omilidan oqilona foydalanish yuzaga keladi;
- g) ta'lim oluvchilar va undan manfaatdorlarning amaliy hamkorligi shakllanadi;
- d) o'qituvchilarning ijodiy faoliyat yuritishi kuchayadi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik ta'lim innovatsion klaster tashkil etish uchun muayyan tayyorgarliklarni taqozo etadi. Buning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

- pedagogik ta'lim innovatsion klaster to'g'risida o'qituvchilarning tushunchaga ega bo'lishi;
- "boshlang'ich ta'limning pedagogik ta'lim innovatsion klasteri dasturi"ni ishlab chiqish va uni maktab pedagogik Kengashida tasdiqlatish;
- klasterlarni amalga oshirish guruhini tuzish;
- klaster natijalarini har chorakda monitoring qilib borish va maktab pedagogik Kengashiga taqdim etish.

Mazkur tayyorgarlik ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- boshlang'ich ta'limga pedagogik ta'lim innovatsion klasterini joriy etish;
- klaster vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish;
- hududlarda innovatsion pedagogik ta'lim klasteri shakllarini tarkib toptirish.

2018-2021- yillar davomida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida boshlang'ich ta'limning pedagogik ta'lim innovatsion klasterining milliy tajribasi tarkib topdi. Bu milliy tajribaning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- 1) pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muammolari ilmiy-nazariy, pedagogik va metodologik jihatdan tadqiq etilmoqda;
- 2) modul-kredit bo'yicha auditoriya soatlarini ko'paytirish. Ayniqsa, sirtqi bo'limlarda auditoriya soatlari juda qisqa berilgan. Bundan tashqari, o'quv rejada semestrda ajritilgan fanlar sonini ko'paytirish.
- 3) o'qishni ko'chirish bo'yicha har yili o'quv yili yakunida o'tkazishga ruxsat berilishiga erishish;
- 4) abituriyentlarni tanlagan ta'lim yo'nalishlariga qarab mutaxassislar tomonidan layoqatini aniqlash;
- 5) tanlov fanlariga maktabgacha ta'limda faoliyatni olib borish uchun kerakli fanlarni hamda maktabda 1-4- sinflarda o'tiladigan fanlarni kiritish, bu jarayonda bevosita darsliklar bilan ishlashni tashkil etish.

6) bitiruvchi bosqich talabalarining ilmiy faoliyatga qiziqishini oshirish maqsadida bitiruvchilar sonidan kelib chiqqan holatda 25% gacha bitiruv malakaviy ishiga jalb etish.

Bugungi kunda mazkur milliy tajribani optimallashtirish imkoniyati mavjud.

Boshlang'ich ta'limning pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yangi texnologiya sifatida muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida hozirgi zamon boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan zaruriy innovatsiyalar tizimi bayon qilib berildi. Bu o'rinda ana shu innovatsiyalar tizimining asosiy jihatlariga e'tiboringizni tortamiz. Eslatib o'tish joizki, biz **innovatsion tizim** deganda tajribadan o'tgan o'qitish vositalari va yangidan joriy etiladigan omillarni nazarda tutamiz.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich ta'limga oid quyidagi innovatsiyalar tizimi o'z ifodasini topdi:

- boshlang'ich ta'limga qo'yiladigan Davlat ta'lim standartlari va ta'lim talablarini yangidan ishlab chiqish;
- boshlang'ich ta'limni umumiy o'rta ta'limning negizi sifatida tashkil etish;
- boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim turlarini rivojlantirish;
- boshlang'ich ta'limda sinf o'quvchilari sonini optimallashtirib borish;
- nodavlat boshlang'ich ta'lim tizimini qat'iy rivojlantirish;
- oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kamida 3 yil bo'lgan muddatda tayyorlash.

Bularning barchasi O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimi uchun innovatsion xarakterga ega bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish ikki uslub asosida amalga oshiriladi:

- 1) boshlang'ich ta'lim jarayoniga milliy tajribaga tayanish;
- 2) boshlang'ich ta'limga oid xalqaro tajribalarni o'rganib borish.

Bu ikki asos Qonunda belgilangan innovatsiyalar tizimini amalga oshirish uchun tayanch hisoblanadi. Chunki, e'tibor berilsa, Qonunda boshlang'ich ta'limga oid mutlaqo yangicha yondashuvlar o'z aksini topgan. Jumladan, boshlang'ich ta'limga oid Davlat standartlari va Davlat talablari belgilangan. Bunda mazkur tushunchalarni farqlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Unga ko'ra, *Davlat ta'lim standartlari* bu – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui, *Davlat ta'lim talablari* esa bu – ta'lim tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga

qo'yiladigan majburiy talablardir. Shu jihatdan bugungi boshlang'ich ta'limning Davlat ta'lim talablari ishlab chiqilishi kerak. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- boshlang'ich ta'limning tuzilmasini aniq belgilash va uning umumta'lim tuzilmasidagi o'rnini aniqlashtirish;
- boshlang'ich ta'limning mazmunini aniq belgilab qo'yish va unda ta'limga qo'yiladigan mazmunlar bilan uyg'unlikni ta'minlash;
- boshlang'ich ta'limni amalga oshirish shart-sharoitlari talablarini belgilab qo'yish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kelgusida shakllantiriladigan kasbiy sifatlari ko'nikmasiga qo'yiladigan talabalarni ishlab chiqish.

Diqqat qilinsa, bu o'rinda boshlang'ich ta'limning bilim, ko'nikma, qobiliyat va mahoratlarini shakllantirish vazifalari Davlat ta'lim talabalari sifatida qo'yilmoqda. Boshlang'ich ta'limning mazmuniga qo'yiladigan talabalar esa Davlat ta'lim standartlari zimmasiga yuklanmoqda. Shu sababli Davlat ta'lim talabalari asosida boshlang'ich ta'limni isloh qilish, uni takomillashtirish va amaliy samaradorligini oshirishning mutlaqo yangi shakllarini topish ehtiyoji mavjud.

Ikkinchi muhim yondashuv O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida bayon etilgan. Mazkur nutqda boshlang'ich ta'limga nisbatan qo'yilayotgan innovatsiyalar tizimi quyidagilardan iborat:

- kelgusi yilda boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish ishlarini yakunlash, bunda quyidagilarga to'liq erishish;
- "Onlayn boshlang'ich ta'lim"ga o'tish;
- "raqamli va havfsiz boshlang'ich ta'lim" tizimini tashkil etish;
- "boshlang'ich ta'limning elektron darsliklari"ni yaratish;
- "elektron kundalik" tizimini joriy etish.

Bu innovatsiyalar boshlang'ich ta'lim uchun birmuncha murakkab hisoblanadi. Ayni paytda, zamonaviy texnologik rivojlanish jarayoni va pandemiya kabi kutilmagan voqealiklar boshlang'ich ta'limning zahiradagi innovatsiyalar tizimini yaratib qo'yishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan, "Onlayn boshlang'ich ta'lim" innovatsion tizimi nihoyatda murakkab bo'lib, uni ishlab chiqishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish, layoqatini rivojlantirish va axloqini shakllantirish masalalari hisobga olinishi kerak. Bunda ota-onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va bolaning ishonchli shaxslari onlayn tarzda amalga oshiriladigan boshlang'ich ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi. Shu sababli ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda boshlang'ich ta'lim ishtirokchilarining vakolatlari, huquqlari va majburiyatlarini belgilab qo'yish taqozo etilmoqda.

Boshlang'ich ta'limni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirishning hozircha maqbul texnologiyasi ishlab chiqilgan emas. Shu sababli bu borada kelgusida ilmiy-nazariy va amaliy-metodik tadqiqotlar ko'lamini yaratish taqozo etilmoqda. Biz bu o'rinda mavjud boshlang'ich ta'limni amalga oshirishga oid tajribalardan kelib chiqib, o'qitishning yangicha shakllari, uslublari va sharoitlarini yaratish mumkin, deb hisoblaymiz.

Bizning yondashuvimizga ko'ra boshlang'ich ta'limning uzviy qismi bo'lgan **tarbiya** jarayoniga ham innovatsiyalar tizimini joriy etish zarurat bo'lib turibdi. Bu borada 2020-2021- o'quv yilidan kiritilgan yangi "Tarbiya" fani asoslariga tayanish mumkin. Biroq, mazkur fanning asoslari, darsliklari va metodik qo'llanmalari ishlab chiqilayotgan sharoitda quyidagilarni innovatsiya sifatida ta'kidlab o'tish mumkin:

- boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun oila bilan yangi tartibda ishlash (misol uchun, pandemiya kabi shart-sharoitlar jarayonida ota-onalarning o'quvchilar tarbiyasi uchun faolligi hamda majburiyati belgilab qo'yilishi kerak);

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'quvchilar oilasida bo'lishi uchun sharoit yaratish (bunda o'qituvchilarning vaqtini aniq belgilash, ularning bu faoliyatini rag'batlantirish va unga nisbatan oila a'zolarining faolligini tarkib topdirish muhimdir);

- boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ularning layoqatini o'stirish, ularni yo'naltirish va axloqiy shakllantirish masalalariga asosiy e'tiborni qaratish.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirishning metodikasini maqbul darajada o'zgartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Prezidentimizning nutqida boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar bo'yicha quyidagi tanqidiy fikrlar bildirilib o'tildi:

- boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi murakkab;

- mazkur fanlarning nazariy bilimlari amaliyot bilan bog'lanmagan;
- o'quv dasturlarida uzviylik yo'q;
- darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz.

Bu fikrlar boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan aniq va tabiiy fanlarni o'qitish mazmuni, uslubiyoti va shakllarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsiyalar tizimini joriy etib borish tezkor va sifatli yondashishni taqozo etadi. Shu sababli Prezidentimiz tomonidan "Umumiy ta'limning milliy o'quv dasturi"ni ishlab chiqish taklif etildi. Mazkur milliy o'quv dasturida boshlang'ich ta'limga innovatsiyalar tizimini joriy etishning mazmuni, talablari, vositalari va shakllari o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda mazkur ikki muhim me'yoriy hujjatlarda boshlang'ich ta'limga oid muhim va maqbul innovatsiyalar tizimi taqdim etilgan. Ularni o'rganish va keyingi ilmiy-amaliy faoliyatda tatbiq etish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim metodikasida innovatsiya va integratsiya omili o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv boshlang'ich ta'lim metodikasini innovatsion va integratsion yondashuvlarga asosan takomillashtirish imkonini beradi.

2-modul: Boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy tajribalari

2.1. Oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida chet tillarini o'qitishning innovatsion yondashuvlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida professional pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi qo'yilgan³⁶. Shu jihatdan oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda chet tillarni o'qitishning muhim ahamiyati mavjud. Chunki bir yoki bir necha chet tillarni o'zlashtirgan boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilim doirasi keng, kasbiy kompetensiyasi chuqur va faoliyat asoslari amaliy yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi chet tillarni o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarga asoslanish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga chet tillarda o'qitishda innovatsion yondashuvlarning muhimligiga e'tiborimizni qaratamiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasida bo'lajak o'qituvchilarning bilimi, mahorati, ko'nikmasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi talablari belgilangan³⁷. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitishning innovatsion yondashuvini ishlab chiqishda Milliy malakalar ramkasida belgilangan quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

a) chet tillar (jumladan, ingliz tili) fani bo'yicha beriladigan bilimlar majmuining hajmi, murakkabligi, innovatsiyaviyligi, nazariy va amaliy xususiyatlarini aniq belgilab qo'yish;

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // www.ziynet.uz.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. // www.ziynet.uz.

b) chet tillar bo'yicha shakllantiriladigan mahorat va ko'nikmalarda variantlilik, aniq vazifaning belgilanishi, noaniqlikni bartaraf etish va ularning rivojlanib borishini nazarda tutish;

v) chet tillar bo'yicha rivojlantiriladigan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kompetensiyalarida rahbarlik ko'nikmasi, ijro intizomi hamda pedagogik faollik mahoratlarini tarkib topishiga asosiy e'tiborni qaratish;

g) chet tillar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy malakalarini xalqaro ta'lim dasturlarida belgilangan malaka talablariga mos ravishda tarkib toptirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasida chet tillar bo'yicha ko'nikma, malaka va mahoratning kutilgan darajada bo'lishi imkonini beradi. Shu sababli amaldagi chet tillar fani o'quv dasturlari va ularni o'qitish metodlari O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi asosida takomillashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda joriy etish masalasida xalqaro ta'lim dasturlari tavsiyalariga asoslanish kutilgan samarni berishini ta'kidlab o'tish joiz. Jumladan, biz bu borada STEAM xalqaro ta'lim dasturining³⁸ tavsiyalariga asosan chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir, deb hisoblaymiz. Chunki mazkur xalqaro ta'lim Dasturida quyidagilar tavsiya etilgan:

a) o'qitishda o'quv fanlari bo'yicha emas, mavzularga bog'liqlikka asoslanish;

b) o'qitish jarayonida hayotiy talablardan kelib chiqib ilmiy-texnik bilimlarga asoslanish;

v) ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash va muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllanishiga e'tibor berish;

g) ta'lim oluvchilarda o'ziga va bilimiga ishonchni tarkib toptirish;

d) ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash hamda o'quv faniga qiziqish munosabatida bo'lishini shakllantirish.

Bunday yondashuvlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion usullar, vositalar va texnologiyalarni samarali ishlab chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan STEAM xalqaro ta'lim dasturi tavsiyalari asosida chet tillarni o'qitish bo'yicha shakllantiriladigan innovatsion yondashuvlar

³⁸ STEAM программа международное образование. // www.google.uz

natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi to'rt kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishini ta'kidlab o'tish joiz:

- 1) kommunikativ ko'nikmaga ega bo'lish;
- 2) kasbiy hamkorlik mahoratiga ega bo'lish;
- 3) tanqidiy fikrlash;
- 4) kasbiy faoliyatda yangiliklar asosida faoliyat yuritish.

Aynan mana shu kasbiy kompetensiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining chet tillar bo'yicha ko'nikmalarni egallashida muhim asoslardan hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni ishlab chiqishda milliy hamda xalqaro ta'lim malaka talablarining uyg'unligiga tayanish taqozo etiladi. Bunda milliy malaka talablari mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va pedagogik imkoniyatlaridan kelib chiqishni, xalqaro ta'lim malaka talablari esa o'qitish jarayonida tezkorlik, texnik jihozlarga asoslangan texnologiyalarga asoslanishi hamda ta'lim oluvchilarning mahoratlarini samarali rivojlantirishga tayanishni taqozo etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitishning yangicha asoslarini ishlab chiqishda bu xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda mamlakatimiz ta'lim tizimida mavjud tajribalardan ham kelib chiqish kutilgan samarani beradi. Chunki bizning milliy ta'lim tizimimizda ham chet tillarni o'qitish bo'yicha o'ziga xos individual va maqbul tajribalarning mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Buning uchun bunday tajribalar chuqur o'rganilishi, ulardan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilishi va ularning ilmiy, amaliy hamda pedagogik targ'ibotlari amalga oshirilishi lozim. Bu ish ayniqsa, mahalliy sharoitda professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, chet tillarni o'qitish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganib borish maqbul. Lekin ulardan foydalanish uchun milliy malaka talablariga asoslanish eng muhim vazifalardan bo'lib turibdi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda chet tillarni o'qitish tezkor, qulay va samarali tizimlarga asoslanishi maqsadga muvofiq. Buning uchun soha bo'yicha amaliy tajribaga ega o'qituvchilarni yanada kasbiy faollashtirish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish to'g'risida"gi Qarorida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga xorijiy tillarni o'qitish va ularning dastlabki nutqiy malakasini shakllantirish

vazifasi qo'yilgan. Mazkur vazifa doirasida yangi metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar va o'quv materiallari ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'limda Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy ish tillari bo'lgan ingliz, rus, fransuz, ispan va arab tillarini o'qitish, mazkur xalqaro tillar guruhi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tillarni o'rganish ko'nikmasini hozirgi zamon talablari asosida shakllantirish vazifasi turibdi. SHu sababli 2020-2021- o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishning yangi o'quv dasturi, o'quv materiallari va lug'atlar amalga kiritildi. Mazkur yangi o'quv matirallari davlat talablari darajasida tayyorlangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik xususiyatlari hisobga olingan. Ayni paytda, yaratilayotgan yangi o'quv materiallarini va xorijiy tillarni o'qitish jarayonini tizimlashtirish muammosi mavjud. Chunki tizim xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda o'qitishning o'ziga xos shakllarini ishlab chiqish va unda o'quvchi shaxsining imkoniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Shu sababli bu o'rinda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishga doir yangicha yondashuvlar tizimi masalasiga e'tiboringizni tortamiz.

1. *Klaster tizimi.* Bu tizim xorijiy tillarni boshlang'ich sinfda quyidagilar asosida o'qitishni nazarda tutadi:

- xorijiy tillar o'quv materiallarining o'zaro ichki bog'liqligi va ularning boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bilan aloqadorligi;

- xorijiy tillarni o'qitishda mutaxassis o'qituvchilar guruhining ishtirok etishi va ularning yagona didaktik vositalarga asoslanishi;

- xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda "Maktab-laboratoriya" maydonchalari vositasida o'qitish;

- xorijiy tillarni o'qitishning aniq va maqbul shakllarini amaliyotga tatbiq etib borish.

Bu tizim o'zaro guruhlararo bog'liqlikda xorijiy tillarni amaliy jihatdan o'qitishga yo'naltirilgan bo'lib, u asosiy xorijiy til o'qituvchisi tomonidan boshqariladi va muvofiqlashtiriladi. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining xorijiy tillarni o'zlashtirish ko'nikmasi qat'iy talablar asosida emas, balki ijodiy fikrlash vositalari asosida shakllantiriladi. Mazkur tizimda o'quvchi, o'qituvchi va mutaxassislar guruhlarini teng hamda faol ishtirok etadi. Toshkent viloyati Chirchi qdavlat pedagogika institutida klaster tizimining ilmiy-metodologik asoslari tajriba-sinovdan o'tkazilgan, mazkur tajribadan boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishda oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. *Virtual tizim.* Bu tizim kompyuter, modul aloqa vositalariga asoslangan bo'lib, unga o'qituvchi tomonidan xorijiy tillarni o'qitish dasturi asosida o'quv materiallari kiritiladi. Bu materiallar oddiydan murakkab tomon

tamoyili asosida joylashtiriladi. Virtual tizim murakkab sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni kutilgan darajada o'qitish imkonini beradi.

Virtual tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki, 6-11 yoshli o'quvchilar kompyuter vositasida o'qitilayotgan mashg'ulotlar jarayoniga qiziqish bilan yondashadi. Shuningdek, dars jarayonini turli animatsion vositalar, multimediali topshiriqlar va tasvirli xarakatlar yordamida olib borish imkonini beradi. Bu tizimda kompyuter asosiy o'qitish vositasi bo'lganligi uchun mashg'ulotlar va dars jarayoni o'quvchilar uchun qiziqarli o'tadi. Ayni paytda, virtual tizimning yagona kamchiligi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniq baholab bo'lmazligidir. Misol uchun, o'quvchilar berilgan lug'atlarni yodlab olishi mumkin va uni kompyuter vositasida ovozli tarzda o'qituvchiga uzatadi, biroq, o'quvchilar ularni gap tuzishda ishlata olish darajasi mavhumligicha qoladi. Chunki o'quvchi virtual tizimda muloqotga kirishayotganida katta yoshlilarning yordamidan ham foydalanishi extimoli bor. Shuningdek, virtual tizimning imkoniyatlaridan vaqti-vaqti bilan xorijiy tillarni o'qitishda foydalanish kutilgan samarani beradi.

3. *Masofaviy ta'lim tizimi.* Mazkur tizim masofali ta'lim texnologiyasiga asoslangan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni oilada turib o'qitish imkoniyati mavjud va bunda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkonini beradi;

- o'quv materiallarini yangilab borish, to'ldirish va lug'atlar qatlamini boyitish imkoniyatlari mavjud;

- bu tizim o'quvchilar vaqtini aniq belgilash va nazorat qilish imkonini beradi;

- o'qituvchining vaqt omilidan oqilona foydalanishi va til o'rgatishning muloqot shakliga ustuvor darajada amal qilishiga sharoit beradi;

- mazkur tizim masofaviy ta'lim texnologiyasining o'ziga xos shaklidir.

Xorijiy tillarni o'qitishning masofaviy ta'lim tizimi o'quvchilar bilan individual va amaliy mashg'ulotlarni xoxlagan muddatlarda o'tkazish imkoniyatlariga ega. Shuningdek, mazkur tizim o'quvchilarning nutqiy faoliyatini umummuloqot vositalari asosida shakllantirish sharoitlariga ega. Tizim ham virtual tizim singari murakkab sharoitlarda dars va mashg'ulotlarni kutilgan darajada o'tkazish imkonini beradi.

Zero, hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida xorijiy tillarni o'qitishning nisbatan yangi tizimlarini amaliyotga joriy etib borish zaruriyat bo'lib turibdi. Ko'rsatib o'tilgan tizimlar boshlang'ich ta'limga bir emas, bir necha xorijiy tillarni o'qitish imkoniyatini beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda quyidagilarga ahamiyat berish dolzarb bo'lib turibdi:

- bir necha xorijiy tillar bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qurollantirish;

- xorijiy tillarni o'qitishdagi amaliy shakllarini yangi nazariy tushunchalar va bilimlar bilan boyitish asoslariga ko'niktirish;

- xorijiy tillarni o'qitishning yangicha tizimlari, metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish;

- bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kompetensiyasini kutilgan darajada shakllantirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli hozirgi kunda mazkur masalaning amaliy xususiyatlariga ustuvor darajada ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda, o'quvchilar xorijiy tillarni ongli ravishda o'zlashtirishi, ya'ni o'rganilayotgan tilning tabiati va grammatik xususiyatlaridan xabardor bo'lishi kerak. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining xorijiy tillarda yozish malakasini shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Bularning barchasi tanlangan tizim asosida amalga oshiriladi. E'tibor berilsa, tizim xorijiy tillarni o'rganish, lug'at boyligiga ega bo'lish va o'rganilayotgan tilning tabiatidan xabardorlik jarayonlarini yagonalashtiradi, yo'naltiradi hamda uning natijalarini kuzatib boradi.

Boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish tizimi bo'yicha ilmiy ishlanmalar etarli emas. Shu sababli bunda quyidagilarga ahamiyat berish samarali bo'ladi:

- xorijiy tillarni o'qitish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilarning faoliyatini ommalashtirish va ularning tajribasini kitoblar shaklida tizimlashtirish;

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ilmiy ish olib borish layoqati va ko'nikmalarini shakllantirish;

- xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda o'qitishga doir xorij tajribalarini o'rganish;

- eng tajribali o'qituvchilarning faoliyatini tajriba-sinov maydonlari uchun taqdim etish.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga tizimli yondashishni kuchaytirish zaruriyat bo'lib turibdi. Buning uchun nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishning klaster, virtual va masofaviy ta'lim tizimlari pedagogik tajribalardan o'tgan bo'lib, ularning natijalari adabiyotlarda tahlil etilgan. Shu sababli biz mazkur uch tizimdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning tizimli yondashuvlari muammolari izchil o'rganilib borilishi, ularning echimlari topilishi va ommalashtirilishi bu jarayondagi pedagogik amaliyotning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Globallashuv sharoitida O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimi hozirgi zamon talablariga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning dolzarbligi yuqori darajada bo'lib, bu borada boshlang'ich ta'lim tizimimiz eng ilg'or pedagogik tajribalarga tayanayotganligini eslatib o'tish joiz³⁹.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- 7-11 yoshli o'quvchilarning ongini milliy ruhda shakllantirish;
- bir necha tillarni o'rgatish bilan o'quvchilarning ijtimoiylashuvini kuchaytirish;
- boshlang'ich sinf bitiruvchilarining ikki yoki uch tilni bilishi ko'nimalari bilan qurollantirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z ona tilidan tashqari boshqa tillar vositasida ham axborot olishga o'rgatish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning ahamiyatini belgilaydi. Jadid ma'rifatparvar pedagogi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) boshlang'ich sinflarda bir emas, to'rt til o'qitilishini orzu qilgan edi⁴⁰. Ma'rifatparvar pedagogimizning bu orzusi yuz yil o'tib bugungi kunda amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari mavjud.

1. Pedagogik imkoniyatlar. Mazkur imkoniyatlarga ko'ra, quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilari til o'rganishga juda qiziqishadi;
- til bo'yicha o'rgatilayotganlarni o'quvchilar tez o'zlashtiradi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutq ko'nikmasi shakllanish jarayonida bo'lganligi uchun ularda tillarga xos bo'lgan talaffuzni tez o'zlashtirish mavjud;
- hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida til o'rgatish bo'yicha juda qulay va zamonaviy o'quv materiallari ishlab chiqilgan.

Bu pedagogik imkoniyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning asosini belgilaydi.

2. Psixologik imkoniyatlar. Bu imkoniyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiyati va ongi shakllanish jarayonida bo'ladi;

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // www.ziynet.uz

⁴⁰ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1997, -B. 164-170

- mazkur toifa o'quvchilarda nutqning tovush va akustika apparati rivojlanish jarayonida bo'ladi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p so'zlashni xohlashadi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash jarayoni shakllana boshlaydi.

Bu psixologik imkoniyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni kutilgan darajada amalga oshirish uchun tayanch hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishda zamonaviy o'quv adabiyotlari va amaliy suhbat jarayoni muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Ingliz tili o'quv fani bo'yicha ishlab chiqilgan lug'at tizimi juda zamonaviy hisoblanadi. Bu lug'atda so'zlar ma'nolari o'zbek tili, rus tili va ingliz tilida berilgan bo'lib, har bir so'zlikka rangli rasmlar ilova qilingan. Misol uchun, hayvonlar to'g'risidagi lug'atda aynan ana shunday texnologiyaga asoslangan. Shu sababli bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish bo'yicha o'quv materiallari ana shunday zamonaviy texnologiyalarga asosan tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning maktab vositasi shunday imkoniyatga egaki, unda ilmiy, pedagogik va psixologik talablar asosida o'rgatiladi. Negaki, mamlakatimiz sharoitida maktab yoshidagi bolalarning o'z ona tilidan tashqari tojik yoki qozoq tillarida so'zlashish imkoniyatlari mavjud. Lekin bu so'zlashuv oilada o'rganilgan va unda ilmiy-pedagogik talablarga rioya qilinmagan. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinflarda til o'rgatish ona tili vositasida amalga oshirilishi shart. Shunda o'quvchilarning ruhiyati, ongi va fikrlashida milliylik ustuvor darajada shakllanadi.

Zero, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarga til o'rgatishning qulay imkoniyatlari mavjud. Bunda o'qituvchilarning etarli ekanligi muhim ko'rsatkichdir. Ayni paytda boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish milliy ruh asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada boshlang'ich ta'lim pedagogikasining o'ziga xos tajribalari mavjudligini eslatib o'tish joiz⁴¹.

Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, milliy pedagogikamizda 11-12 yoshgacha bo'lgan bolalarga til o'rgatishning o'ziga xos tajribasi mavjud. Misol uchun, VIII-XIX asrlar davomida yurtimizda 12 yoshgacha bo'lgan bolalarga ona tilimizdan tashqari arab, foris, hind va rus tillari o'qitilgani ma'lum. Buning natijasida balog'at yoshidagi bolalar bir necha tillarni bilishi bilan farqlanib turar edi. Milliy pedagogikamizning mazkur tajribasidan bugungi kunda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tajribaga quyidagi xususiyatlar xos:

- bolaning o'zga tildagi yozma va og'zaki nutqini shakllantirish;

⁴¹ Mavlonova R. ba boshq. Pedagogika tarixi. –Toshkent, 2018. –B.126-127

- bolaning o'z ona tilisidan tashqari xorijiy tillarda o'qish va yozish savodxonligini tarkib toptirish;

- til o'rgatishda suhbat metodidan oqilona foydalanish;

- til o'rgatishda ko'proq bolalarning so'z boyligini oshirib borish;

- har bir bola bilan imkon qadar individual shug'ullanish.

E'tibor berilsa, mazkur milliy tajribamiz bugungi kunda ham muhim o'rin tutadi. Negaki, ko'proq tilni bilish hozirgi zamon globallashuv va axborot rivojlanishining talablaridan biridir.

Ayni paytda, bizning yondashuvimizga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish jarayonida quyidagilarga qat'iy amal qilish kerak:

- pedagogik qonuniyatlarga tayanish;

- psixologik qonuniyatlarga asoslanish;

- eng oson, qulay va amaliy metodlarni qo'llash;

- faol o'qituvchilarning til o'rgatish bo'yicha individual tajribalarini ommalashtirish.

Globalashuv sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning imkoniyatlari kengayib boradi. Misol uchun, bu borada axborot kommunikatsion texnologiyalarning imkoniyatlari til o'rgatishni yanada qulaylashtiradi. Ayni paytda, bu texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, ruhiy, aqliy va jismoniy xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida til o'rgatishning o'ziga xos tajribasi shakllana boshladi. Bu tajribalarni umumlashtirish, ilmiy-pedagogik tahlil qilish va amaliyotda qo'llash tizimini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Buning uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatuvchi pedagoglarning O'qituvchi kitobini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kitobda o'qituvchiga nisbatan qo'yiladigan pedagogik, psixologik va texnologik talablar, yo'nalishlar hamda ko'rsatmalar o'z ifodasini topishi kerak. Chunki, boshlang'ich ta'limda faoliyat olib borayotgan til o'qituvchilarining ko'pchiligi har xil kasbiy kompetensiyaga ega.

Shunday qilib, mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishning tarixiy, tajribaviy va zamonaviy imkoniyatlari mavjudligini eslatib o'tiz joiz. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish 7-11 yoshli o'quvchilarimizning bir necha tilni bilishi samarasiga olib keladi. Shu jihatdan quyidagilar taklif etiladi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflar uchun til o'qituvchilarini tayyorlashni kuchaytirish;

- til o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash ko'nikmasi va malakasini takomillashtirib borish;

- malaka oshirish tizimi vositasida til o'rgatuvchi o'qituvchilarning amaliy hamkorligini yo'lga qo'yish;

- til o'qituvchilarining zamonaviy va takomillashib boruvchi texnologiyalar bilan muntazam qurollantirib borish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish imkoniyatlarini maqsadli kengaytiradi. Asosiy maqsad 7-11 yoshli o'quvchilarning ona tilisidan tashqari bir necha xorijiy tillarni bilishiga erishishdir.

Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishda doir o'ziga xos tajribalar mavjud⁴². Jumladan, boshlang'ich sinflarda Ingliz tilini o'qitishning o'zbek milliy tajribalari va metodikasi shakllanganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning klaster usuli shakllana boshlanganligi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'qitishning innovatsion klaster usuli fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uyg'unligiga asoslanadi⁴³. Bunda boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish bo'yicha klaster usuliga asoslanishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ingliz tili mashg'ulotlarida ko'proq o'quvchilarning amaliy faolligiga asoslanish va ularning so'zlash ko'nikmasini shakllantirib borish;
- boshlang'ich sinflarda ingliz tili mashg'ulotlarini o'tkazishda multimediyali va animatsion vositalarga ko'proq tayanish;
- mazkur mashg'ulotlarni o'tkazishda tajribali o'qituvchilarning yordamlaridan foydalanish;
- imkon qadar har bir mavzular bo'yicha qo'shimcha o'quv materiallari taqdim qilib borish;
- mashg'ulotlarda so'zlash, nutq va grammatik savodxonlikning uyg'un shakllanishiga e'tibor berish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda klaster usulining keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Aslida o'qitishning klaster usulida asosiy e'tibor amaliyotga qaratiladi, bunda nazariy tushunchalarni yozma taqdim qilish bilan cheklanish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda darslikdagi o'quv materiallaridan erkin foydalanish, ularni tahlil qilish vositasida o'zlashtirish va o'quvchilarning faolligiga e'tibor berish klaster usulidan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda klaster usulidan foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- har bir mavzu bo'yicha klaster usuli asosida ishlanmalar yaratish;
- ingliz tili o'qituvchilari uchun O'qituvchi kitoblari imkoniyatlaridan keng

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.// www.ziynet.uz

⁴³ Po'latova D. T. Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash. –Toshkent, 2018.

foydalanish;

- mashg'ulotlarni o'tishda murakkab sharoitlarda elektron-modulli tizimdan foydalanish;

- o'quvchilarning nutqiy, yozuv va fikrlash faolligiga ustuvor darajada tayanish;

- ko'proq ijtimoiy, tarbiyaviy va texnik atamalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tibor berish.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda klaster usulidan foydalanishning xususiyati shundaki, unda o'quvchilar erkin faoliyat ko'rsatadi, dars jarayoni qo'shimcha materiallar asosida amalga oshiriladi va mutaxassislarning yordamidan keng foydalanish mumkin bo'ladi. Shuningdek, bu usulning yana bir imkoniyatida ta'lim oluvchilarning hoxishi, istagi va ruhiy darajalariga mos o'quv materiallarining tanlanishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim jarayonida o'qitishning klaster usulidan foydalanish tajribasi tarkib topdi. Mazkur tajribadan boshlang'ich ta'limda foydalanish asoslarini ishlab chiqish zarurat bo'lib turibdi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda klaster usulidan foydalanishning tizimi, metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya Federatsiyasida o'ziga xos tajribalar mavjudligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda klaster usulidan foydalanishning asoslari endi yaratila boshlandi. Bu borada ilmiy, nazariy va amaliy ishlanmalar yaratish, ularni amaliyotda joriy etish va ingliz tili o'qituvchilarining klaster usulidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi. Ingliz tili o'qituvchilari bugungi kunga qadar bir necha yangi o'qitish usullaridan foydalanib kelmoqda. Shu ma'noda o'qitishning klaster usuli yangiligi bilan e'tiborni tortadi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida o'quv fanlarini o'qitishning yangi usullarini joriy qilib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Shu jihatdan klaster usulidan foydalanishning quyidagi jihatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- darslarni kreativ usullarda va o'quvchilarning ijodiy yondashuvi vositasida tashkil etish;

- dars mashg'ulotlarining mavzularini o'quvchilarning qiziqishiga qarab kengaytirib borish;

- o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashiga ko'ra o'quv materiallari bilan ta'minlash;

- o'qitishning klaster usuli bo'yicha tajribalarni boshlang'ich sinf ingliz tili darsi xususiyatlariga moslashtirib tatbiq etish;

- o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi va amaliy faoliyatda o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha bilimdonligini oshirishga yo'naltirish.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda klaster usulida foydalanish jarayonini monitoring qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- klaster usulidan foydalanishning metodik asoslariga qat'iy e'tibor berish;
- klaster usulining imkoniyatlaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlariga mos ravishda foydalanish;
- ingliz tilini o'rgatishda klaster usulining amaliy asoslarga egaligiga e'tibor berish;
- o'qituvchining klaster usuli bo'lishi individual metodga ega bo'lishiga erishish.

Buning uchun amaliy faoliyatdagi inglaz tili o'qituvchilari uchun o'qitishning klaster usuli bo'yicha o'quvlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qitishning klaster usuli bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish kutilgan samarani beradi.

Umuman boshlang'ich sinflarda ingliz tilin o'qitishning klaster usulidan foydalanishning asosiy maqsadi darsning sifat va samaradorligiga erishish, o'quvchilarning o'zlashtirishini kuchaytirish hamda ularning nutqiy savodxonligini kuchaytirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida professional pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi qo'yilgan⁴⁴. Shu jihatdan oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda chet tillarni o'qitishning muhim ahamiyati mavjud. Chunki bir yoki bir necha chet tillarni o'zlashtirgan boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilim doirasi keng, kasbiy kompetensiyasi chuqur va faoliyat asoslari amaliy yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi chet tillarni o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarga asoslanish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga chet tillarda o'qitishda innovatsion yondashuvlarning muhimligiga e'tiborimizni qaratamiz:

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasida bo'lajak o'qituvchilarning bilimi, mahorati, ko'nikmasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi talablari belgilangan⁴⁵. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. // www. ziynet.uz.

o'qitishning innovatsion yondashuvini ishlab chiqishda Milliy malakalar ramkasida belgilangan quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

a) chet tillar (jumladan, ingliz tili) fani bo'yicha beriladigan bilimlar majmuining hajmi, murakkabligi, innovatsiyaviyligi, nazariy va amaliy xususiyatlarini aniq belgilab qo'yish;

b) chet tillar bo'yicha shakllantiriladigan mahorat va ko'nikmalarda variantlilik, aniq vazifaning belgilanishi, noaniqlikni bartaraf etish va ularning rivojlanib borishini nazarda tutish;

v) chet tillar bo'yicha rivojlantiriladigan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kompetensiyalarida rahbarlik ko'nikmasi, ijro intizomi hamda pedagogik faollik mahoratlarini tarkib topishiga asosiy e'tiborni qaratish;

g) chet tillar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy malakalarini xalqaro ta'lim dasturlarida belgilangan malaka talablariga mos ravishda tarkib toptirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim bo'yicha tayyorlanadigan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasida chet tillar bo'yicha ko'nikma, malaka va mahoratning kutilgan darajada bo'lishi imkonini beradi. Shu sababli amaldagi chet tillar fani o'quv dasturlari va ularni o'qitish metodlari O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi asosida takomillashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda joriy etish masalasida xalqaro ta'lim dasturlari tavsiyalariga asoslanish kutilgan samarni berishini ta'kidlab o'tish joiz. Jumladan, biz bu borada STEAM xalqaro ta'lim dasturining⁴⁶ tavsiyalariga asosan chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir, deb hisoblaymiz. Chunki mazkur xalqaro ta'lim Dasturida quyidagilar tavsiya etilgan:

a) o'qitishda o'quv fanlari bo'yicha emas, mavzularga asoslanish;

b) o'qitish jarayonida hayotiy talablardan kelib chiqib ilmiy-texnik bilimlarga asoslanish;

v) ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash va muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllanishiga e'tibor berish;

g) ta'lim oluvchilarda o'ziga va bilimiga ishonchni tarkib toptirish;

d) ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash hamda o'quv faniga qiziqish munosabatida bo'lishini shakllantirish.

Bunday yondashuvlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion usullar, vositalar va texnologiyalarni samarali ishlab chiqish

⁴⁶ STEAM образование. // www.google.uz

imkonini beradi. Shu jihatdan STEAM xalqaro ta'lim dasturi tavsiyalari asosida chet tillarni o'qitish bo'yicha shakllantiriladigan innovatsion yondashuvlar natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi to'rt kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishini ta'kidlab o'tish joiz:

- 5) kommunikativ ko'nikmaga ega bo'lish;
- 6) kasbiy hamkorlik mahoratiga ega bo'lish;
- 7) tanqidiy fikrlash;
- 8) kasbiy faoliyatda yangiliklar asosida faoliyat yuritish.

Aynan mana shu kasbiy kompetensiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining chet tillar bo'yicha ko'nikmalarni egallashida muhim asoslardan hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida Chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni ishlab chiqishda milliy hamda xalqaro ta'lim malaka talablarining uyg'unligiga tayanish taqozo etiladi. Bunda milliy malaka talablari mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va pedagogik imkoniyatlaridan kelib chiqishni, xalqaro ta'lim malaka talablari esa o'qitish jarayonida tezkorlik, texnik jihozlarga asoslangan texnologiyalarga asoslanishi hamda ta'lim oluvchilarning mahoratlarini samarali rivojlantirishga tayanishni taqozo etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitishning yangicha asoslarini ishlab chiqishda bu xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, oliy pedagogik ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda mamlakatimiz ta'lim tizimida mavjud tajribalardan ham kelib chiqish kutilgan samarani beradi. Chunki bizning milliy ta'lim tizimimizda ham chet tillarni o'qitish bo'yicha o'ziga xos individual va maqbul tajribalarning mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Buning uchun bunday tajribalar chuqur o'rganilishi, ulardan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilishi va ularning ilmiy, amaliy hamda pedagogik targ'ibotlari amalga oshirilishi lozim. Bu ish ayniqsa, mahalliy sharoitda professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, chet tillarni o'qitish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganib borish maqbul. Lekin ulardan foydalanish uchun milliy malaka talablariga asoslanish eng muhim vazifalardan bo'lib turibdi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda chet tillarni o'qitish tezkor, qulay va samarali tizimlarga asoslanishi maqsadga muvofiq. Buning uchun soha bo'yicha amaliy tajribaga ega o'qituvchilarni yanada kasbiy faollashtirish muhimdir.

Shunday qilib, oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida chet tillarini o'qitishning innovatsion yondashuvlariga asoslanish boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi

nazariy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy e‘tibor bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining chet tillarni, jumladan, ingliz tilini chuqur o‘rganishiga va uning maqbul metodikasiga ega bo‘lishga qaratilishi taqozo etiladi.

2.2. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasining xorijiy tajribalari: Komenskiy, Ushinskiy va Montessori metodologiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta‘lim tizimiga, jumladan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichiga xorijiy mamlakatlarning o‘ziga xos tajribalarini tatbiq etish vazifasi qo‘yilgan⁴⁷. Mazkur vazifalarning ijrosini ta‘minlash doirasida biz Amerika, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Rossiyaning boshlang‘ich ta‘lim metodikasi bo‘yicha tajribalariga doir maqolalar nashr etishni niyat qildik.

Bashariyat moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish, tabiat, jamiyat va inson tafakkurida amal qiladigan qonuniyatlarni bilish, moddiy hamda ma‘naviy olam haqidagi bilimlarni jamiyatga, hayotga va tabiatga bog‘lab o‘rgatish yo‘li bilan rivojlanadi. Bu jarayonlarga etarli ahamiyat bermaslik, ularning birontasini e‘tibordan chetda qoldirish jamiyatni inqirozga olib keladi.

Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy didaktik ta‘limotning poydevorini qurgan, uning keyingi rivojlanish yo‘llarini ko‘rsatib bergan, o‘zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o‘qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag‘ishlagan ulug‘ pedagogdir. Komenskiy 16 yoshida «Chex ta‘lim qardoshlari» jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o‘qishga kiradi, bu erda u tarbiya tizimining yomonligini, o‘quv metodlarining yaramasligini ko‘radi va tushunadi. «Men o‘sha vaqtdayoq tarbiya masalasida mamlakatimni orqada ekanligini ko‘rdim. Men o‘sha davrdayoq fan va tarbiya hammaga tegishli bo‘lishi kerakligini o‘yladim», — degan edi Komenskiy.

U o‘zining qariyb 80 yillik umri davomida pedagogika, ta‘lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratdi. Bulardan yiriklari: «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» (1631), «Buyuk didaktika» (1632), «Onalar maktabi» (1632), «Pansofiya (o‘qituvchilar) maktabi» (1651), «Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari» (1653), «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» (1658) nomli asar va darsliklari mashxur. Shuningdek, logika, fizika, lotin tili, grek tili bo‘yicha kitoblar yozadi.

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.ziyounet.uz

Komenskiy «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash va ularni hayoti haqida hammaga taluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar yozdi (U hayoti davomida mazkur kitobning 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa 1935-yilda topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarida «Hammani va hamma narsada har tomonlama tarbiyalash»ning insonparvarlik va erkinlik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloh qilish rejasini ilgari surdi. U, shuningdek, Shvetsiyadagi faoliyati davrida lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini tuzadi.

«Buyuk didaktika» asarida «pan sofiya goyasini» (*pan* gerkcha — butun, hamma, *sofiya* — donolik, aqllilik) hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish» asoslab berdi. Pansofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi. Maktab — bu muassasa, u erda «Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak» degan fikr ko'p marta takrorlanishini ta'kidlaydi.

Komenskiyning qarashlarida uch xususiyat ta'sirini ko'ramiz.

1. Natur (tabiyot) falsafasi. XVI-XVII asrlarda ingliz faylasufi — materialist Bekon sensualistik falsafa nazariyasini ilgari suradi. Komenskiy o'qitish jarayoniga shu pozitsiyadan qaraydi. Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish bo'lmagan yerda bilish ham yo'q, deydi u.

2. Chex ta'lim qardoshlari jamoasi diniy jamoa bo'lganligi uchun Komenskiy ham dindor ruhoniidir. Lekin Komenskiyning ruhoniyligi turmushga amaliy qarash bilan bog'liq edi.

3. Komenskiy qarashining ba'zi jihatlari Uyg'onish davri ta'sirida vujudga keladi. Odamlarga nisbatan muhabbat, xushchaqchaqlik, odamlarning yaxshilik yaratishiga ishonch bilan qarash, bularning hammasi o'rta asr odamiga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashga qarama-qarshidir.

Komenskiy tashqi obyektiv dunyoning hukm surishiga ishonadi. Dunyo bir butun. Dunyoda hamma narsa bir-biri bilan bog'liq. Ajralib qolgan narsa yo'q. Dunyo qarama-qarshiliklardan iborat. Dunyo qotib qolgan emas. U o'sishda, o'sish esa o'z qonuniyatiga ega. Qonuniyat borliqqa, ya'ni Xudoga tegishli, deydi. Bu qarashning ma'nosi shuki, shaxs tarbiyasida borliq va olam to'g'risida to'g'ri tushunchalar berish, odam haqida aniq bilimlar berish ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasini tashkil etadi. Bunda allomaning didaktik ta'limoti g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika»da o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak, deydi. Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi. Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik prinsipida kishini

tabiatning bir bo'lagi deb qarashi (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi, deyishi o'z davrida ilg'or sanaladi. Lekin kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi.

Komenskiy, tarbiyachi boladagi iste'dodni o'stirishi kerak. Agar bola pedagogik ta'sirsiz yashasa, bu iste'dod tasodifan o'sadi. Kishi dunyoga kelganda kishiga xos iste'dodga ega bo'ladi. Faqatgina ba'zida ko'proq, ba'zida kamroq bo'ladi.

Komenskiy tarbiyaning hayotga, jamiyatga va tabiatga bog'lab hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; yer, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, kuz, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlilik, yetuklik. Shuningdek, ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini manguqlik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning dunyoga kelganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi. Komenskiyning bolani yosh davrlarga katta e'tibor qaratib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi;

1. Tug'ilganidan 6 yoshgacha — ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat beradi.


2. 6-12 yoshgacha — xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak bo'lib, buning uchun geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarini o'rganishi lozim.

3. 12-18 yoshgacha — gimnaziya. Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o'qitilishi kerak.

4. 18-24 yoshgacha — universitet va akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi kerak.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta'lim-o'qitish, ya'ni didaktika katta o'rinni egallaydi. Bunda u tabiiylik usulini asos qilib oladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda bolaning yoshi, bilim darajasi, psixologik

xususiyatlari hisobga olinib, darsni hayot,jamiyat,tabiat borligiga moslab olib borish kerak, degan goya ilgari suriladi.



Didaktika pedagog va talaba faoliyatining o'zaro ta'siri to'g'risidagi fan bo'lib, Nima uchun o'qitiladi? Nega shunday o'qitiladi? Qanday o'qitiladi? kabi savol ma'lumotning maqsadi, vazifalari bilan aloqadordir.

Bilim — tabiatda, jamiyatda, hayotda inson ongida amal qiladigan dunyoqarashlarning turli belgilar vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishidir. Bilimlar qarash, g'oya, ta'rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, fakt shaklida beriladi;

Didaktika ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish muammolarini tadqiq qiluvchi pedagogik fandir. Ijtimoiy tajriba mazmunan boy tushuncha bulib, u tabiat, jamiyat va inson tafakkuri xaqidagi bilimlarni xam, xozirgi zamon ishlab chiqarishining umumiy asoslari to'g'risidagi qarashlarni ham, moddiy va ma'naviy olamga oid tasavvurlarni ham o'ziga qamrab olddi. Uni yoshlarga o'rgatish avlodlar o'rtasidagi vorislikni ta'minlaydi.

Didaktika o'ziga xos tadqiqot sohasiga va tadqiqot predmetiga ega bo'lganidek, uning o'ziga oid tushunchalar tizimi ham mavjud. Har bir tushuncha ma'lum didaktik hodisaga taalluqli bulib, ular vositasida didaktik hodisalarning asosiy

belgilari umumlashtiriladi. Demak, didaktik tushunchalar pedagogik fikrlash formasi, shuningdek, didaktik hodisalarni bilish, tadqiq qilish, bayon qilish hamda ulardan amaliyotda foydalanish vositalaridir.

Yan Amos Komenskiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari o'ziga xosligi bilan e'tiborga loyiq. Bugungi kunda ham mazkur qarashlardan foydalanish dolzarb bo'lib turibdi.

Bu o'rinda boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha *Rossiya Federatsiyasining tajribasiga* mashhur rus mutafakkir pedagogi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning metodologiyasi asosida e'tiboringizni tortamiz.

K.D.Ushinskiy XIX asrning dunyo bo'yicha eng mashhur pedagoglaridan biri. Uning boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha asarlari yuz yildan ortiq davr davosida o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Jumladan, u "Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida" nomli asarida boshlang'ich ta'limda quyidagi metodologiya asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishni asoslab bergan:

1) boshlang'ich ta'limda Ona tili asosida milliy ruhda ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yish bola shaxsining har tomonlama yetuk rivojlanishini ta'minlaydi;

2) boshlang'ich ta'limda xorijiy til o'qitilishi kerak, biroq u Ona tilidan ustuvor bo'lmasligi kerak va Ushinskiy boshlang'ich ta'limda xorijiy til qisqa hamda muddatli mashg'ulotlar vositasida o'tilishini tavsiya etadi;

3) Ushinskiyning metodologiyasiga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ko'p hollarda asosiy tushuncha va qarashlarni oilada o'zlashtiradi, shu sababli pedagogik olim oila hamda boshlang'ich ta'limning metodik jihatdan birligiga erishishni asoslab bergan;

4) boshlang'ich ta'limda va tarbiyada xalq ruhi deganda Ushinskiy xalqning asrlar davomida rivojlanib kelgan milliy qadriyatlarini nazarda tutadi.

E'tibor berilsa, pedagog olim boshlang'ich ta'lim va tarbiyani tashkil etishda milliylik tarafdori bo'lgan. Shu sababli uning bu metodologiyasi dunyoning deyarli barcha mamlakatlari boshlang'ich ta'lim tizimida qabul qilingan⁴⁸.

Ushinskiyning yana bir muhim asari "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"dir. U bu asarida boshlang'ich ta'limda eng asosiy o'quv fanlarini asoslab bergan va bu o'quv fanlari quyidagilardan iborat:

- 1) Ona tili;
- 2) Elementar matematika;
- 3) Dastlabki tabiatshunoslik;
- 4) Musiq;
- 5) San'at (tasviriy san'at, mehnat va ijod (badiiy bolalar adabiyoti)).

⁴⁸ Бардовская Н., Реан А. Педагогика. –Санкт Петербург, 2021.

Diqqat qilinsa, bundan yuz yigirma yil muqaddam Ushinskiy boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan eng asosiy fanlarni ilmiy, nazariy va metodologik jihatdan asoslab bergan. Yana ta'kidlab o'tish joizki, u tavsiya etgan mazkur o'quv fanlari deyarli dunyoning barcha mamlakatlari boshlang'ich ta'limida qabul qilingan.

Ushinskiyning boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha qarashlari Rossiya boshlang'ich ta'limining tajribasini o'zida to'liq ifodalaydi. Shu sababli Rossiyalik pedagog olimlar XX asrda uning metodologik yondashuvlarini ilmiy jihatdan rivojlantirdilar va olimning metodikasini oliy pedagogik ta'lim jarayoniga tatbiq etishdi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha Rossiyaning tajribasi Ushinskiyning metodologiyasi asosida tarkib topgan. Shu sababli bu o'rinda Ushinskiyning boshlang'ich ta'lim metodologiyasining quyidagi muhim jihatlarini ta'kidlab o'tish joiz:

- a) pedagog olimning boshlang'ich ta'lim metodikasida mazkur bosqich o'quvchilarining jismoniy, aqliy va ruhiy imkoniyatlari juda aniq belgilab berilgan, bu ta'lim oluvchilar nimalarni qabul qiladi hamda nimalarni qabul qilmaydi masalalari olim tomonidan tahlil qilib o'tilgan;
- b) pedagogning boshlang'ich ta'lim metodikasi bolaparvarlik tamoyiliga amal qilishi bilan ajralib turadi, unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim oluvchilarining dunyoqarashi, ongi hamda axloqi tabiiy ravishda shakllantirilishi kerak, bunda muayyan g'oya yoki yondashuvni zo'rlab singdirishni olim keskin tanqid qiladi;
- v) boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchi o'qituvchilar va murabbiylarga pedagog olim qalbi poklik, qalbi yumshoqlik va o'zining manfaatlarini ustun qo'ymaslik talablarini qo'yadi;
- g) pedagog olimning tavsiyasiga ko'ra, boshlang'ich ta'lim jarayoniga mazkur ta'lim bosqichi xususiyatlaridan behabar shaxslarning aralashuvi mumkin emas.

Bunday o'ziga xos metodologiya tez orada XIX asrdayoq butun dunyo bo'yicha e'tirof etildi. Chunki pedagog olim bunday metodologiyani ishlab chiqishda o'z davridagi Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerika (AQSH-O.J.) boshlang'ich ta'limi asoslarini juda chuqur o'rgangan edi. U bu borada maxsus yozilgan asarlarida mazkur mamlakatlarning boshlang'ich ta'limidagi manfaatli yondashuv, o'quv fanlarining ko'payib ketganligi va ta'lim bu bosqichida faoliyat yuritadigan o'qituvchi-murabbiylarning mahorati hamda yondashuvlari eskirib ketganligini tanqid qilib o'tgan⁴⁹. Shu tariqa bizning yondashuvimizga ko'ra, hozirgi zamon milliy boshlang'ich ta'lim metodikamizni yanada rivojlantirishda Ushinskiyning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan metodologiyasiga yana bir bor

⁴⁹ Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. –Toshkent, 1959.

nazar tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- a) boshlang'ich ta'limda milliy ruhga asoslangan ta'lim va tarbiya jarayonini kuchaytirish;
- b) boshlang'ich ta'limning o'quv fanlari miqdori qo'payib ketmasligi oldini olish va tayanch ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim hamda tarbiya jarayoni asoslarini boshlang'ich ta'limda umumlashtirilgan holda o'qitish;
- v) boshlang'ich ta'limda amalga oshiradigan o'qituvchilarni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi talablariga qat'iy amal qilish⁵⁰ va buning uchun Ushinskiy tavsiya etgan metodik yondashuvlarga tayanish;
- g) Ushinskiy kabi mutafakkir pedagoglarning boshlang'ich ta'lim metodikasiga doir yondashuvlarini yangidan kashf etish.

Bularning barchasi mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim metodikasini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish va mazkur jarayonni bugungi kun talablari asosida amalga oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasining xorijiy tajribalari juda yaxshi yo'nalishlar, vositalar va metodlarni beradi. Shu sababli bunday tajribalarni izchil o'rganib borish taqozo etiladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi tajribasidan foydalanish uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani berishini ta'kidlab o'tish joiz:

- Ushinskiy kabi Rossiyalik pedagog olimlarning boshlang'ich ta'lim metodologiyasi bo'yicha asarlarini o'rganish va tadqiq etish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayonida vebinar ta'limning imkoniyatlariga tayanish;
- O'zbekistonlik va Rossiyalik boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'zaro stajirovka hamda tajriba almashishlarini yo'lga qo'yish;
- mazkur sohada erishilgan muvaffaqiyatlarni ommaviylashtirib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha Rossiya tajribasini o'rganish va milliy tajribamizni ommalashtirish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasidan boshlang'ich ta'lim metodologiyasi bo'yicha xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish yo'lga qo'yilmoqda. Bu borada kafedra professor-o'qituvchilari va talabalari "Kelajak o'qituvchisi" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida yangi tadqiqotlarni yaratish belgilanmoqda⁵¹.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. // www.ziynet.uz.

⁵¹ Jabborova O.M. "Kelajak o'qituvchisi" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi va uning faoliyati. // *Ekonomika i sotsium*, №8 (87) 2021.

Zero boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha xorijiy tajribalar orasida Rossiya tajribasi va bunda Ushinskiyning milliy xususiyatlarga ega metodologiyasi muhim o'rin tutadi.

Italiyaning mashhur pedagogi Mariya Montessorining (1870-1952) boshlang'ich ta'lim metodikasiga doir tajribalari va yondashuvlari ham muhim ahamiyatga ega. Montessori tomonidan asosan maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limning metodikasi uyg'unlashgan ravishda ishlab chiqilgan. U farnsiya ayollari ichida birinchi tibbiyot doktori va professor hisoblanadi. Uning tashabbusi bilan boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchi 1912-yildan boshlab badavlat kishilar tomonidan "Bolalar uylari" ta'lim muassasalari tashkil etila boshlagan. Natijada ijtimoiy va iqtisodiy mavqeidan qat'iy nazar barcha oilalarning 11 yoshgacha bo'lgan bolalarini maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bilan to'liq qamrab olishga erishilgan.

Ayni paytda, Montessori oldida boshlang'ich ta'limning yangicha metodikasini ishlab chiqish vazifasi turardi. Shu sababli u 1912-yilda "Metod nauchnoy pedagogiki" fundamental metodologik asarini nashr ettirdi va bu asar hozirga qadar boshlang'ich ta'lim metodikasida Ushinskiy asarlaridan keyingi mavqeda turadi⁵².

Montessorining yondashuviga ko'ra, boshlang'ich ta'lim metodikasi faqat ilmiy asoslangan haqiqatlarga tayanishi kerak. U bu borada quyidagi muammolarni hal qilib bergan:

a) boshlang'ich ta'limning asoslari (o'qituvchilarni tayyorlash, o'quvchilarni erkin o'qitish, o'quvchilarda erkin ruhni tarkib toptirish, o'quvchilarning ijtimoiy tabiatini shakllantirish, o'quvchilarni tabiiy ravishda tarbiyalash, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatish);

b) boshlang'ich ta'lim pedagogikasining asosiy metodlari (kuzatish, bolaga erkinlik berish, bolani tartibga o'rgatish, ayol o'qituvchilarning layoqatlaridan foydalanish, bolani hurmat bilan boshqarish, ta'lim va tarbiya jarayonini erkinlik qoidasiga asosan amalga oshirish, har bir bola bilan alohida ishlash va ularni hayot haqiqatlari bilan tanishtirish);

v) o'ziga xos dars jarayoni omillari (darslarni hamisha cho'chimasdan tajriba-sinov asosida o'tish, ko'proq amaliy mashqlarga e'tibor berish, darslarni jamoa bo'lib o'tish, har bir darsga individual yondashish, darslarning oddiy bo'lishiga erishish, darslarning ob'ektiv ko'rinishli bo'lishi);

g) boshlang'ich ta'limda tarbiya tizimi masalalari (jismoniy tarbiyalash, albatta bolalarni gimnastikaga o'rgatish, o'quvchilarning his-tuyg'ularini

⁵² Мария Монтессори. Метод научной педагогике. // История зарубежной педагогики. Хрестоматия. –М.: "Просвещение". 1954. – С. 377-425. Барча кўчирмалар мазкур манбадан олинади.

tarbiyalash, o'quvchilarning layoqatlarini tarbiyalash, o'quvchilarni hayotga tayyorlash).

E'tibor berilsa, Montessori tomonidan boshlang'ich ta'lim metodikasining o'ziga xos ilmiy va nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Shu sababli uning metodikasi Yevropa mamlakatlari boshlang'ich ta'limi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va bugungi kunga qadar pedagog olimaning nazariy yondashuvlariga bu mamlakatlarda birlamchi manba sifatida qaratiladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, Montessori tomonidan ishlab chiqilgan jismoniy, hissiy, sensor va aqliy tarbiya asoslari ilmiyligi bilan jahon pedagogikasi rivojiga o'ziga xos hissa bo'lib qo'shilgan. Eng asosiysi uning metodologiyasida o'quvchilarni *erkinlik ruhida* tarbiyalash bosh g'oya hisoblanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning injiqliklarini, noo'rin xatti-xarakatlarini, egoistik xususiyatlarini va "men" tuyg'usini ustun qo'yish kabi xususiyatlarini sabr-tolqat bilan qabul qilishi hamda ularni tuzatishi lozim. SHunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi muammolardan qo'rqmaydigan, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan va tashabbuslardan tortinmaydigan shaxs sifatida shakllanadi.

Montessori metodologiyasida yana bir yangilik shundan iboratki, u boshlang'ich ta'limda ayol o'qituvchilarning imkoniyatlaridan keng foydalanishni ma'qul ko'rgan. Chunki ayollarning his-tuyg'ulariga boyligi, sabr-toqatliligi, yangiliklarni tez qabul qilishi va noto'g'ri ma'lumotlarga shubha bilan qarashi aynan boshlang'ich ta'limda ta'lim va tarbiya jarayonini oshirishda muhim psixofiziologik omil hisoblanadi. Shu sababli Montessori pedagog olima sifatida emas, tibbiyotchi pedagog sifatida boshlang'ich ta'limda ayol o'qituvchilarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodikasini tavsiya etgan.

Boshlang'ich ta'lim metodikasining xorijiy tajribalari rus va italyan pedagogikasi namunalari asosida amalga oshirilgan mazkur tahlillar ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Chunki Ushinskiy va Montessorining boshlang'ich ta'lim metodologiyasi ilmiy xarakterga egaligi bilan amaliy ahamiyatga ega. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bunday xorijiy tajribalarni ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim metodikasining bunday xorijiy tajribalari mazkur ta'lim bosqichi metodikasini nazariy jihatdan takomillashtirishda, metodologik jihatdan chuqurlashtirishda va texnologik jihatdan amaliy samaradorligini oshirishda muhim yo'nalishlarni, asoslarni hamda omillarni beradi. Shu sababli bu o'rinda namuna sifatida Komenskiy, Ushinskiy va Montessorining metodologik qarashlari tahlil qilib o'tildi. Chunki ularning metodologiyalarida Chexoslovakiya, Rossiya va Fransiya mamlakatlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi negizlari ifodalangan. Shu jihatdan bunday tajribalarni o'rganib borish, o'zlashtirish hamda amaliy faoliyatda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-modul: Boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasi amaliyoti

3.1. “Boshlang'ich ta'limda “Tarbiya” fanini o'qitish metodikasi” o'quv fanining asoslari

O'zbekistonda oliy pedagogik ta'lim jarayonida professional o'qituvchilarni tayyorlashda ikki asosiy omilga tayanilmoqda: birinchidan, bo'lajak professional o'qituvchilarni ta'limning milliy va xalqaro dasturlari asosida tayyorlash; ikkinchidan, bo'lajak professional o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda ularning kompetensiyalarini kengaytirib borish. Shu sababli buning natijasida O'zbekistonda tayyorlanayotgan professional o'qituvchilar kelgusida xalqaro miqyosda ham kasbiy faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir” kitobida milliy g'oyaning manbalari, asoslari, omillari va uni targ'ibot qilish shakllari bayon qilib berilgan⁵³. Unda milliy g'oyaning asosiy negizi sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- insonparvarlik;
- ezgulik;
- bunyodkorlik.

Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya asosida tarbiyalashning yangicha yondashuvlari bayon qilingan. Unga ko'ra, *insonparvarlik* – 7-11 yoshli shaxslarning ongi va qalbida insonni e'zozlash, uni qadrlash va o'ziga xos insoniy munosabatda bo'lish ma'nosini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongida insonparvarlik g'oyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar vositasida singdiriladi va ularning insonparvarlik tuyg'ulari ta'lim-tarbiya jarayonida baholanib boradi. Bu g'oyaning milliyliigi shundaki, xalqimizning asl qadriyatlari asosida shakllangan va uning umuminsoniy jihati butuninsoniyat taqdiriga dahldorligi bilan belgilanadi. Boshlang'ich ta'limda insonparvarlik g'oyasini singdirishning ahamiyati kelgusi ta'lim olish jarayonida mazkur g'oyani rivojlantirish bilan bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p hollarda oila bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar insoniylik, insonparvarlik va insonni qadrlash to'g'risida tushunchaga ega bo'lsa-da, farzandlarining ongida insonparvarlik tuyg'usining shakllanganlik darajasidan bexabar bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ongida insonparvarlik tuyg'usini birlamchi shaklda shakllantirish muxim ahamiyatga ega.

⁵³ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. –T., 2021.

Milliy g‘oyamizning ikkinchi g‘oyasi *ezgulikdir*. Ezgulik ilk diniy kitobimiz “Avesto”da ezgu fikr, ezgu amal va ezgu niyat tarzida talqin qilingan. Qur’oni karimda “xayr” tushunchasi bilan nozil bo‘lgan. Mazkur konsepsiyalarga ko‘ra, ezgulik insonning ongidagi asosiy tushuncha bo‘lib, uning taqdiriga daxldor hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ezgulik g‘oyasini shakllantirish uchun ularni ijtimoiy-gumanitar fanlar vositasida tarbiyalash, layoqatini rivojlantirish va hayrli maqsadlarga yo‘naltirish lozim bo‘ladi. Pedagog olimlarning umumiy fikricha, shaxs ongida ezgulik tug‘ma bo‘ladi⁵⁴. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tug‘ma g‘oyasini rivojlantirish va ularni to‘g‘ri shakllantirish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biridir.

Milliy g‘oyamizning navbatdagi asosiy tushunchasi *bunyodkorlikdir*. Bunyodkorlik – bu inson xarakteriga xos xususiyat bo‘lib, u tug‘ma tuyg‘ulardan hisoblanadi. Bunyodkorlik yovuzlikka qarshi turish immuniteti sifatida shaxs ongida bardavom hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bunyodkorlik ruhida tarbiyalashning asoslari “Tarbiya” fani zimmachiga tushadi. Bunda o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrga ega bo‘lishini nazorat qilish va iqtidorini namoyon qilishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangidan taqdim qilinayotgan milliy g‘oyasi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi bilan muhim hisoblanadi. Chunki mazkur g‘oyalar butuninsoniyat taqdiriga oid masaladir.

Jaxon ta’lim tizimida insonparvarlik asosiy tamoyillardan biri sifatida qabul qilingan va YUNESKOning xalqaro ta’lim dasturlarida bu g‘oya ta’lim tizimida asosiy tushuncha sifatida targ‘ibot qilinadi. Ayni paytda, ezgulik g‘oyasi diniy ta’limdagi asosiy tushunchalardan bo‘lib, unda shaxsning e’tiqodini shakllantirish birlamchi hisoblanadi. Bunyodkorlik umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan bo‘lib, bugungi kunda taraqqiyot tushunchasi orqali ifodalanadi. SHu jihatdan boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni milliy g‘oya asosida tarbiyalash jaxon ta’lim tizimidagi tajribalarga mosdir.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, har bir mamlakat va millatning o‘ziga xos milliy g‘oyasi mavjud. Misol uchun, Germaniyada Olmon xalqining milliy ruhi, Rossiyada xalqlar do‘stligi va Amerikada umumiy birodarlik milliy g‘oya sifatida qabul qilingan. Shu jihatdan O‘zbekistonda e’lon qilingan yangi asosdagi milliy g‘oya jaxon mamlakatlari tajribasiga mosligi bilan ajralib turadi.

Har bir mamlakatda boshlang‘ich ta’lim milliy g‘oyaga asoslanadi. Bu konsepsiyani rus pedagog olimi K.Ushinskiy o‘tgan asrning boshlarida asoslab

⁵⁴ Mardonov Sh.Q. Pedagogik ta’lim jarayonida elektron-axborot modulli texnologiyalarni ishlab chiqishning didaktik ta’minoti. T. 2021.

bergan. Uning fikricha, milliy g'oya asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirish o'quvchilarning kelgusi taqdiri va faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bunda o'quvchilarning o'z xalqi mentalitetiga mos ravishda voyaga yetishi asosiy masaladir⁵⁵. Shu sababli O'zbekiston milliy g'oyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash xalqimiz va millatimizga mos mintalitet asosida voyaga etkazishning negizidir.

Boshlang'ich ta'lim mashg'ulotlarida milliy g'oyaga asoslangan mavzular, tadbirlar va choralarning yangi rejasini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bu masalada bizning fikrimizcha, ijtimoiy-gumanitar fanlar yagona Dasturga tayanishi kerak. Bu dasturda boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalash tadrijiy ravishda ifodalanishi lozim. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab amalga kiritish mo'ljallanayotgan Milliy o'quv dasturida yangidan belgilangan milliy g'oyaning asoslari o'z ifodapsini topishi kerak.

Davlatimiz rahbari o'z kitobida quyidagilarni asoslab bergan:

- ta'lim tizimida, jumladan, boshlang'ich ta'limda milliy g'oyani ustuvor tushuncha sifatida qabul qilish;

- o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini milliy g'oya asosida baholash;

- boshlang'ich ta'limning samaradorlik indikatorlarida insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g'oyalarini ustuvor bilish;

- shaxsning faoliyatida samaradorlik omili sifatida milliy g'oyani belgilash.

Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya asosida tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- ijtimoiy-gumanitar fanlarni milliy g'oya asosida qaytadan tasniflash;

- umumiy ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalash rejalarini ishlab chiqish;

- sirnfdan va maktabdan tashqari tarbiya rejalarini milliy g'oya tushunchalariga moslashtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-ona va o'zgalarga munosabatini shakllantirishni nazoratga olish.

Mazkur metodik tavsiyalar boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarini kutilgan darajada tarbiyalashning asosi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun, Davlatimiz rahbarining kitobida ta'kidlangan "Ma'rifat soati" mashg'ulotiga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu mashg'ulotlarni taniqli kishilar, san'atkorlar va tajriba pedagoglar yordamida o'tkazish tavsiya etiladi.

⁵⁵ Jabborova O.M. Auditoridan tashqari mashg'ulotlarda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy idrokini shakllantirish. T., 2012.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yangi milliy g'oya asosida tarbiyalash boshlang'ich ta'limning yangicha konsepsiyasi sifatida qabul qilinishi kerak. Bunda pedagogik tajribalar asosida milliy asosida tarbiyalashning metodlari, texnologiyalari va istiqbolli yo'nalishlari har bir sinf kesimida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Prezidentimiz tomonidan milliy g'oya asosida yoshlarni tarbiyalashda "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi" tamoyili e'lon qilindi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya asosida tarbiyalash mazmuni mazkur tamoyil asosida yangidan tashkil etilishi kerak.

Bu jarayonda ayniqsa, ta'lim tizimiga zamonaviy va jamiyat ehtiyojlariga asosan yangi o'quv fanlarini joriy etish ham muhim o'rin tutmoqda. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020-yili umumiy o'rta ta'lim tizimiga butunlay yangi o'quv fani "Tarbiya" predmeti amalga kiritildi⁵⁶. Bu fan yosh avlodni milliy, umuminsoniy va demokratik qadriyatlar asosida 18 yoshga qadar voyaga etkazishi kerak. Shu sababli 2020 yil 26 noyabrda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, davlat malaka talablari va fanning o'quv rejasi hamda dasturlari tasdiqlandi⁵⁷. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Tarbiya" fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishni amalga oshiruvchi professional o'qituvchilarni tayyorlashni taqozo etadi. Chunki yangi "Tarbiya" o'quv fani eski stereotiplardan holi tarzda tarbiyaning yangicha yondashuvi asoslariga tayanib o'qitish vazifasini qo'yadi. Shu sababli bu fan bo'yicha yangi avlod professional o'qituvchilarini tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi.

Mazkur ehtiyojlarni amalga oshirish yo'lida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab oliy pedagogik ta'lim jarayonida "*Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi*" yangi o'quv fani ishlab chiqildi. Bu mutaxassislik fani kelgusida boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishni amalga oshiradigan professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda tayanch hisoblanadi. Shu sababli bu o'rinda e'tiboringizni ana shu fanning asoslari masalasiga tortamiz.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitiladigan "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" mutaxassislik fani quyidagi asoslarga ega:

1. *Fanning nazariy asoslari.* Mazkur fanning nazariy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- "Tarbiya" fani va unga oid me'yoriy hujjatlar;

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.// www.ziynet.uz

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-noyabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun "Tarbiya" fani davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni. // www.ziynet.uz

- mazkur fanning milliy va xalqaro pedagogik manbalari;
- fanning negizini tashkil etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlar konsepsiyasi;
- fanning metodologik asosini tashkil etuvchi milliy g'oya konteksti;
- fanning asosiy pedagogik tamoyillari.

Bu nazariy asoslar “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” mutaxassislik fanini o‘qitishning tayanchlari hisoblanadi.

2. *Fanning didaktik asoslari.* Ushbu fanning didaktik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- “Tarbiya” fanini boshlang‘ich sinflarda o‘qitish xususiyatlari;
- mazkur fanning o‘qitishning noan’anaviy shakllari;
- ushbu fanni o‘qitishning masofaviy ta’lim shakli;
- bu fanni o‘qitishning inklyuziv ta’lim shakli;
- fanni o‘qitishning elektron-modulli shakli.

E’tibor berilsa, oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitiladigan “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” mutaxassislik fanining bu didaktik asoslari butunlay yangicha yondashuvlar va didaktik xususiyatlarga asoslangan.

3. *Fanni o‘qitish amaliyoti.* Bu fanning o‘qitish jarayonida takomillashtirib borish asoslari mavjud. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, bu takomillashtirib borishning asosiy amaliyotlari quyidagilardan iborat:

- “Tarbiya” fanini o‘qitishni takomillashtirishning amaliy asoslari;
- bu fanni o‘qitishning takomillashtirishning amaliy shakllari;
- mazkur fanni o‘qitishni takomillashtirishning amaliy mexanizmlari;
- amaliy asoslarga asosan fanni o‘qitishni takomillashtirib borish indikatorlari.

Diqqat qilinsa, mazkur amaliy asoslar, shakllar va mexanizmlar vositasida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” mutaxassislik fani o‘qitishni nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirib borish mexanizmlari mavjud.

“Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” mutaxassislik fani ana shunday yangicha asoslarga asosan oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitiladi. Buning natijasida mazkur fan bo‘yicha tayyorlanadigan bo‘lajak professional o‘qituvchilar quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘ladi:

- fanni o‘qitish bo‘yicha nazariy bilimlar, qarashlar va tushunchalarni egallaydi;
- fanni o‘qitish didaktikasi, uning xususiyatlari va o‘qitish shakllari bilan qurollanadi;
- fanni o‘qitish jarayonini amaliy asoslar bo‘yicha muntazam takomillashtirib borish ko‘nikmasini egallaydi;
- mazkur fan bo‘yicha ta’lim va tarbiya olganlikni aniqlash indikatorlarini egallaydi.

Bunday kasbiy kompetensiyalar vositasida “Tarbiya” fani bo’yicha bo’lajak professional o’qituvchilarni tayyorlashni amalga oshirish bugungi oliy pedagogik ta’lim jarayonida turgan muhim vazifalardan biridir.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida tayyorlanadigan bo’lajak professional boshlang’ich sinf o’qituvchilarini yangicha yondashuvlar va texnologiyalar asosida amalga oshiriladi⁵⁸. Bunda shakllantirilgan “Boshlang’ich ta’limda “Tarbiya” fanini o’qitish metodikasi” mutaxassislik fani muhim o’rin tutadi.

“Boshlang’ich ta’limda “Tarbiya” fanini o’qitish metodikasi” mutaxassislik fanini oliy pedagogik ta’lim jarayonida o’qitish asoslari va uning vositasida “Tarbiya” fani bo’yicha professional bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashning o’ziga xos metodologiyasi mavjud. Endigi vazifamiz mazkur yo’nalishlar bo’yicha yangi va innovatsion o’quv adabiyotlarini yaratishdan iborat.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi Qarorida barcha sohalar kabi boshlang’ich ta’limda ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangicha yo’lga qo’yish vazifalari belgilab berildi⁵⁹. Mazkur vazifalarning asosiy jihatlarini quyidagilar tashkil etadi.:

- boshlang’ich ta’lim o’quv fanlarida yangi mafkuraning ezgulik, odamiylik va gumanizm g’oyalari singdirish, o’qitish va boshlang’ich sinf o’quvchilari ongida mazkur tushunchalarni tarkib toptirish;

- boshlang’ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini ta’lim oluvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish, mazkur ishlarning yangicha metodikasini yaratish;

- boshlang’ich sinf o’qituvchilarini yangi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimiga tayyorlash va ularning yangi mafkuraning g’oyalari bo’yicha ko’nikmasini oshirish;

- yangi o’quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalari bakalavriat bosqichida “Ma’naviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy ma’naviyat” fanlarini kiritish;

- mazkur vazifalar qatorida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini ma’naviy-ma’rifiy ishlarga tayyorlash;

- boshlang’ich ta’lim o’quvchilari va o’qituvchilari uchun yangi ma’naviy-ma’rifiy o’quv materiallarini tayyorlash.

⁵⁸ Jabborova O.M. O’qitishning kredit-modul tizimida o’quv fanlarini tanlash tamoyillari. Academic research in educational sciences, 2(6), 2021, pp 1095-1099

⁵⁹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi Qarori. // www.ziyounet.uz.

Ushbu vazifalarni tizimli yo'lga qo'yish zaruriyati mavjud. Unga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ijtimoiy fanlarning o'quv materiallari takomillashtirilishi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yagona yondashuv asosida amalga oshirish va uning samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqish muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangi mafkuraviy immunitetni shakllantirish ma'naviy-ma'rifiy ishlarning negizini tashkil etadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish mazkur xujjatda belgilangan:

- o'quvchilar ongini sog'lom dunyoqarash asosida shakllantirish; ularning ruhiga bunyodkorlik g'oyasini singdirish;

- o'quvchilarni loqaydlik, bepisandlik va faqat o'zini o'ylash illatlaridan saqlash;

- o'quvchilarda Internetdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;

- o'quvchilarni madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari vositasida ma'naviy tarbiyalash;

- o'quvchilarning mafkuraviy immunitetini shakllanganlik darajasini o'rganib borish.

Ushbu vazifalar yangi o'quv yilidan boshlab Milliy o'quv dasturi asosida ijro etilishi va har chorakda uning natijalari tahlil qilib borilishi vazifalari belgilangan.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish indikatorlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bu masalada quyidagilarni muhim mezon sifatida qabul qilish mumkin:

- o'quvchilar ongida ezgulik, odamiylik va gumanizm g'oyalarining shakllanganligi;

- o'quvchilarning san'at sohasiga qiziqishi va san'at yutuqlarining o'zlashtirganligi;

- o'quvchilarning to'g'ri va noto'g'ri axborotni farqlay olish ko'nikmasiga egaligi;

- o'quvchilarning ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy faolligi.

Mazkur yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mafkuraviy immunitetini shakllanganlik darajasini baholab borish mumkin. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga va axloqiga belgilangan yangi milliy g'oyalar majburan singdirilmasligi kerak. Bu masala qabul qilingan xujjatda alohida ta'kidlangan. SHu jihatdan boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish quyidagi metodlarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- tabiiylik;

- tushuntirish;

- odatlantirish;

- ko'niktirish.

- Aynan mazkur metodlar 6-7 yoshli shaxslar ongi va axloqida yangi mafkuraviy immunitetni shakllantirish asos bo'lib xizmat qiladi.

- Mazkur Qaror asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu yo'nalish tizimiga tayyorlash muhimdir. Shu sababli bu borada quyidagi amaliy ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- mutaxassislik fanlarining o'quv materiallarini mazkur xujjat asosida takomillashtirish;

- talabalarining yangi mafkuraviy g'oyalarni o'zlashtirishni tashkil etish;

- yangi mafkuraviy immunitetni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllantirish uchun ularning ezgulik, odamiylik va gumanizm g'oyalari bo'yicha bilimlarini oshirish;

- talabalar o'rtasida yangi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi bo'yicha tanlovlar o'tkazish.

Mazkur xujjat boshlang'ich ta'limda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi tizim asosida tashkil etish vazifasini qo'yadi. Bunday asosiy masala amaliy natijalarga erishishdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tajribasi shakllangan. Ushbu tajribaning quyidagi jihatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- tadbirlarni ixcham va qiziqarli o'tkazish;

- o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha ishlarni ommalashtirish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning faolligiga suyanish;

- hududlarda shakllangan o'ziga xos amaliyotlarni ommalashtirish.

- Bu tajribalar boshlang'ich ta'limda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yangicha yondashish asosida tashkil etish uchun zamin hisoblanadi.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimi globallashtirish sharoitida hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirilmoqda⁶⁰. Bu jarayonda o'quv fanlarini milliy va jahon pedagogikasi tajribalaridan kelib chiqib o'qitish dolzarb hisoblanadi.

Globallashtirish sharoitida O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirib borish belgilangan. Bunda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- o'quv reja va dasturlarni ehtiyojlar hamda talablar asosida takomillashtirib borish;

- o'quv fanlarini optimallashtirish va ularning miqdorini takomillashtirish;

⁶⁰ Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. // www.ziyounet.uz

- o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda O'qituvchilar kitobi va o'quvchilar xusnixat daftarlarini birgalikda nashr etish;

- o'quv adabiyotlarining elektron-modulli va multimediyali variantlarini yaratish.

Bularning barchasi O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimini globallashtirish talablari asosida rivojlantirish imkonini beradi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda "Ona tili va o'qish" fanini global yondashuvlar asosida o'qitish muhim vazifalardan biri bo'lib, bunda Ustoz va shogird an'anasi muhim o'rin tutadi. Chunki bu an'analar ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'quv-bilim faoliyatida teng faolligi mavjud. Shu sababli milliy pedagogikamiz tajribasida bu an'ana asrlar davomida rivojlanib kelmoqda.

Milliy pedagogikamiz manbalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, Ustoz va shogird an'anasida har ikkala tomonga ham qat'iy talablar qo'yilgan. Misol uchun, Husayn Voiz Koshifiyning (XV asr) "Futuvvatnomai sultoni" (Shohlarning mardligi) pedagogik asarida Ustoz va shogirdga quyidagi talablar qo'yilgan⁶¹:

1. Ustozga qo'yiladigan talablar:

- a) komil inson bo'lsin;
- b) yaxshi fazilatlar egasi bo'lsin;
- v) ilmning nozik sirlarini shogirdlarga yetkaza olsin;
- g) ochiq yuz va to'g'ri so'z bo'lsin;
- d) shogirdlarni o'z farzandidek bilsin;
- e) shogirdlarining ruhiyatidan yaxshi xabardor bo'lsin.

Koshifiy yozadi: "Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz biror ish qilsa muvaffaqiyatga erishmagay".

2. Shogirdlarga qo'yiladigan talablar:

- a) ustozdan oldin unga salom berish;
- b) ustozning oldida oz gapirish;
- v) ustozning oldida va saboq jarayonida kekkayib o'tirmaslik;
- g) ustozdan biror masalani so'ramoqchi bo'lsa, oldin undan ijozat olsin;
- d) ustoz javob berayotganda e'tiroz bildirmaslik;
- e) ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik;
- y) o'tirib-turishda hurmatni to'liq saqlash.

Koshifiy yozadi: "Bir muddat Ustozga xizmat qilgin-da, so'ngra o'zing ustoz bo'l". E'tibor berilsa, milliy tajribasida Ustoz va shogirdlarga nisbatan qo'yilgan bu talablar bugun ham dolzarb bo'lib turibdi. Aynan ana shu talablar asosida Ustoz va shogird an'anasini yangicha asoslarda tashkil qilish lozim. Bu bilan o'quv fanlarini o'qitishning samaradorligiga erishiladi.

⁶¹ Koshifiy H.V. Futuvvatnomai sultoni. –Toshkent, 1994. –B.28-30.

“Ona tili va o‘qish” o‘quv fanini boshlang‘ich ta’limda o‘qitishda Ustozning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchida ona tiliga nisbatan muhabbat uyg‘otish;
- o‘quvchining lug‘at boyligini tarkib toptirish;
- o‘quvchining yozma va og‘zaki nutqini shakllantirish;
- o‘quvchini ravon va tushunarli fikrlashga o‘rgatish.

Mazkur fanni o‘qish jarayonida shogird hisoblanmish o‘quvchilarning vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- ustozning saboqlarini qunt bilan o‘zlashtirish;
- ona tilini sevisish;
- chiroyli, ravon va tushunarli so‘zlashni o‘zlashtirish;
- o‘zining luhat boyligini Ustoz yordamida oshirib borish;
- o‘qish jarayonida faol bo‘lish.

Diqqat qilinsa, bu vazifalar yuqorida ta’kidlangan Ustoz va shogirdlarga qo‘yilgan talablar bilan uyg‘undir.

Jahon pedagogikasi tarixida Yan Amos Komenskiyning (XVII asr) “Buyuk didaktika” asarida Ustoz va shogird an’anasi alohida tahlil etilgan⁶². Pedagogning fikricha, Ustoz va shogird quyidagilarga qat’iy amal qilishi kerak:

- ta’lim berish va olishda teng faollik ko‘rsatish;
- o‘qish jarayonida bir-biridan o‘rganish;
- ta’lim oluvchilarning talabini qoniqtirish;
- ta’lim va o‘qitishni maqsadli reja asosida amalga oshirish.

E’tibor berilsa, Komenskiy tomonidan ta’kidlangan Ustoz va shogirdga oid talablar milliy pedagogikamizdagi tajribalarga mosdir. Shu sababli bu tajribadan uyg‘un foydalanib boshlang‘ich ta’limda – Ustoz-shogird an’anasini zamonaviy darajada tashkil etish kerak bo‘ladi.

Globalashuv sharoitida jahon xalqlarining bir-birlarini tilini o‘rganish ehtiyoji ortib bormoqda. Shu ma’noda hozirgi zamon O‘zbekiston boshlang‘ich ta’lim tizimida ham ona tilidan tashqari bir necha xorijiy tillarning o‘qitilayotganligi ma’lum. Ayni paytda, bizning yondashuvimizga binoan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi xorijiy tillarni ona tiliga tayangan xolda o‘rganishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ona tilida xalq ruhi, mentaliteti va turmush tarzining asoslari o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tiliga muhabbat va mehr uyg‘otish Ustozlarning asosiy vazifasi va ularning faoliyatini baholash indikatori hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibida ona tili hamda xorijiy tillarning teng o‘qitilishi o‘quvchilar ruhiyatida muayyan

⁶² Komenskiy Y.A. Buyuk didaktika. –Toshkent, 1972.-B. 132-133.

o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shu jihatdan Koshifiy ta'kidlaganidek, boshlang'ich ta'lim ustozlari o'quvchilarning ruhiyatini yaxshi bilishi va ruhiyatning milliy shakllanishida "Ona tili va o'qish" fani imkoniyatlariga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida globallashuv sharoiti deganda o'quv fanlarini milliy pedagogik tajriba va jahon pedagogikasi an'alariga tayangan holda o'qitish nazarda tutiladi. Mazkur masalada boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish" fani tayanch hisoblanishi kerak.

Boshlang'ich ta'limda Ustoz va shogird an'anasining ahamiyati shundaki, o'quvchilar shakllanish jarayonida bo'lganligi uchun ko'proq yordamga ehtiyoj sezadilar. Bunda Ustozlarning chinakam tajriba egasi bo'lishi taqozo etiladi.

Globallashuv sharoitida "Ona tili va o'qish" kabi o'quv fanining ahamiyati ortib boradi. Buning natijasida globallashuvning salbiy ta'siri yumshaladi. Shu sababli mazkur fanning boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyatini Ustoz va shogird an'ansi vositasida idrok etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fanining asoslari muntazam tadqiq etib borilishi kerak. Chunki mazkur fan pedagogikamiz tarixida yangiligi bilan unga oid keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlar yaratishni taqozo etadi. Bugungi kunda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ushbu o'quv fanini o'qitishning dastlabki tajribalari paydo bo'lganligini eslatib o'tish joiz. Bunda mazkur fanni o'qitish jarayonida tarbiya qonuniyatlariga qat'iy amal qilish, chinakam ma'noda tarbiya asoslarini o'zlashtirish va tarbiyachining o'zi murabbiy bo'lishi hamda ushbu fanning boshqa o'quv fanlari vositasida amalga oshiriladigan tarbiya jarayonlarni muvofiqlashtirib borish masalalari aniqlashtirilganligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu fan ushbu institutda ta'sis etilgan bo'lib, oldimizda bu tajribani ommalashtirish vazifasi turibdi. Negaki o'qitishning kredit-modul tizimi sharoitida bunday fanlarning amaliy ahamiyati ortadi. Aynan ana shunday yondashuv asosida ushbu o'quv fanini o'qitish kutilgan samarani beradi.

3.2. Boshlang'ich ta'lim amaliyotida "Yoshlar strategiyasi" dasturining ahamiyati

O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamon talablari asosida ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi⁶³. Chunki bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining 50 %dan ko'pini aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari tashkil etadi. Boshlang'ich sinf

⁶³ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // www.lex.uz.

o'quvchilarining tarbiyasini qulay metodika va yuksak asoslarga tayangan holda tashkil etish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilarini Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" strategiyasi⁶⁴ asosida tarbiyalashning metodikasi tahliliga tortamiz.

"Yoshlar - 2030" strategiyasi "yoshlar bilan va yoshlar manfaatlari uchun ishlash" tamoyiliga asoslangan hujjat bo'lib, unda yoshlarning manfaatlarini xalqaro miqyosda va har bir davlatda ro'yobga chiqarish vazifalari belgilangan. Shu ma'noda mazkur Strategiya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy talablar asosida tarbiyalash imkoniyatlari mavjud. Mazkur tarbiya jarayonining boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida amalga oshiriladigan metodikasi sifatida quyidagilarni belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. *Adolatparvarlik.* Mazkur xalqaro strategiyaga ko'ra, har bir shaxs va jamiyatda adolat ko'nikmasi mavjud bo'lishi kerak. SHu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida quyidagilarni shakllantirish bilan ularda adolat ko'nikmasini tarkib toptirish mumkin:

- o'zligini anglatish;
- o'zgani hurmat qilishga o'rgatish;
- axloqiy munosabatga ko'niktirish.

Bunday yondashua 7-11 yoshli shaxslarning ongi va qalbida adolat ko'nikmasini tarkib toptirishning muxim asoslari hisoblanadi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar shakllanish jarayonida bo'lib, ularning ongi va qalbi taqdim etilgan g'oyalarni qabul qiladi. Bularni nazarda tutib BMT ta'lim dasturlarida adolatparvarlik tamoyilini ustuvor darajada belgilash va o'quvchilarga singdirish xatti-xarakatlarini rag'batlantirib kelmoqda. Turli xalqaro dasturlar vositasida o'quvchilarning adolatparvarlik ko'nikmasi monitoring qilib borilmoqda. Misol uchun, ana shunday dasturlardan biri PISA xalqaro dasturidir. Dasturda o'quvchilarda ijtimoiy adolatni shakllantirish va ularni kutilgan darajada bilimli qilish nazarda tutilgan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari adolat va ijtimoiylik ustuvor darajada belgilanish kerak. Bu borada ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish taqozo etiladi.

2. *Bilimdonlik.* "Yoshlar strategiyasi"da har bir shaxsga imkoniyati doirasida sifatli ta'lim berish vazifasi belgilangan. Sifatli ta'lim deganda o'quvchilarning aqliy, yosh, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos keladigan, aniq va to'g'ri ma'lumotlarga ega bilimlar majmui tushuniladi. Shu sababli BMTning bu vazifasini amalga oshirishda boshlang'ich ta'limda o'quv fanlari turkumlashtirilgan tarzda o'qitilishi samarani beradi. Buning uchun mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim fanlari yangidan ishlab chiqilgan Milliy

⁶⁴ Молодёж-2030. ООН. // www.lex.uz.

o'quv dasturiga asosan aniq, gumanitar va tabiiy fanlar turkumlariga bo'linib o'qitilmoqda⁶⁵. Buning natijasida 7-11 yoshli shaxslar tabiiy-ilmiy, ijtimoiy va nazariy tushunchalarga ega bo'lishi samarali kechmoqda. Ayni paytda quyidagilarga amal qilish dolzarb bo'lib turibdi:

- mavzular bo'yicha o'zaro bog'liqlikka erishish;
- fanlararo integratsiyani ta'minlash;
- o'quv fanlarida mustaqil ta'lim yo'nalishini kuchaytirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim bilan qurollantirish va ularni bilim vositasida tarbiyalash imkonini beradi. Bilim vositasida tarbiyalashning ma'nosi shuki, berilayotgan har bir tushuncha o'quvchining axloqiy va ijtimoiy shakllanishiga xizmat qilishi kerak. SHu sababli mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida STEAM xalqaro dasturini joriy etish jarayoni kechmoqda.

3. *Yoshlarning imkoniyatini kengaytirish.* "Yoshlar strategiyasi"da bu masala asosiy vazifalardan biri sifatida qo'yilgan. Yoshlar imkoniyatlari deganda ularning layoqatini rivojlantirish va faolligini oshirish nazarda tutiladi. SHu jihatdan 7-11 yoshli o'quvchilarning layoqatini rivojlantirish va ularda ijtimoiy faollik ko'nikmasini muntazam ravishda rivojlantirib borish taqozo etiladi. Bugungi kunda texnologik vositalar qanchalik rivojlanmasin, baribir boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqatlarini maxsus rivojlantirish orqali ularning imkoniyatlarini kengaytirishga erishish mumkin. Shu sababli quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quv fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilar bilan individual ishlash;
- o'quvchi shaxsida mavjud bo'lgan layoqat tuyg'usini rivojlantirishga e'tibor berish;
- o'quvchilarni tashabbuskorlikka o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yo'naltirish vositasida tarbiyalanadi. Aynan ularning layoqatini o'stirish boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytiradi va o'quvchilarda layoqat ko'nikmasining kengayib borishiga xizmat qiladi. Bunda ayniqsa "Tarbiya" fanining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kutilgan samarni beradi.

4. *Fuqarolik pozitsiyasi.* "Yoshlar strategiyasi"da har bir shaxsda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish belgilangan. Fuqarolik pozitsiyasi deganda har bir shaxsning o'zligini, xalqini va Vatanining imkoniyatlarini anglash nazarda tutiladi. Shu jihatdan 7-11 yoshli o'quvchilarda o'zligini tanish tuyg'usini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Barcha mamlakatlarda bu masalaga alohida

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy o'quv dasturi. // www.ziynet.uz.

e'tibor beriladi. O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim dasturlari aynan o'quvchilarning o'zligini tanitishga, ularda xalqparvarlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan holda tuzilgan. Endigi vazifamiz mana shu dasturlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda xalqaro tajribalarni o'zlashtirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fuqarolik pozitsiyasini tarkib toptirish uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- Vatan va xalq haqida to'liq tushuncha berish;
- o'zligini anglatish;
- o'quvchilarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida fuqarolik pozitsiyasini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi.

5. *Faollashtirish.* "Yoshlar strategiyasi"da har bir mamlakatning yosh shaxslarini zo'ravonlik, kamsitish, ho'rlash kabi yovuzliklardan himoya qilish belgilangan. Shu sababli yoshlarni faollashtirish bilan bunday illatlardan ularni himoya qilishga e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim dasturlari bolaparvarlik va bola huquqini ustuvorligi tamoyili asosida tuzilgan va amaliyotga kiritilgan. Buning natijasida o'quvchilarni turli yovuzlik xatt-xarakatlaridan himoya qilish muvaffaqiyatli kechmoqda. Mamlakatning boshlang'ich ta'lim tizimida gender tenglik ta'minlangan va har bir o'g'il-qiz teng ravishda ta'lim oladi, o'zining mental xususiyatlariga mos tarzda tarbiyalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirish uchun quyidagilarga amal qilish samarali hisoblanadi:

- o'quvchilarni tashabbuskorlikka o'rgatish;
- o'quvchilarni muammolarni hal qilishga ko'niktirish;
- o'quvchilarni jamoa bo'lib birlashishga yo'naltirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining faollashuviga olib keladi. Chunki 7-11 yoshli o'quvchilar yo'naltirish vositasida faollashtirilsa, ularni turli xil zo'ravonliklardan himoya qilish kuchayadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar -2030" strategiyasida ana shu besh yo'nalish ustuvor vazifalar sifatida belgilanib, ular asosida yoshlarga ta'lim berish, tarbiyalash hamda ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga da'vat qilib kelinmoqda. Bu strategik yo'nalishlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash ularni nafaqat o'z Vatani, balki umuminsoniyat xizmatida bo'lishga tayyorlash imkonini ham beradi. Shu sababli mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim dasturlari va strategiyalariga moslashtirish, ular asosida yuksak darajadagi o'qitish jarayonini amalga oshirish ishlari ketmoqda. Buning uchun BMTning "Har bir yoshning manfaatlarini ro'yobga chiqarish va ularni qo'llab-quvvatlash" tamoyiliga amal qilinmoqda.

O'zbekiston boshlang'ich ta'limi BMTning "Yoshlar strategiyasi" asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda quyidagi imkoniyatlarga ega:

- maktab binolari zamonaviy talablar asosida qurilgan;
- sinflar va maktab eng zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan;
- boshlang'ich ta'lim dasturlari va o'quv materiallari xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda ishlab chiqilgan;
- o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha zamonaviy tajriba mavjud;
- boshlang'ich ta'lim tizimi professional va fidoiy o'qituvchi kabilar bilan ta'minlangan;
- jamiyat boshlang'ich ta'limni yuksak darajada amalga oshirishdan manfaatdor hisoblanadi.

Bularning barchasi BMT tomonidan taklif etilayotgan v qo'yilayotgan yoshlarga oid talablarni va vazifalarni o'z vaqtida bajarish imkonini bermogda. Shuningdek, BMTning shafiyligidagi bir necha tashkilotlarning xalqaro dasturlari ham boshlang'ich ta'limda amal qilmoqda. Misol uchun, 2021-yili mamlakat boshlang'ich sinf o'quvchilari PIRLS xalqaro ta'lim dasturi tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi va o'zlarining tabiiy-ilmiy tushunchalarini kutilgan darajada namoyon qilishdi. Demak, mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilari dunyodagi tengdoshlari qatorida ta'lim va tarbiya olmoqda.

Ayni paytda, mamlakatda boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya asosida tarbiyalash vazifasi amalga oshirilmoqda. YAngidan ishlab chiqilgan milliy g'oyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) insonparvarlik;
- 2) ezgulik;
- 3) bunyodkorlik⁶⁶.

E'tibor berilsa, bu tamoyillar Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar strategiyasi" tamoyillariga xamohangdir. Chunki insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalangan o'quvchi hech qachon yovuzlik, noinsoniylik va vayronkorlik sari qadam bosmasligi ma'lum. Shu sababli BMT shafiyligidagi xalqaro ta'lim dasturlarining maqsadi ham har bir yosh shaxs ongida aynan insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalash vazifasini qo'yganligi ma'lum. Mamlakatimizning milliy g'oyasi ana shu jihatlari bilan umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi va 7-11 yoshli o'quvchilarning tarbiyasida ustuvor tamoyil sifatida qabul qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar strategiyasi"ni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, voyaga etib kelayotgan har bir yosh avlod insoniyatga mos

⁶⁶ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir.. - Toshkent, 2021.

ravishda hayotga yo'llanma olishi kerak. Shu sababli bizning mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida boshlang'ich sinf bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichlari va hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Misol uchun, boshlang'ich sinf bitiruvchilari ta'limning quyidagi bosqichlarga tayyorlanayotganini alohida ta'kidlash lozim:

- 1) umumiy o'rta ta'limga;
- 2) Prezident maktablariga;
- 3) ijod maktablariga;
- 4) ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga.

E'tibor berilsa, mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi bunday imkoniyatlar keng ko'damli ekanligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya olish jarayoni chuqurlashganligi va ularning ijtimoiylashuvi kengayganligi namoyon bo'lmoqda. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olish huquqi va erkinliklari kengayib borayotganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlarga tayanishni taqozo etadi. Bu borada quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan keng tanishtirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini mustaqil ta'lim va amaliy mashg'ulotlar jarayonida kuchaytirilgan tarzda rivojlantirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xorijlik hamkasblarining tajribalari bilan tanishtirib borish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy faollashtirish.

Bunday yondashuv hozirgi zamon innovatsion rivojlanish va boshlang'ich ta'lim sifatiga erishishning negizlari hisoblanadi.

Bu o'rinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar strategiyasi" dasturining quyidagi yo'nalishlarini alohida ta'kidlash lozim:

- a) yetakchilik ko'nikmasini shakllantirish;
- b) bilimdon va innovatsion ko'nikmali sifatida voyaga yetkazish;
- v) qaror qabul qila olishga ko'niktirish;
- g) mas'uliyatli qilib voyaga yetkazish.

Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida har bir o'quvchida ana shu ko'nikmalarni kutilgan darajada shakllantirish vazifasi turibdi. Buning uchun bizning yondashuvimizga ko'ra, bu masalada quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari o'qituvchilarining tarbiya ishi bilan shug'ullanish vazifalarini kuchaytirish;

- "Tarbiya" fani imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va uning sifat samaradorligiga erishish;

- oshlang'ich sinf rahbarlarining faoliyatini kuchaytirish;

- boshlang'ich sinflarda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayonini maktab jamoasi tomonidan monitoring qilib borish;

- muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilarni rag'batlantirib borish tizimini yo'lga qo'yish.

Bularning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining mazkur strategiyasida belgilangan yoshlarga oid vazifalarni to'liq bajarish imkonini beradi. Bizning mazkur masalada yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

- amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini malaka oshirish kurslari vositasida xalqaro ta'lim dasturlari bilan keng tanishtirish;

- mazkur toifa o'qituvchilarining "Yoshlar strategiyasi" dasturi mazmuni bilan qurollantirish;

- eng faol boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rag'batlantirib borish;

- tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarini faoliyatini targ'ibot qilish.

Umuman, BMT kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan taklif etilayotgan dasturlar asosida boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish keng ko'lamli vazifa hisoblanadi. Shu sababli bugungi boshlang'ich ta'lim mazmuni ham takomillashib bormoqda. Bizningcha, xalqaro miqyosdagi strategiyalar yoki dasturlar asosida boshlang'ich sinflarda tarbiya jarayonini amalga oshirish bilan quyidagilarga erishish imkoniyatlari mavjud:

- o'quvchi shaxsini dunyodagi tengdoshlari qatorida umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlar asosida tarbiyalash;

- globallashuvning o'ziga xos yutuqlardan foydalangan holda o'quvchi shaxsini yo'naltirish;

- o'quvchining bilimdonlik darajasini yuksaltirish;

- o'quvchilarning o'zaro hamkorlik ruhida munosabatda bo'lishiga erishish.

Bunday yondashuv milliy boshlang'ich ta'lim tizimlari faoliyatlarini kengaytiradi va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon qiladi.

Mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan Milliy o'quv dasturida BMT kabi xalqaro tashkilotlarning yoshlarga doir strategiya va dasturlari mazmuni hisobga olingan. Mazkur dastur 2023-yilga borib umumiy o'rta ta'lim tizimiga to'liq tatbiq etilishi nazarda tutilgan. Shu sababli mamlakatimizda ushbu dasturni amalga oshirish bilan boshlang'ich ta'limda xalqaro miqyosdagi strategiya va dasturlarga amal qilish tarkib topadi. Asosiy maqsad 7-11 yoshli o'quvchilarni milliy va xalqaro ta'lim dasturlari talablari asosida voyaga etkazishdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar strategiyasi” har bir yosh bilan har bir yoshning manfaati uchun mazmunidagi tamoyilga asolanar ekan, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni ham individual va umumiy xususiyatlarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Bu masaladagi bizning yondashuvimiz quyidagicha:

a) individual xususiyatlar:

- har bir o‘quvchining xarkteri va jismoniy individualligini ta’minlash;
- har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlar va xarakterlarga egaligini hisobga olish;
- har bir o‘quvchini bilimdon qilish;
- har bir o‘quvchiga tarbiya berish.

b) umumiy xususiyatlar:

- har bir o‘quvchini kutilgan darajada ijtimoiylashtirish;
- har bir o‘quvchini hayotga tayyorlash;
- har bir o‘quvchining ijtimoiy ongini shakllantirish;
- har bir o‘quvchida insoniyatga muhabbat ruhini tarkib toptirish.

Bunday yondashuv BMTning yoshlar masalalari bo‘yicha qo‘yayotgan takliflari va g‘oyalarini amalga oshirishda samarali hisoblanadi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, o‘quvchi shaxsining tarbiya jarayonini BMT kabi xalqaro tashkilotlarning strategiyalari yoki dasturlari asosida amalga oshirishda boshlang‘ich ta’lim imkoniyatlariga tayanish samarali hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim jarayoni yangiligi, har qanday ma’lumotlarni qabul qiluvchanligi va kutilgan samarani berishi bilan ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limni xalqaro miqyosdagi strategiyalar va dasturlar asosida rivojlantirish jarayoni 2020-yildan boshlab kuchaytirildi. Chunki mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoni xalqaro miqyosdagi dasturlarning faol sub’ektiga aylandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar strategiyasi” ilgari surgan g‘oyalar va takliflarni 2030-yilga qadar amalga oshirish mo‘ljallangan. Shu sababli bizningcha, quyidagilarni amalga oshirish kutilgan samarani beradi:

- strategiyada belgilangan g‘oyalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash Dasturlarini yaratish va amalga oshirish;

- mazkur strategiya bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganib borish va ularning yutuqlaridan foydalanish;

- stretegiya vositasida boshlang‘ich sinf o‘quchilarini tarbiyalashda erishilayotgan milliy tajribalarni xorijiy nashrlar orqali targ‘ibot qilish;

- bu ishlarda faol ishtirok etiyotgan talabalar va o‘qituvchilarni rag‘batlantirish.

E'tibor berilsa, muhim hisoblangan xalqaro miqyosdagi strategiyalar ijrosida o'quvchilarning ota-onalari ishtirok etishi cheklangan. Buning sababi shuki, xalqaro miqyosdagi strategiyalar va dasturlar shaxs imkoniyatlarini to'liq va maqsadli ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi. Shu sababli maktab jamoasining bu boradagi vazifalari va mas'uliyati ustuvor hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar strategiyasi" har bir mamlakat boshlang'ich ta'limini rivojlantirish hususiyatiga ega. Shu sababli mazkur strategiyani milliy boshlang'ich ta'lim tizimlariga joriy etish bilan xalqaro hamkorlikka va yagonalikka erishish mumkin. Bizning kuzatishlarimiz va tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, Strategiyaning maqsad va muddaolari har bir mamlakat boshlang'ich ta'lim tizimini xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini yagona va tipiklashgan g'oyalar asosida tarbiyalashni belgilaydi. Bularning barchasi har bir mamlakatda voyaga etayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda yagona dasturlarga asoslanishni taqozo etadi. Dastur yakunida o'quvchilarning xorijlik tengdoshlari bilan teng va erkin huquqli voyaga yetishiga erishish mumkin.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida o'ziga xos tajriba mavjud. Bu tajribaning asosiy yo'nalishlaridan birini xalqaro miqyosdagi strategiyalar va dasturlarni amalga oshirish tashkil etadi. Bu borada ayniqsa keyingi besh yil davomida samarali ishlar amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Insoniyatning hozirgi rivojlanish jarayoni zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli va oqilona foydalanishni taqozo etadi. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkilotining mazkur strategiyasida ta'lim jarayonini eng zamonaviy texnologiyalarda amalga oshirish nazarda tutilgan. Mazkur masalada bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish;
- b) zamonaviy texnologiyalarning masofaviy va noan'anaviy shakllaridan tarbiya jarayonida oqilona foydalanish;
- v) zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan tarbiya jarayonida foydalanilganda vaqt me'yoriga amal qilish;
- g) boshlang'ich sinf o'quvchilarining xalqaro miqyosdagi strategiya yoki dasturlar asosida tarbiyalash mezonlarini belgilab olish⁶⁷.

Umuman xalqaro miqyosdagi strategiya va dasturlar milliy boshlang'ich ta'lim tizimlarining tarbiyaviy faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

⁶⁷ Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'limda integratsiyalash masalalari. Academic research in educational sciences, Issue 4, 2021. B. 701-706

Shunday qilib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar - 2030” strategiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasini milliy va umuinsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida amalga oshirishni taqozo etadi. Bizning mamlakatimizda bu borada aniq va maqsadli ishlar boshlanganini eslatib o‘tish joiz. Maqsadimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyodagi tengdoshlari qatorida bilimli, axloqli, faol va tashabbuskor shaxslar sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Buning uchun mamlakatimizning boshlang‘ich ta‘lim tizimi keng imkoniyatlarga ega.

Globallashuv sharoitida boshlang‘ich ta‘lim o‘quv fanlarini o‘qitish muammolari va ularning yechimlarini topish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki, globallashuv fanlararo bog‘liqlikni va jahon ta‘lim tizimidagi yutuqlarni o‘zlashtirish, amaliyotga joriy etish va milliy tajribalarni ularga uyg‘unlashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish, uning vositasida boshlang‘ich ta‘lim o‘quv fanlarini o‘qitishni takomillashtirish vazifalari qo‘yilgan⁶⁸. Ushbu vazifalarning asosiylari quyidagilardan iborat bo‘lib, ularni hal etish boshlang‘ich ta‘lim o‘quv fanlarini o‘qitish muammolariga echim beradi:

1. *Tayanch o‘quv rejasini takomillashtirish.* Mazkur vazifaning asosiy xususiyatlari shundan iboratki, boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarida mavzularning takrorlanmasligi va ularning o‘zaro bog‘liqligi hal etilishi kerak. Misol uchun, Ona tili va o‘qish o‘quv fanining tayanch o‘quv rejasini Tarbiya fani o‘quv rejasini bilan bog‘liqlikda va uyg‘unlikda bo‘lishi kerak. Shuningdek, mavzularning ketma-ketligi va fanlararo bir-birini to‘ldirishi kabi talablar xal etilishi kerak.

2. *O‘zaro uzviy bog‘liq o‘quv fanlarini birlashtirish.* Bu muammoning mazmuni shundan iboratki, boshlang‘ich ta‘limda o‘qitilayotgan o‘quv fanlari ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fanlar turkumiga bo‘linishi kerak. Shunda mazkur turkumdagi fanlarning o‘zaro bog‘liqligi kuchayadi. Misol uchun, mazkur yondashuvdan kelib chiqib, Ona tili va O‘qish fanlari birlashtirilgan, shuningdek, Matematika o‘quv fanining arifmetika, hisob va sanoq yo‘nalishlari yagona kurs sifatida turkumlashtirildi. Bulardan maqsad boshlang‘ich sinf o‘quv fanlarini jahon tajribalari asosida o‘qitish va ularning boshqaruvini optillashtirishdan iborat. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini muntazam kuchaytirib borish taqozo etiladi.

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2020-yil 7-noyabr soni.

3. *Yangi avlod darsliklarini yaratish.* Mazkur vazifaga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quv fanlarining amaldagi darsliklari o'zaro uzviy bog'liqlik tamoyili asosida takomillashtirilgan variantda yaratilishi kerak. Ayni paytda, Milliy o'quv dasturi talabiga binoan yangi avlod darsliklari o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq daftari va multimediya ilovasi bilan majmua tarzida nashr etilishi kerak. Shu sababli yangi avlod darsliklarini yaratishda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzviy hamkorligi taqozo etiladi. Shuningdek, yaratiladigan yangi avlod darsliklari ommaviy nashrdan oldin tajriba-sinovdan o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur sinovlar natijasiga ko'ra darsliklarni amaliyotga kiritish taqozo etiladi.

4. *O'quv fanlarini o'zlashtirishni baholash.* Boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan o'quv fanlarini o'zlashtirishni baholashda Milliy o'quv dasturida quyidagilar nazarda tutilgan:

- o'quvchilarning bilim darajasini baholash;
- o'quvchilarning savodxonlik darajasini baholash;
- o'quvchilarning kompetensiyasi (qobiliyati) darajasini baholash;
- o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini baholash.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'zlashtirishni baholashga yangicha yondashuv belgilangan. Ilgari o'quvchilarning bilimi ustuvor darajada baholangan bo'lsa, bundan keyin ularning savodxonlik darajasi (tushunishi va mustaqil fikrlashi), kompetensiyasi (qobiliyatining rivojlanganligi) va shaxsiy sifatleri (ongi va axloqining rivojlanish darajasi) ham baholanadi. Demak, boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlarining baholash tizimi o'zgarimoqda va unda o'quvchilarning keng ko'lamli baholashni nazarda tutmoqda.

Mazkur muammolarni hal etishning yo'llari ko'p. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish kerak:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv fanlari darsliklari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish⁶⁹;
- amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini uzluksiz tarzda oshirib borish;
- ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilarining namunali tajribalarini ommalashtirish;
- boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan o'quv fanlarining monitoringini mudom yuritib borish.

Glaballashuv sharoitida boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan o'quv fanlarini o'qitishni va ularning darsliklarini takomillashtirishda ilg'or xorijiy

⁶⁹ Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli texnologiyasi. –T., 2021.

tajribalarni o'rganish ham taqozo etilmoqda. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich ta'limida sinf tarbiyachisi lavozimi joriy etilgan. Bunda sinf tarbiyachisining asosiy vazifasi o'quvchilar bilan darsliklar ustida ishlash va qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yordam berishdan iborat. Mazkur tajriba keyingi paytlarda MDH davlatlarida e'tirof etilmoqda. Bu kabi tajribalardan foydalanish ham kutilgan samarani beradi.

Globallashuv sharoitida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitishni takomillashtirib borish muntazamlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Shundagina darsliklarni takomillashtirish, yangi o'qitish metodlarini kashf etish va ta'limning amaliy samarasiga erishish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"da boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda "Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi"ga tayanish vazifasi belgilab qo'yilgan⁷⁰. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishda ta'lim va fanning imkoniyatlari hamda ishlab chiqarish vositalarining uyg'unligiga tayanish vaqtini tejaydi, kutilgan samarani beradi va ta'lim sifatini baholashning huquqiy asoslarini yuzaga keltiradi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shunday yangi va integratsion texnologiyalardan biri virtual axborot-ta'lim laboratoriyasidir.

Virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi bu – o'rganilayotgan ta'lim jarayonlarini kompyuter vositasi orqali taqdim etish va masofaviy uzatish dasturiy majmuadir. O'zgacha aytganda, kompyuterga ta'lim jarayonlari topshiriqlari, mashg'ulotlari matnlari va ko'rsatmalar joylashtiriladi. Bu materiallarni joylashtirishda multimediya imkoniyatlari, axborot ma'lumotlari va animatsion tasvirlardan keng foydalanish imkoniyati mavjud. Shu sababli pedagog olimlar mazkur texnologiyaning quyidagi imkoniyatlarini alohida ta'kidlashadi:

- qimmatbaho laboratoriya jihozlarini sotib olishga ehtiyojning yo'qligi;
- laboratoriya sharoitlarida bajariladigan jarayonlarni oydinlashtirish mumkinligi;
- vaqt va resurslarning tejallishi;
- bajarilgan laboratoriya topshiriqlarining natijalarini avtomatik tarzda hisoblash mavjudligi;
- mazkur texnologiyadan masofaviy ta'limda foydalanish imkoniyatining kengligi.

Axborot-ta'lim laboratoriyasi ayniqsa, shakllanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini kutilgan darajada rivojlantirishda qo'l keladi.

⁷⁰ Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. // www.ziynet.uz

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqini shakllantirishda ularning talaffuz ko'nikmasi, lug'at boyligi va so'zlashuv savodxonligini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Shu sababli mazkur jarayon uchun quyidagicha axborot-ta'lim laboratoriya texnologiyasini shakllantirish mumkin:

birinchidan, kompyuterga maxsus dastur asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirish asoslari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi;

ikkinchidan, kiritilayotgan ma'lumotlar ketma-ketlik va topshiriq shaklida beriladi;

uchinchidan, har bir sahifadan boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishga oid ko'rsatmalar va topshiriqlar berib boriladi;

to'rtinchidan, kiritilayotgan materiallarning birinchi sahifasi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalaridan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq;

beshinchidan, kiritilayotgan materiallarning ikkinchi sahifasida lug'at bilan ishlash ijodiy topshiriqlari berilishi kutilgan samarani beradi;

oltinchidan, kiritilayotgan materiallarning uchinchi sahifasida o'quvchilarning so'zlashuv savodxonligini shakllantirishga yo'naltirilgan ishlanmalarning bo'lishi maqbul hisoblanadi va h.k.

Virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi murakkab sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirish jarayonida juda keng imkoniyatlarni beradi. Keyingi paytlarda pedagog olimlarimiz tomonidan virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda. Misol uchun, bu borada Pedagogika fanidan "O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida" nomli texnologiya yaratilganini eslatib o'tish joiz⁷¹. Bu texnologiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishda kompyuterli texnologiyalardan va ta'limiy axborotlardan uyg'un foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda taqdim etilayotgan virtual axborot ta'lim laboratoriyasi quyidagi afzalliklarga ega:

- kompyuter orqali uzatilayotgan o'quv materiallariga o'quvchilar qiziqish bilan munosabatda bo'ladi;

- mazkur materiallarda ijodiy ishlanmalar ko'proq o'rin tutadi;

- buning natijasida o'quvchilar taqdim etilayotgan materiallarni va topshiriqlarni qiziqish bilan bajarishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishda axborotli texnologiyalardan foydalanish muammosi hozircha tahlil etilgan emas. Bunday texnologiyalardan fizika, matematika, geografiya kabi fanlarni o'qitishda

⁷¹ Mardonov Sh. Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. –T., 2021. –B. 51-60.

foydalanish tajribalari mavjud. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan "Ona tili va o'qish" fani uchun axborotli texnologiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki murakkab sharoitlarda o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish ishlarini texnologiyalarga asosan amalga oshirish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqini shakllantirishda bevosita ular bilan birgalikda ishlash taqozo etiladi. Ta'kidlanayotgan texnologiyada esa **o'qituvchi+kompyuter+o'quvchi** tizimiga asoslaniladi. Bunda kompyuter axborot va ta'lim manbai bo'lib xizmat qiladi hamda mashg'ulotlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu yerdagi eng asosiy jihat o'quvchilarning kompyuter vositasida qiziqish bilan so'zlar talaffuzi, lug'atlar ma'nosi va ularning yozilish qoidalarini o'rganishdir.

O'zbek tilining yozma va talaffuz qilish nutqida farqliklar bor. Masalan, talaffuz qilinayotgan so'z adabiy til normalariga muvofiq yoziladi: talaffuz-ketti; yozilishi-ketdi. Mana shunday farqliklarni tushuntirish, o'rgatish va ularni o'zlashtirishga ko'niktirishda virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi texnologiyasining imkoniyatlari yuqoridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirish jarayoni nazariya va amaliyot uyg'unligida amalga oshiriladi. Aynan mana shu masalada axborotli va ta'limiy texnologiyalarning ahamiyati kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishda virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi kabi zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari keng bo'lib, ulardan foydalanish ta'lim sifatiga erishish imkonini beradi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim amaliyotida "Yoshlar strategiyasi" kabi xalqaro miqyosdagi dasturlarning ahamiyati kattadir. Bunday dasturlar boshlang'ich ta'lim amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasining amaliyoti ana shunday yondashuvlarni taqozo etadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasi amaliyotiga kutilgan darajada erishish uchun ana shu yondashuvga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da barcha sohalar qatorida pedagogik ilmiy-tadqiqotchilikda sifat samaradorligiga erishish vazifasi ham qo‘yilgan. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim metodikasining yangi nazariy masalalarini idrok etish va uning muammolarini tadqiq etib borish taqozo etib boriladi. Shu ma‘noda biz mazkur boshlang‘ich ta‘lim metodikasining yangi nazariy masalalarini tahlil etish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasining dolzarb nazariy masalalari mazkur ta‘lim bosqichida yuzaga kelayotgan yangi ilmiy, metodologik va texnologik yondashuvlar bilan belgilanadi. Bunda ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim metodikasini innovatsion va integratsion omillar vositasida yanada takomillashtirish muhim yangi nazariy masalalardan biri bo‘lib turibdi.

2. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasining nazariy tajribalarida ham o‘ziga xos yangiliklar kuzatilmoqda. Bu borada oliy boshlang‘ich ta‘lim jarayonida chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashish va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda o‘zlashtirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan butun dunyo mamlakatlari boshlang‘ich ta‘lim jarayonida tan olingan Yan Amos Komenskiy, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy va Mariya Montessorining metodologiyasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bunday o‘ziga xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishi ularning kasbiy ko‘nikmalarini chuqurlashuviga olib keladi.

3. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi nazariyasi amaliyoti masalalari ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada biz nazariyaning amaliyotini to‘g‘ri idrok etishimiz kerak. Shu ma‘noda pedagogikamiz tarixi uchun yangi bo‘lgan “Boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanining asoslarini aniq belgilash va “Yoshlar strategiyasi” kabi xalqaro ta‘lim dasturlarining tajribalaridan foydalanish boshlang‘ich ta‘lim metodikasi nazariyasi amaliyotini idrok etishda tayanch hisoblanadi. Bunday yondashuv nazariyaning amaliy asoslarini yaqqol namoyon qiladi.

4. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasining yangi nazariy masalalarini idrok etish va bunda milliy pedagogik tajriba hamda xorijiy mamlakatlarning pedagogik tajribalarini uyg‘unlashtirgan holda yondashish zaruriyat hisoblanadi. Negaki bunday yondashuv boshlang‘ich ta‘lim metodikasining yangi nazariy masalalarini tez anglab olishda tayanch hisoblanadi.

5. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasining yangi nazariy masalalarini tadqiq etib borish bilan mazkur metodikaning ilmiy, metodologik va texnologik asoslarini kuchaytirib borish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Biz aynan mana shunday yondashuv asosida boshlang‘ich ta‘lim metodikasining yangi nazariy masalalarini tahlil qilishga harakat qildik. Natijada muayyan xulosalarga kelindi va bu borada ilmiy-tadqiqotlar davom ettirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // www.ziynet.uz
2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari 2017-yil 6-aprel. // www.ziynet.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. // www.ziynet.uz
4. Uzlaksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi. // www.ziynet.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020-yil 30-dekabr soni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. // www.ziynet.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil 7 noyabr soni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun “Tarbiya” fani davlat ta’lim standartlari va malaka talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. // www.ziynet.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr soni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // www.ziynet.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. // www.ziynet.uz.
12. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. –T., 2021.
13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. – Toshkent, 2021-yil
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021- yillardagi ta’limga oid Qarorlari va Farmonlari.//www.ziynet.uz.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan Murojaat nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2020-yil 1-oktabr soni.
16. Avesto. M.Is’hoqov tarjimasi. –T.: “Fan”. 2001.
17. Adizov O. Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2011.

18. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1997, -B. 164-170
19. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. Учебник для ВУЗов. - СПб.: "Питер" 2001. С 142-143.
20. Гессен С.И. Основы педагогики. –М.,1995
21. Кошифий Ҳ.В. Футувватномаи султоний. –Тошкент, 1994. –Б. 28-30.
22. Karimjonov A., Ochilov F.I. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya muammolari. T., 2021.
23. Коменский А.Я. Буюк дидактика. –Тошкент, 1972. -Б. 132-133.
24. Muhamedov G'., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri. – Chirchiq. 2020.
25. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021
26. Mardonov Sh.Q., Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'limda asosiy tushunchalar. XXI asr ta'lim tizimida innovatsion va integratsion yondashuvlar, Jizzax, 2021, B. 312-314.
27. Mavlonova R.va boshq. Pedagogika tarixi. –Toshkent, 2018. –B.126-127
28. Мария Монтессори. Метод научное педагогике. // Из история зарубежное педагогике. Хрестоматия. –М.: "Просвещение". 1954. – С. 377-425.
29. Jabborova O.M. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy idrokini shakllantirish.T., 2012.
30. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlari. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, TVCHDPI 2021, B. 63-67.
31. Jabborova O.M. "Kelajak o'qituvchisi" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi va uning faoliyati. // Экономика и социум, №8 (87) 2021.
32. Jabborova O.M. O'qitishning kredit-modul tizimida o'quv fanlarini tanlash tamoyillari. Academic research in educational sciences, 2(6), 2021, rr 1095-1099
33. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'limda integratsiyalash masalalari. Academic research in educational sciences, Issue 4, 2021. B. 701-706
34. Pedagogik atamalar lo'g'ati. Tuzuvchilar R.Jurayev va boshq. –T.: "Fan". 2008.
35. Портер М. Конкрунция. –Киев. "Вильямс". 2001.
36. Po'latova D.T. Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash. – Toshkent, 2018.
37. Pedagogika nazariyasi va tarixi. B.Abdullayeva va boshq. – Toshkent, 2017
38. Педагогическое наследие. Антология. – Москва 1889. Из истории зарубежное педагогике. Антология. –Москва, 1989.
39. STEAM программа международное образование. // www.google.uz

40. Ушинский К.Д. Танланган педагогик асарлар. –Тошкент, 1959.
41. O‘zbek pedagogikasi ensiklopediyasi. R.Safarova, O. Musurmonova va boshq. – Toshkent, 2018. 1 TOM.
42. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent, 1996.
43. O‘zbek pedagogikasi ensiklopediyasi. R.Safarova, O. Musurmonova va boshq. – Toshkent, 2018. 1 TOM.